



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
**TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH
MILLIY AGENTLIGI**

OLIV TA'LIMDAN KEYINGI TA'LIM TASHKILOTLARINI KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITASIYASIDAN

O'TKAZISHGA TAYYORGARLIK KO'RISH BO'YICHA

QO'LLANMA



www.nqaae.uz

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI
TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI**

**Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga
oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarni
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASIDAN
o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha
QO'LLANMA**

Toshkent-2026

Mazkur qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyat yuritayotgan davlat va nodavlat oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlar tomonidan, ularning idoraviy mansubligi va tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'i nazar, ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Qo'llanma oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotining davlat ta'lim talablari hamda akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, shuningdek, ularni takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirishga doir nazariy hamda amaliy tavsiyalarni qamrab oladi.

Qo'llanmada ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasi baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari kesimida tahlil qilish, zarur ma'lumotlarni shakllantirish hamda baholash natijalarini asoslovchi dalil va hujjatlarni aniqlash tartibi bayon etilgan.

Mazkur qo'llanma ta'lim tashkilotlarining rahbarlari, ta'lim sifatini ta'minlash bo'linmalari mas'ullari va professor-o'qituvchilari uchun ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorlashda amaliy-uslubiy manba bo'lib xizmat qiladi.

Mazkur qo'llanma tavsiyaviy xarakterga ega bo'lib, oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning taklif va mulohazalari asosida muntazam takomillashtirib boriladi.

MUNDARIJA

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar	4
KIRISH	5
ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR.....	7
KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH	8
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH	9
BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI HISOBLASH.....	11
ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH	12
TA'LIM TASHKILOTINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI	14
I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi	14
II. Tadqiqot sifatini ta'minlash yo'nalishi	29
IV. Tadqiqot jarayonini tashkil etish yo'nalishi.....	50
V. Inson resurslari yo'nalishi	60
VI. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi	70
ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA	101
ILOVA: TA'LIM TASHKILOTI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI	102
1-jadval	106
2-jadval	107
3-jadval	108
4-jadval	109
5-jadval	110
6-jadval	111
7-jadval	112
8-jadval	113
9-jadval	114
10-jadval	115
11-jadval	116
12-jadval	117
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI REJASI.....	118
QAYDLAR UCHUN	119

Qo'llanilgan qisqartma so'zlar

Qisqartmalar	Mazmuni
AKT	Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari
HEMIS	Ta'lim jarayonlarini boshqarish axborot tizimi
OAV	Ommaviy axborot vositalari
LMS	Ta'limni boshqarish tizimi

KIRISH

Ushbu qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ta'lim sifatini ta'minlash va ta'lim xizmatlari ko'rsatish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2025-yil 5-maydagi PF-76-son Farmoni hamda Vazirlar Mahkamasining "O'rta maxsus, kasbiy, oliy va oliy ta'limdan keyingi ta'lim, shuningdek, kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tashkilotlarini kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tizimini joriy etish to'g'risida" 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan vazifalardan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

Qo'llanmada ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida ichki (o'zini o'zi) baholashni samarali tashkil etishga doir uslubiy tavsiyalar bayon etilgan.

Shuningdek, qo'llanmada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi direktorining 2025-yil 22-dekabrda "Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarni kompleks hamda maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlarni tasdiqlash haqida"gi 6-son buyrug'i (ro'yxat raqami: 3748) bilan tasdiqlangan indikatorlar bo'yicha tegishli ma'lumotlarni taqdim etishga doir uslubiy tavsiyalar keltirilgan.

Qo'llanma ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonini yagona talablar asosida tashkil etish, baholash yo'nalishlari, mezonlari va zarur hujjatlarni aniq belgilash hamda ta'lim tashkilotlariga ichki (o'zini o'zi) baholash hisobotini to'g'ri shakllantirish, asoslantiruvchi hujjatlarni yig'ish va tashqi baholash jarayoniga samarali tayyorgarlik ko'rishga metodik yordam beradi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash bo'yicha yagona yondashuvlarga rioya qilinishi ta'lim tashkiloti va tashqi baholash uchun ekspert komissiyalarining ish samaradorligini oshiradi hamda osonlashtiradi.

Ichki baholash jarayonining o'tkazilishidan maqsad ta'lim tashkilotini har tomonlama va chuqur tahlil qilishdan iborat bo'lib, kelgusida uning samaradorligini oshirish uchun foydalaniladi. Ichki baholash jarayonida ta'lim tashkilotini tahliliy va tanqidiy baholash amalga oshiriladi.

Ichki baholash hisoboti tegishli baholash yo'nalishlari va mezonlariga muvofiq ma'lumotlarni tahlil qilishga bag'ishlangan qismlar va boblardan iborat tahliliy ma'lumotnoma shaklida tayyorlanadi.

Ta'lim tashkilotining ichki baholash hisobotidan ekspert komissiyalari tashqi baholash jarayonida to'liq ma'lumot olish va sifatini baholash uchun foydalaniladi.

Ichki baholash hisobotini tayyorlash maqsadida ta'lim tashkiloti tomonidan ma'muriyat, ilmiy rahbar(konsultant)lar, kamida bitta izlanuvchi vakili, shuningdek, ish beruvchilar va (yoki) ijtimoiy hamkorlar vakillaridan iborat ishchi guruh tuzilib, baholash amalga oshirishi mumkin.

Ichki baholash hisobotini tayyorlashda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

- hisobotni mazkur qo'llanmada belgilangan ketma-ketlikda shakllantirish;
- taqdim etilayotgan har bir hujjat va ma'lumotni aniq, tushunarli hamda dalillar bilan asoslash;
- davlat tili qoidalari va talablariga amal qilish;
- rasmiy muomalada keng qo'llaniladigan so'z va atamalardan foydalanish;
- istiqbolli rejalar, loyihalar va kutilayotgan natijalarni aniq ko'rsatish;
- har bir baholash mezoni va indikatorlari bo'yicha qisqa, aniq hamda dalillarga asoslangan tahliliy ma'lumotlarni kiritish.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligi (keyingi o'rinlarda – Agentlik) davlat akkreditatsiyasini o'tkazish bo'yicha maxsus vakolatli organ hisoblanadi.

ASOSIY TUSHUNCHA VA ATAMALAR

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bilan bog'liq hujjatlarni shakllantirishda O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni (23.09.2020, O'RQ-637-son), qonunosti hujjatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy tushuncha va atamalardan foydalanilishi shart.

Shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasining ichki baholash hisobotini shakllantirish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizom hamda mazkur qo'llanmada qo'llanilgan asosiy tushuncha va atamalar asosida amalga oshiriladi.

Davlat akkreditatsiyasi jarayonlarida quyidagi tushuncha va atamalardan keng foydalaniladi:

davlat akkreditatsiyasi – ta'lim tashkiloti faoliyati davlat ta'lim talablari va ta'lim dasturlariga muvofiqligini aniqlashga qaratilgan kompleks yoki maxsus akkreditatsiyani o'z ichiga oluvchi jarayon;

baholash yo'nalishi – ta'lim tashkilotining faoliyati va samaradorligini baholash uchun belgilangan asosiy yo'nalishlar majmui bo'lib, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, tadqiqot sifatini ta'minlash, tadqiqotchilar faoliyati, tadqiqot jarayonini tashkil etish, inson resurslari, ilmiy-tadqiqot ishlari, tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash va moddiy-texnik ta'minot kabi yirik tarkibiy sohalarni qamrab oladi;

mezon – muayyan baholash yo'nalishida sifatga qo'yiladigan minimal talablar va standartlar majmui;

indikator – belgilangan mezon bajarilishini aniq, o'lchab bo'ladigan va asoslantiruvchi dalillar bilan tasdiqlanadigan ko'rsatkich;

ichki baholash hisoboti – ta'lim tashkiloti tomonidan davlat akkreditatsiyasiga tayyorgarlik jarayonida tayyorlanadigan hujjat bo'lib, unda ta'lim tashkilotining baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga muvofiqligi yuzasidan tahlillar, dalillar hamda xulosalar keltiriladi;

ta'lim tashkiloti – oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilot;

asoslantiruvchi dalillar – mezon yoki indikatorlarga tegishli hujjatlar, ma'lumotlar, statistika, jarayonlar, qarorlar, foto/video materiallar yoki boshqa aniq asoslar.

KOMPLEKS DAVLAT AKKREDITATSIYASI UCHUN ARIZANI RASMIYLASHTIRISH

Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risida arizalar Agentlikning Ta'lim tashkilotlarini davlat akkreditatsiyadan o'tkazish va reytingini yuritish bo'yicha **"accreditation.nqaae.uz"** axborot tizimi orqali elektron shaklda qabul qilinadi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizalar ta'lim tashkilotining akkreditatsiyadan o'tganlik to'g'risidagi oxirgi sertifikat muddati tugaydigan o'quv yilidan oldingi o'quv yilining **15-sentyabriga qadar** qabul qilinadi.

Davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish to'g'risidagi arizani shakllantirish, qo'shimcha hujjatlarni taqdim qilish va ularni ko'rib chiqish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 6-avgustdagi 498-son qarori bilan tasdiqlangan nizomda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ta'lim tashkilotlarini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda ta'lim tashkilotining vakili (ariza beruvchi) belgilangan talablar asosida ariza topshirish, yig'implarni belgilangan muddatlarda to'lash, Agentlik va ta'lim tashkiloti o'rtasida shartnomani rasmiylashtirish, ekspert komissiyasining joyiga chiqqan holdagi faoliyati hamda Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan qaror qabul qilinishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish, shuningdek, ma'lumotlarni belgilangan muddatlarda taqdim etish uchun mas'ul hisoblanadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI SHAKLLANTIRISH

Ta'lim tashkiloti tomonidan tayyorlangan ichki baholash hisobotida davlat akkreditatsiyasi mezonlari asosida ta'lim tashkilotining real holati dalillarga tayangan holda tahlil qilinadi, baholanadi hamda uni takomillashtirish choralari belgilanadi. Unda keltirilgan ma'lumotlardan ekspert komissiyalari tomonidan ta'lim tashkilotini tashqi baholash jarayonlarida foydalaniladi.

Ichki baholash hisoboti ta'lim tashkilotining davlat ta'lim talablari va akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligini baholash, uning kuchli hamda takomillashtirilishi lozim bo'lgan jihatlarini aniqlash, ta'lim sifatini doimiy yaxshilashga qaratilgan xulosa va takliflarni shakllantirish, shuningdek, kompleks davlat akkreditatsiyasi uchun ishonchli dalillar bazasini yaratish maqsadida tuziladi.

Akkreditatsiya yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlariga qat'iy muvofiqlikni ta'minlash maqsadida hisobot amaldagi kompleks davlat akkreditatsiyasi baholash tuzilmasiga mos bo'lishi shart. Bunda har bir indikator bo'yicha amaldagi holat, dalillar, xulosa hamda takomillashtirish choralari aniq yoritilishi lozim.

E'TIBOR BERING!!!

– oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida uning ta'lim dasturlari “Oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarning ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishda baholash mezonlari bo'yicha indikatorlar” (08.01.2026, ro'yxat raqami 3748, ilova: I bo'lim) asosida baholanadi;

– oliy ta'limdan keyingi ta'limni amalga oshiruvchi oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotni kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish jarayonida har bir ta'lim dasturi bo'yicha ichki baholash hisobotlari Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini maxsus davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha qo'llanmada keltirilgan jadvallar asosida shakllantiriladi;

– ichki baholash hisobotini to'g'ri shakllantirishda mazkur qo'llanmaning “Ta'lim tashkilotini baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari” bo'yicha tavsiya etilgan savollar hamda asoslantiruvchi dalil(lar)dan foydalangan holda aniq va asoslangan ma'lumotlar kiritilishi lozim;

– kiritilgan ma'lumotlar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar elektron shaklda platformaga yuklanishi shart.

Ichki baholash hisobotida asoslantiruvchi dalil(lar) bilan tasdiqlanmagan umumiy ma'lumotlar hisobot sifatida qabul qilinmaydi.

Har bir baholash xulosasining rasmiy hujjatlar, statistik ma'lumotlar, hisobotlar, so'rovnoma natijalari hamda fikr-mulohazalar tahliliga asoslanganligi ta'minlanishi shart.

Hisobotning haqqoniyligi va tanqidiy yondashuvini ta'minlash maqsadida u real holatni aks ettirishi, sun'iy yuqori baholashdan xoli bo'lishi, kamchiliklar ochiq va aniq ko'rsatilishi, ularning sabablari tahlil qilinishi hamda aniq yechimlar taklif etilishi lozim.

Hisobotni milliy va xalqaro standartlar bilan uyg'un holda, davlat ta'lim talablari, milliy malaka ramkasi, akkreditatsiya mezonlari hamda xalqaro yondashuvlar asosida shakllantirish maqsadga muvofiq.

Hisobotda keltirilgan ma'lumotlarning dolzarbligini ta'minlash maqsadida izlanuvchilar, ilmiy rahbar(konsultant)lar, ish beruvchilar, bitiruvchilar hamda boshqa manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari inobatga olinishi shart.

Hisobot ta'lim tashkiloti rahbari tomonidan tasdiqlanadi, elektron (zarur hollarda qog'oz) shaklda saqlanadi hamda Agentlikka tayyor holatda platforma orqali taqdim etiladi.

**BAHOLASH YO'NALISHI, MEZON VA INDIKATORLARI BO'YICHA NATIJALARNI
HISOBLASH**

Baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlarga bo'linadi hamda "muvofiq" yoki "muvofiq emas" tarzida baholanadi.

Mezon tarkibidagi mavjud majburiy indikator (majburiy indikatorlardan biri) "muvofiq emas" deb topilsa, umumiy natijadan qat'i nazar, ushbu mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy mezonlarga bo'linadi hamda har bir mezon "muvofiq", "qisman muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb baholanadi.

Tashqi baholash mezonlari majburiy va umumiy indikatorlar bo'yicha quyidagi tartibda aniqlanadi:

70 foiz va undan ortiq indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq";

50 foizdan 70 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "qisman muvofiq";

50 foizgacha indikatorlar "muvofiq" deb baholansa — mezon "muvofiq emas" deb baholanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan ta'lim tashkiloti har bir baholash yo'nalishi bo'yicha baholanadi.

Har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" yoki "muvofiq emas" deb e'tirof etiladi. Bunda har bir baholash yo'nalishi quyidagi shartlar bajarilganda "muvofiq" deb baholanadi:

majburiy mezonlarning barchasi "muvofiq" deb baholanganda;

umumiy mezonlarning ko'pi bilan ikkitasi "qisman muvofiq" deb baholanganda;

"muvofiq emas" deb baholangan mezonlar mavjud bo'lmaganda.

Akkreditatsiya komissiyasi tomonidan har bir baholash yo'nalishi "muvofiq" deb e'tirof etilganda, ushbu ta'lim tashkiloti "davlat akkreditatsiyasidan o'tdi" deb, "muvofiq emas" deb e'tirof etilganda esa "davlat akkreditatsiyasidan o'tmadi" deb qaror qabul qilinadi.

ICHKI BAHOLASH HISOBOTINI KO'RIB CHIQISH

Ta'lim sifatini tashqi baholash uchun Agentlik tomonidan ekspert komissiyalari tashkil etiladi. Ekspert komissiyalari ta'lim soha va ixtisosliklarining xususiyatidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Ekspert komissiyalari tarkibi ta'lim tashkilotlarining pedagog va rahbar xodimlari, ilmiy-tadqiqot institutlarining yetakchi olimlari, respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining mas'ul xodimlari, tegishli ishlab chiqarish tashkilotlarining mutaxassislari, nodavlat notijorat tashkilotlar vakillari hamda izlanuvchilar orasidan shakllantiriladi. Ekspert komissiyalari tarkibiga xorijiy ekspertlar jalb etiladi.

Ekspert komissiyalarining vazifalari quyidagilardan iborat:

ichki baholash natijalari bo'yicha olingan ma'lumotlarni ekspertizadan o'tkazish hamda tashqi baholashni amalga oshirish;

ta'lim tashkilotidagi ta'lim sifati va mazmunining davlat ta'lim talablari, akkreditatsiya mezonlariga muvofiqligi hamda ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarining sifati va samaradorligini baholash;

ta'lim sifatini oshirish va ta'lim xizmatlarini takomillashtirish bo'yicha takliflar berish hamda tashqi baholash natijalari yuzasidan hisobotni tayyorlash va Akkreditatsiya komissiyasiga taqdim etish.

Ichki baholash hisoboti **mazkur qo'llanmaning ilovasida keltirilgan namuna** asosida shakllantiriladi.

Ta'lim tashkiloti ichki baholash natijasida shakllantirilgan hisobot va unga tegishli materiallarni tasdiqlangan holda elektron va (yoki) qog'oz shaklida tashqi baholash boshlanishidan kamida **ikki oy oldin** Agentlikka platforma orqali taqdim etadi.

Ekspert komissiyalari ichki baholash hisobotini o'rganadi hamda undan tashqi baholash jarayonida foydalanadi. Ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish ekspert komissiyasi tomonidan joyiga chiqqan holda, **o'n ish kunidan oshmagan muddatda** amalga oshiriladi.

Tashqi baholash jarayonida ichki baholash hisobotida haqqoniy bo'lmagan ma'lumotlar aniqlanishi, shuningdek, belgilangan muddatlarda hujjatlarning taqdim qilinmasligi yoki kamchiliklarning bartaraf etilmasligi davlat akkreditatsiyasidan o'tkazmaslik uchun asos bo'ladi.

Dastlabki hisobot tashqi baholash natijalari asosida ekspert komissiyasi tomonidan **o'n besh ish kuni ichida** tayyorlanadi hamda uning xulosasi Agentlik orqali ta'lim tashkilotiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkiloti dastlabki hisobot xulosasi yuzasidan asoslantirilgan taklif va e'tirozlarini **uch ish kuni ichida** Agentlikka rasman taqdim etadi. Mazkur taklif va e'tirozlar asosida ekspert komissiyasi tomonidan **uch ish kuni ichida** yakuniy hisobot tayyorlanadi.

Ekspert komissiyasi tomonidan kompleks davlat akkreditatsiyasida ta'lim tashkiloti bo'yicha hisobot tayyorlanadi.

Ta'lim tashkiloti tomonidan taqdim qilingan ichki baholash hisoboti asosida ekspert komissiyasi joyiga chiqmasdan, masofaviy shaklda tashqi baholashni amalga oshirishi mumkin.

TA'LIM TASHKILOTINI BAHOLASH YO'NALISHLARI, MEZONLARI VA INDIKATORLARI

Oliy ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning **8 ta baholash yo'nalishi** doirasida **38 ta mezon** va ularni tavsiflovchi **193 ta indikator** mavjud.

Kompleks davlat akkreditatsiyasi bitiruvchilari mavjud bo'lgan oliy ta'lim tashkilotlari uchun tatbiq etiladi.

Mazkur qo'llanmada  belgisi bilan majburiy mezonlar, * belgisi bilan majburiy indikatorlar ajratib ko'rsatilgan.

I. Tashkiliy-boshqaruv faoliyati yo'nalishi

Izoh: Ta'lim tashkilotining strategik maqsadlarini amalga oshirish, samarali boshqaruv tizimini yo'lga qo'yish, resurslardan maqsadli foydalanish va ta'lim sifatini ta'minlash orqali barqaror faoliyatni ta'minlashga qaratilgan faoliyat baholanadi.

1. MEZON: Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va rejalashtirish, ta'lim sifatini ta'minlash uchun moliyaviy resurslarning maqsadli yo'naltirilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotining missiyasi, istiqboldagi qarashi va strategik maqsadlariga muvofiq ravishda faoliyatining rejalashtirilganligi, tashkiliy-boshqaruv tuzilma va ajratilgan resurslar faoliyatni samarali amalga oshirilishini qo'llab-quvvatlashi, moliyaviy qarorlarni qonuniylik, ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga asosanib qabul qilinishi, yillik moliyaviy rejada ta'lim sifatini oshirishga qaratilgan xarajatlarni nazarda tutilganligi hamda ajratilgan mablag'larni aynan shu yo'nalishda samarali sarflash orqali tashkilotning barqaror rivojlanishi baholanadi.

1.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti faoliyatini samarali tashkil etish va tadqiqot sifatini ta'minlash maqsadida ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya, strategiya) muvofiq moliyaviy mablag'larni boshqarish va taqsimlash tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida moliyaviy mablag'larni boshqarish va taqsimlash tizimi rivojlantirish rejasiga (strategik reja, missiya va strategiya) qanday bog'langan holda tashkil etilgan?

❖ Moliyaviy resurslarni rejalashtirish, taqsimlash va ulardan foydalanishda ta'lim sifati va faoliyat samaradorligini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

❖ Moliyaviy mablag'lardan foydalanish natijalari qanday tartibda monitoring qilinadi va tahlil natijalari asosida moliyaviy rejalarga qanday tuzatishlar kiritiladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining Strategik rivojlantirish rejasi.*

1.2. INDIKATOR

Moliyaviy resurslar ustuvor yo'nalishlar (infratuzilma, metodik ta'minot, kadrlar malakasi, raqamli texnologiyalar)ga muvofiq taqsimlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Moliyaviy resurslar tadqiqot jarayoni, moddiy-texnik baza va infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishlari bo'yicha qanday mezonlar asosida taqsimlangan?*

❖ *Mazkur yo'nalishlarga ajratilgan moliyaviy mablag'larning tadqiqot sifati va jarayonini yaxshilashga ta'siri qanday baholangan?*

❖ *Moliyaviy resurslar taqsimotining maqsadga muvofiqligi va samaradorligi qanday tartibda monitoring va tahlil qilinadi?*

Asoslantiruvchi hujjat (lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan yillik moliyaviy rejasi (smeta).*

1.3. INDIKATOR

Moliyaviy rejalar ijrosi bo'yicha tizimli monitoring, tahlil va ichki nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan hamda ularning natijalari asosida tegishli qarorlar qabul qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda moliyaviy rejalar (yillik va choraklik) ijrosi bo'yicha doimiy monitoring va tahlil qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Moliyaviy rejalar ijrosini nazorat qilish uchun ichki nazorat (ichki audit, ishchi guruh, komissiya) mexanizmlari mavjudmi va ular qanday hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida rahbariyat tomonidan aniq boshqaruv qarorlari (tuzatish, qayta taqsimlash, optimallashtirish) qabul qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Moliyaviy rejalar ijrosi bo'yicha o'tkazilgan monitoring, tahlil va ichki nazorat tizimining yo'lga qo'yilganligi to'g'risida ma'lumot va ularning natijalari asosida qabul qilingan qarorlar.*

1.4. INDIKATOR

Moliyaviy boshqaruv tizimi orqali ta'lim sifat ko'rsatkichlari barqaror ravishda yaxshilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Moliyaviy rejalashtirishda ta'lim sifatini oshirishga yo'naltirilgan xarajatlar qanday ustuvor yo'nalishlar asosida belgilangan?*

❖ *Ajratilgan moliyaviy mablag'lar natijasida ta'lim sifat ko'rsatkichlarida (bitiruvchilar natijalari, dissertatsiya himoyalari, ilmiy maqolalar) qanday ijobiy o'zgarishlar qayd etilgan?*

❖ *Moliyaviy boshqaruv tizimi doirasida ta'lim sifati bo'yicha xarajatlar samaradorligi muntazam tahlil qilinadimi va ushbu tahlil natijalari boshqaruv qarorlarida inobatga olinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Moliyaviy boshqaruv tizimi orqali ta'lim sifat ko'rsatkichlari barqaror ravishda yaxshilanganligi to'g'risida ma'lumot.*

1.5. INDIKATOR

Mablag'lardan foydalanish jarayoni shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etilgan hamda xarajatlar samaradorligi, natijadorligi muntazam tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim va ilmiy faoliyatni moliyalashtirish bo'yicha rejalashtirish, tasdiqlash va ijro jarayonlari ochiq va hujjatlashtirilgan tartib asosida amalga oshiriladimi?*

❖ *Budjet va budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha xarajatlar ijrosi yuzasidan ichki moliyaviy hisobotlar tayyorlanib, mas'ul bo'linmalar tomonidan muntazam ko'rib chiqiladimi?*

❖ *Xarajatlarning samaradorligi va natijadorligini baholash (reja–ijro–natija tahlili) amalga oshirilib, tahlil natijalari asosida boshqaruv qarorlari qabul qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida mablag'lardan foydalanish jarayoni shaffoflik va hisobdorlik tamoyillari asosida tashkil etilganligi hamda xarajatlar samaradorligi, natijadorligi muntazam tahlil qilinganligi to'g'risida ma'lumot.*

2. MEZON: Ilmiy kengashlar (ilmiy kengash, kengash, ilmiy-texnik kengash, ilmiy-muvofiqlashtiruvchi kengash va boshqalar) (bundan buyon matnda kollegial organ deb yuritiladi) tashkil etilgani va uning faoliyati samaradorligi !

Izoh: *Muvofiqlashtiruvchi kollegial organning samarali ishlashi, ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonlarini rivojlantirish, qarorlar qabul qilish hamda ularning ijrosini nazorat qilish tizimining mavjudligi va samaradorligi o'rganiladi.*

2.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida kollegial organning mavjudligi, ushbu kollegial organlarni tashkil etish asoslari, maqsadlari va vazifalari aniq belgilangan hamda ularning tadqiqot sifatini ta'minlashdagi ishtiroki ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida oliy ta'limdan keyingi ta'lim va ilmiy faoliyat bilan bog'liq masalalarni ko'rib chiquvchi qaysi kollegial organlar mavjud va ular qaysi hujjatlar asosida tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur kollegial organlarning vazifalari va vakolatlari ta'lim dasturlari va ilmiy-tadqiqotlar sifatini ta'minlash nuqtai nazaridan qanday aniq belgilangan?*

❖ *Kollegial organlar tomonidan oxirgi yillarda ta'lim dasturlari, dissertatsiya mavzulari, ilmiy tadqiqotlar sifati yoki natijalariga oid qanday qarorlar qabul qilingan va ularning amaliy ta'siri qanday bo'lgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Boshqaruv (Kuzatuv/Vasiylik) kengashi nizomi.*

2.2. INDIKATOR

Kollegial organ qarorlarini qabul qilish jarayonida izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar, soha mutaxassislari va bitiruvchilarning (bundan buyon matnda manfaatdor tomonlar deb yuritiladi) taklif va fikr-mulohazalari inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini shakllantirish yoki yangilash jarayonida izlanuvchilar, ilmiy rahbarlar (konsultantlar), ish beruvchilar va soha mutaxassislarning takliflari qanday mexanizm orqali yig'iladi va muhokama qilinadi?*

❖ *Manfaatdor tomonlardan olingan taklif va fikr-mulohazalar kollegial organlar (Ilmiy kengash, Kengash huzuridagi komissiyalar va boshqalar) tomonidan qaysi hujjatlar asosida ko'rib chiqilgan va qaror qabul qilishda qanday inobatga olingan?*

❖ *Qaror qabul qilingandan so'ng manfaatdor tomonlarning takliflari asosida ta'lim dasturiga kiritilgan o'zgarishlar (fanlar, modullar, kompetensiyalar, amaliyotlar va boshqalar) qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Taklif va fikr-mulohazalarni o'rganish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar;*

✓ *Asoslantiruvchi(ichki) tegishli hujjatlar.*

2.3. INDIKATOR

Kollegial organ yig'ilishlari belgilangan reja asosida muntazam o'tkaziladi

Yordamchi savollar:

❖ *Kollegial organlar yig'ilishlari uchun yillik (yoki choraklik) ish reja mavjudmi va u tashkilot rahbari tomonidan tasdiqlanganmi?*

❖ *Rejada belgilangan muddatlarga muvofiq yig'ilishlar amalda o'tkazilganmi va bu holat tegishli bayonnomalar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Yig'ilishlarda qabul qilingan qarorlarning ijrosi yuzasidan monitoring va nazorat mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kollegial organ rejasi va yig'ilish bayonnomalari.*

2.4. INDIKATOR

Yig'ilishlarda ta'lim va/yoki ilmiy faoliyatga oid dolzarb masalalar ko'rib chiqiladi

Yordamchi savollar:

❖ *Yig'ilishlar kun tartibida oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) bilan bog'liq ta'lim va ilmiy masalalar muntazam ravishda kiritiladimi?*

❖ *Ushbu yig'ilishlarda ilmiy tadqiqotlar sifati, dissertatsiya mavzulari, ilmiy rahbarlik, nashr faolligi, akademik halollik kabi dolzarb masalalar muhokama qilinganmi va qarorlar qabul qilinganmi?*

❖ *Qabul qilingan qarorlar bo'yicha ijro nazorati, mas'ullar va muddatlar belgilanganligi hujjatlarda aks etganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yig'ilish bayonnomalari.*

2.5. INDIKATOR

Kollegial organ qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejasi ijrosi bo'yicha yagona monitoring tizimi joriy etilgan hamda monitoring natijalar muntazam tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Kollegial organlar qarorlari hamda ular asosida ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejaları ijrosini nazorat qilish uchun qanday yagona monitoring tizimi joriy etilgan?*

❖ *Mazkur monitoring tizimi doirasida ijro holatini kuzatish, ma'lumotlarni yig'ish va umumlashtirish qanday tartibda amalga oshiriladi?*

❖ *Monitoring natijalari qanday davriylikda tahlil qilinadi va tahlil natijalari asosida qanday boshqaruv yoki takomillashtirish qarorlari qabul qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kollegial organlarning qarorlari va ushbu qarorlar yuzasidan qabul qilingan chora-tadbirlar rejaları ijrosi bo'yicha ma'lumotlar;*

✓ *Asoslantiruvchi(ichki) tegishli hujjatlar.*

3. MEZON: Ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasining ishlab chiqilgani va uni amalga oshirish uchun resurslar mavjudligi, shuningdek, uning jamoatchilik uchun ochiqligi va monitoringi yuritilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida rivojlantirish rejasining mavjudligi, uni amalga oshirish uchun zarur resurslarning belgilanganligi, chora-tadbirlar ijrosining ta'minlanganligi hamda reja va uning bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlarning rasmiy veb-sayt orqali jamoatchilikka ochiq taqdim etilganligi baholanadi.

3.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya, strategiya) sohaning ustuvor yo'nalishlari, mehnat bozori tahlillari va kadrlar tayyorlash maqsadi bilan uyg'un holda ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirish rejasi (strategik reja, missiya va strategiya) qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?

❖ Rivojlantirish rejasida oliy ta'lim tashkilotini rivojlantirishning maqsadlari va vazifalari, ularni amalga oshirish mexanizmlari, ijro muddatlari hamda mas'ul ijrochilar qanday aniqlikda belgilangan?

❖ Rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalarning bajarilishi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va natijalar qanday tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim tashkilotining Strategik rivojlantirish rejasi (Strategik reja).

3.2. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini samarali amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotidagi barcha tarkibiy bo'linmalarning yillik ish rejalari tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkilotidagi tarkibiy bo'linmalarning (fakultetlar, kafedralar, bo'limlar va boshqalar) yillik ish rejalari rivojlantirish rejasiga qanday uyg'unlashtirilgan holda ishlab chiqilgan?

❖ Tarkibiy bo'linmalarning yillik ish rejalari qanday tartibda ko'rib chiqilgan va qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?

❖ Yillik ish rejalari ijrosi rivojlantirish rejasining maqsad va vazifalariga erishishga qanday hissa qo'shayotgani qanday mexanizmlar orqali monitoring va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tashkilot va tarkibiy bo'linmalarning tasdiqlangan yillik ish rejalari.

3.3. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun ta'lim tashkilotining barcha tarkibiy bo'linmalarini yillik ish rejalari ishlab chiqilgan hamda tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining tasdiqlangan rivojlantirish rejasi asosida barcha tarkibiy bo'linmalar (fakultet, kafedra, ilmiy bo'lim, markaz va laboratoriyalar) tomonidan yillik ish rejalari ishlab chiqilganmi?*

❖ *Yillik ish rejalarda rivojlantirish rejasida belgilangan strategik maqsadlar, vazifalar va ko'rsatkichlar aniq tadbirlar orqali aks ettirilganmi?*

❖ *Mazkur yillik ish rejalari belgilangan tartibda (rektor yoki tegishli prorektor tomonidan) tasdiqlangan hamda ijro uchun joriy etilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akkreditatsiya jarayonida ta'lim tashkilotining tasdiqlangan rivojlantirish rejasi, unga muvofiq barcha tarkibiy bo'linmalar tomonidan ishlab chiqilgan va belgilangan tartibda tasdiqlangan yillik ish rejalari, shuningdek, ularning ijrosi bo'yicha hisobot va tahliliy ma'lumotlar.*

3.4. INDIKATOR

Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari ajratilgan, ularning taqsimoti rivojlantirish rejasining maqsadlari va vazifalari bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rivojlantirish rejasini amalga oshirish uchun moddiy-texnik baza, moliyaviy va inson resurslari qanday aniqlangan va rejalashtirilgan?*

❖ *Mazkur resurslarning taqsimoti rivojlantirish rejasida belgilangan maqsad va vazifalar bilan qanday tarzda uyg'unlashtirilgan?*

❖ *Ajratilgan moddiy-texnik, moliyaviy va inson resurslaridan foydalanish samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Strategik rivojlantirish rejasi, yillik ish rejalari, tasdiqlangan yillik moliyaviy reja (smeta), shtatlar jadvali, moddiy-texnik baza taqsimoti.*

3.5. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasini bajarilish holati va natijalari ochiq hamda shaffof tarzda jamoatchilikka muntazam taqdim etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rivojlantirish rejasining ijrosi va natijalarini jamoatchilikka taqdim etish qanday shakl va vositalar orqali amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur ma'lumotlarni ochiq va shaffof taqdim etishning davriyligi va mas'ul ijrochilari qanday tartibda belgilangan?*

❖ *Jamoatchilikka taqdim etilgan rivojlantirish rejasining ijrosi va natijalari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalar qanday yig'ilgan va ular qanday tartibda tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Strategik rivojlantirish reja ijrosi bo'yicha ma'lumotlar va uning veb-saytda e'lon qilinganligi hamda yillik hisobotlar.*

3.6. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasini muntazam tahlillar, monitoring natijalari, manfaatdor tomonlarning fikr-mulohazalari va takliflari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Rivojlantirish rejasining ijrosi bo'yicha monitoring va tahlil qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Monitoring va tahlil jarayonida manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday usullar orqali yig'ilgan va o'rganilgan?*

❖ *Monitoring, tahlil hamda manfaatdor tomonlar fikrlari asosida rivojlantirish rejasini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Strategik rivojlantirish rejasi bo'yicha tahlil va monitoring ma'lumotnomalari;*

✓ *Reja yangilanishi yoki takomillashtirilishi haqidagi qarorlar (kengash yoki ishchi guruh bayonnomasi).*

4. MEZON: Ta'lim tashkilotining hudud va respublikaning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirishga qo'shayotgan hissasi

Izoh: *Ta'lim tashkilotining hududiy va milliy ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishga qo'shayotgan hissasi, shuningdek, ilmiy-innovatsion ishlanmalarni amaliyotga joriy etish, rivojlanish dasturlarida ishtirok etish, madaniy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etish hamda boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik orqali jamiyat taraqqiyotiga hissa qo'shishi baholanadi.*

4.1. INDIKATOR

Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarini rivojlantirish yo'nalishlarida tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirish yo'nalishlarida qaysi tashkilotlar, korxonalar va muassasalar bilan hamkorlik aloqalari o'rnatilgan?*

❖ *Mazkur hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?*

❖ *O'rnatilgan hamkorlik aloqalarining ta'lim jarayoni, izlanuvchilar tayyorlash sifati va tashkilot rivojiga qo'shgan hissasi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Hamkorlik shartnomalari (o'zaro anglashuv memorandumlari) reyestri yoki ro'yxati.*

4.2. INDIKATOR

Madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festivallar, ko'rgazmalar, anjumanlar va boshqalar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida qanday madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar (festival, ko'rgazma, anjuman va boshqalar) tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarni tashkil etishdan ko'zlangan maqsadlar va ularning ta'lim, ilmiy faoliyat hamda izlanuvchilarning rivojlanishiga qo'shgan hissasi qanday belgilangan?*

❖ *Tashkil etilgan madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning samaradorligi va natijalari qanday tartibda baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tashkilot tomonidan madaniy-ma'rifiy yoki ilmiy tadbirlarni o'tkazish bo'yicha buyruqlar (tashkiliy komissiya tuzish, tadbir o'tkazish sanasi va dasturi tasdiqlangan buyruq).*

4.3. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti tashabbusi bilan hudud yoki jamoatchilik manfaatiga xizmat qiluvchi loyihalar amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti hududiy va respublika darajasida ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalarni rivojlantirishga qaratilgan qaysi loyihalarda ishtirok etgan yoki ularni tashabbus qilgan?*

❖ *Mazkur loyihalarda oliy ta'lim tashkilotining ishtiroki (hissa qo'shishi) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*

❖ *Ushbu loyihalarda ishtirok etishning hududiy va respublika miqyosida rivojlanishga hamda ta'lim jarayoniga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Loyihalarda ishtirok etilganligini tasdiqlovchi hujjatlar (loyiha pasportlari yoki loyiha bo'yicha tuzilgan uch tomonlama / ikki tomonlama bitimlar).

4.4. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti ilmiy faoliyati natijalari mahalliy yoki milliy OAV orqali yoritilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy faoliyati natijalari ta'lim tashkilotining veb-sayti va qaysi ommaviy axborot vositalari orqali yoritilgan?

❖ Ilmiy faoliyati natijalari haqidagi axborotlarni joylashtirishda qaysi turdagi materiallar (yangiliklar, press-revizlar, foto/video lavhalar, intervyular) e'lon qilingan?

❖ Ilmiy faoliyati natijalarining veb-sayt va OAV orqali yoritilishi jamoatchilik bilan aloqalarni kuchaytirishga qanday ta'sir ko'rsatgani qanday tahlil qilingan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ilmiy faoliyati natijalarining veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlar va OAVlarda yoritilgani dalillari.

4.5. INDIKATOR

Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlarning natijalari tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ Jamoatchilik bilan hamkorlikda amalga oshirilgan ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy va ilmiy tadbirlar qanday tartibda qayd etilgan va ularning natijalari qanday aniqlangan?

❖ Mazkur tadbirlar natijalarini tahlil qilishda qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?

❖ Tahlil natijalari asosida jamoatchilik bilan hamkorlikni yanada rivojlantirish va tadbirlar samaradorligini oshirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tadbir yakuni bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma (hisobot).

5. MEZON: Tadqiqot jarayonlarini boshqarish hamda ta'lim sifatini nazorat qilish bo'yicha ochiq axborot tizimining (bundan buyon matnda axborot tizimi deb yuritiladi) mavjudligi va ushbu tizimning ta'lim sohasidagi vakolatli davlat organlarining axborot tizimlariga integratsiya qilingani

Izoh: Ta'lim tashkilotida tadqiqot jarayonlarini boshqarish va ilmiy tadqiqot sifati ustidan nazoratni ta'minlovchi axborot tizimining mavjudligi hamda uning vakolatli davlat organlari axborot tizimlari bilan integratsiya qilinganlik darajasi baholanadi.

5.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ilmiy faoliyatni boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun axborot tizimi (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi va boshqalar) joriy etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'lim tashkilotida ta'lim jarayonlarini boshqarish, monitoring qilish va nazoratni amalga oshirish uchun qaysi axborot tizimlari (HEMIS, LMS, elektron jurnal, boshqaruv platformasi va boshqalar) joriy etilgan?

❖ Mazkur axborot tizimlarining funksional imkoniyatlari ta'lim jarayonlarini boshqarish va nazorat qilishni qanday ta'minlaydi?

❖ Axborot tizimlaridan foydalanishning samaradorligi va ta'lim sifatiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim jarayonlarini raqamlashtirish bo'yicha ichki hujjat(lar).

5.2. INDIKATOR

O'zaro ma'lumotlar almashinuvi yo'lga qo'yish maqsadida axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ Axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan qanday texnik va tashkiliy mexanizmlar orqali integratsiya qilingan?

❖ Integratsiya doirasida o'zaro ma'lumotlar almashinuvining qaysi turlari va yo'nalishlari (izlanuvchilar, Ilmiy rahbar (konsultant), baholash, davomat va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?

❖ Axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya ta'lim jarayonlarini boshqarish va ta'lim sifatini nazorat qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda va bu ta'sir qanday baholanmoqda?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Axborot tizimlarini integratsiya qilinganligini asoslovchi hujjatlar

5.3. INDIKATOR

Axborot tizimini texnik qo'llab-quvvatlash va axborot xavfsizligini ta'minlash choralari ko'rilgan hamda axborot tizimida foydalanuvchilarning samarali va qulay ishlay olishi ta'minlagan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Ta'lim sifatini ta'minlash milliy agentligining axborot tizimlari bilan qanday texnik va tashkiliy mexanizmlar orqali integratsiya qilingan?*

❖ *Integratsiya doirasida o'zaro ma'lumotlar almashinuvining qaysi turlari va yo'nalishlari (izlanuvchilar, Ilmiy rahbar (konsultant), baholash, davomat va boshqalar) yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Axborot tizimlari o'rtasidagi integratsiya ta'lim jarayonlarini boshqarish va ta'lim sifatini nazorat qilish samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatmoqda va bu ta'sir qanday baholanmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimlarini integratsiya qilinganligini asoslovchi hujjatlar.*

5.4. INDIKATOR

Axborot tizimi orqali o'quv va ilmiy faoliyatni rejalashtirish, monitoring va hisobot ishlari yuritilgan, ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar tayyorlangan va kollegial organ yig'ilishlarida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot tizimidagi ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini ta'minlash uchun qanday tekshiruv va verifikatsiya mexanizmlari joriy etilgan?*

❖ *Axborot tizimini o'z vaqtida yangilash va uning faoliyati bo'yicha monitoringni amalga oshirish qanday tartibda va qanday davriylikda yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Axborot tizimida shakllantirilgan ma'lumotlar asosida yillik tahliliy hisobotlar qanday tartibda tayyorlanadi va ular boshqaruv qarorlarini qabul qilishda qanday qo'llaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimi monitoringi, uning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot, yillik hisobotlar va kollegial organ yig'ilish bayonnomalari.*

5.5. INDIKATOR

Axborot tizimining samaradorligi, ma'lumotlar bilan ishlash jarayonlari va integratsiya holati bo'yicha doimiy monitoring tizimi amalga oshirilgan hamda aniqlangan muammolarni bartaraf etish bo'yicha chora-tadbirlar ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlariga (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) oid ma'lumotlarni yurituvchi axborot tizimlari samaradorligi qanday mezonlar asosida muntazam baholanadi va monitoring natijalari qayerda aks ettiriladi?*

❖ *Axborot tizimlarida ma'lumotlarni kiritish, yangilash, saqlash va tahlil qilish jarayonlari bo'yicha mas'ul bo'linmalar va xodimlar belgilanganmi hamda ushbu jarayonlar belgilangan tartib asosida amalga oshiriladimi?*

❖ *Axborot tizimlari milliy platformalar (masalan, oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha davlat axborot tizimlari) bilan integratsiyalashganmi va monitoring davomida aniqlangan texnik yoki tashkiliy muammolar bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Axborot tizimi monitoringi, uning natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumot.*

6. MEZON: Ta'lim tashkilotini xalqarolashtirish va xalqaro hamkorlik aloqalarining yo'lga qo'yilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotining xorijiy muassasalar bilan aloqalarni yo'lga qo'yganligi, xorijiy xodim va mutaxassislarni jalb etganligi hamda xalqaro tadbirlarni tashkil etganligi baholanadi.*

6.1. INDIKATOR

Xorijiy ta'lim tashkilotlari, shuningdek nufuzli xalqaro institutlar bilan o'zaro manfaatli hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkiloti qaysi xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar hamda nufuzli xalqaro institutlar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'ygan?*

❖ *Mazkur hamkorlik aloqalari qanday hujjatlar va mexanizmlar (memorandum, shartnoma, qo'shma dasturlar, ilmiy loyihalar) orqali rasmiylashtirilgan?*

❖ *Xalqaro hamkorlik aloqalarining ilmiy faoliyat va oliy ta'limdan keyingi ta'lim tashkilotining rivojlanishiga qo'shgan hissi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xalqaro hamkorlik bo'yicha ichki me'yoriy hujjat, hamkorlik bitimlari ro'yxati, memorandumlar va shartnomalar.*

6.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida qo'shma doktorantura ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalar yoki ilmiy nashrlar amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida so'nggi 3–5 yil davomida xorijiy yoki mahalliy ilmiy tashkilotlar bilan qo'shma doktorantura (PhD/DSc) ta'lim dasturlari joriy etilganmi?*

❖ *Mazkur qo'shma dasturlar yoki hamkorliklar doirasida qo'shma ilmiy loyihalar (grantlar, xo'jalik shartnomalari, xalqaro loyihalar) amalga oshirilganmi?*

❖ *Qo'shma doktorantura yoki ilmiy loyihalar natijasida qo'shma mualliflikdagi ilmiy nashrlar (Scopus, Web of Science, OAK ro'yxati va boshqalar) chop etilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida qo'shma doktorantura ta'lim dasturlari, ilmiy loyihalar va ilmiy nashrlar haqida ma'lumot va shartnomalari.*

6.3. INDIKATOR

Ilmiy xodimlar, izlanuvchilar xorijda o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida nechta ilmiy xodim va izlanuvchi xorijiy yetakchi ta'lim yoki ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish yoki stajirovka dasturlarida ishtirok etgan?*

❖ *Mazkur xorijiy ta'lim va ilmiy tashkilotlar xalqaro miqyosda tan olingan (QS, THE, ARWU reytinglari, nufuzli ilmiy markazlar) muassasalar hisoblanadimi va ishtirok rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Xorijda o'tilgan malaka oshirish yoki stajirovka natijalari ilmiy faoliyatga joriy etilganmi (maqola, loyiha, qo'shma tadqiqot, laboratoriya faoliyati yoki o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali)?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xorijda o'z sohalari bo'yicha yetakchi xorijiy ta'lim va/yoki ilmiy tashkilotlarda malaka oshirish, tajriba almashish va stajirovka dasturlarida ishtirok etganligi to'g'risidagi sertifikatlar.*

6.4. INDIKATOR

Tadqiqot jarayonlariga tegishli sohalar bo'yicha yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan hamda ularning ilmiy faoliyatdagi ishtiroki tadqiqot sifatini oshirishga xizmat qilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tadqiqot jarayoniga tegishli sohalar bo'yicha qaysi yuqori malakaga ega xorijiy mutaxassislar jalb etilgan va ularni tanlash mezonlari qanday belgilangan?*

❖ *Xorijiy mutaxassislarning tadqiqot jarayonidagi ishtiroki (ma'ruza o'qish, seminarlar, tadqiqot tajribalari, qo'shma kurslar, maslahatlar) qanday shakllarda amalga oshirilgan?*

❖ *Xorijiy mutaxassislar ishtirokining ta'lim sifati va tadqiqot natijalariga ta'siri qanday mezonlar asosida baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tadqiqot jarayoniga xorijiy mutaxassislarni jalb etish va ishtirokini tashkil etish tartibi, ularning ishtiroki bo'yicha ichki hujjatlar hamda ta'lim sifatiga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar.*

6.5. INDIKATOR

Xalqaro hamkorlik natijasida ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlarining mazmuni takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xalqaro hamkorlik doirasida o'quv jarayonlari, ilmiy-tadqiqot faoliyati va ta'lim dasturlari mazmunini takomillashtirish bo'yicha qanday tashabbuslar va ishlar amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur takomillashtirishlar xalqaro hamkorlikning qaysi shakllari (qo'shma dasturlar, akademik almashinuv, qo'shma tadqiqotlar, ekspert ishtiroki) natijasida amalga oshirilgan?*

❖ *Xalqaro hamkorlik asosida amalga oshirilgan takomillashtirishlarning ta'lim sifati va ilmiy faoliyat samaradorligiga ta'siri qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Xalqaro hamkorlik asosida takomillashtirilganligini isbotlovchi ma'lumotlar va hujjatlar (ta'lim dasturlari taqqoslamasi, ilmiy loyihalar natijalari, hamkorlik bitimlari, seminarlar va master-klasslar hisobotlari bo'lishi mumkin).*

6.6. INDIKATOR

Tahlillar natijasida samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlanib, xalqaro hamkorlik faoliyati qayta ko'rib chiqilgan va manfaatli yo'nalishlarda rivojlantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar bo'yicha natijalarni tahlil qilish qanday tartibda va qanday davriylikda amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur tahlillarni o'tkazishda qanday mezon va ko'rsatkichlardan foydalanilgan hamda natijalar qanday rasmiylashtirilgan?*

❖ *Xalqaro tadbirlar, grantlar va loyihalar bo'yicha tayyorlangan tahliliy hisobotlar asosida qanday boshqaruv yoki takomillashtirish qarorlari qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qayta ko'rib chiqilganligi va manfaatli yo'nalishlarda rivojlantirilganligi haqidagi ma'lumotlar va tegishli hujjatlar.*

II. Tadqiqot sifatini ta'minlash yo'nalishi

Izoh: Ta'lim dasturlari, tadqiqot jarayoni, ilmiy-tadqiqot ishlari, Ilmiy rahbar (konsultant)lar salohiyati, moddiy-texnika baza hamda boshqaruv tizimini takomillashtirish orqali ta'lim natijalarining milliy va xalqaro sifat talablariga mosligini ta'minlashga qaratilgan tizimli va maqsadli faoliyat baholanadi.

7. MEZON: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlikda ta'lim sifatini ichki ta'minlashning yo'lga qo'yilgani

Izoh: Ta'lim sifatini ta'minlash mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirish jarayonlariga Ilmiy rahbar (konsultant)lar, izlanuvchilar, ish beruvchilar va boshqa manfaatdor tomonlarni jalb etish, ularning fikr va tavsiyalarini muntazam o'rganish asosida ta'lim jarayonini takomillashtirishga qaratilgan institutsional faoliyati baholanadi.

7.1. INDIKATOR

Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligini baholash tartibi qanday jarayonda va qaysi manfaatdor tomonlar ishtirokida ishlab chiqilgan?
- ❖ Mazkur baholash tartibida ta'lim sifati samaradorligini aniqlash uchun qanday mezonlar, indikatorlar va baholash mexanizmlari belgilangan?
- ❖ Ishlab chiqilgan baholash tartibi amaliyotga qanday joriy etilgan va uning natijalari asosida ta'lim sifatini takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar ko'rilgan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini baholash tartibi haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.

7.2. INDIKATOR

Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyatida ilmiy rahbar (konsultant)lar, izlanuvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va jamoatchilik vakillarining ishtiroki ta'lim tashkilotining ichki hujjatlari bilan tartibga solingan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ilmiy rahbarlar (konsultantlar), izlanuvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va jamoatchilik vakillarining tadqiqot sifatini ta'minlash jarayonidagi ishtiroki qaysi ichki normativ hujjatlar bilan belgilangan va ularning funksiyalari qanday aniqlangan?

❖ *Mazkur manfaatdor tomonlarning ishtiroki (masalan, monitoring, baholash, taklif berish, muhokama qilish) amalda qanday shakllarda amalga oshiriladi va bu jarayonlar hujjatlar bilan qay darajada tasdiqlangan?*

❖ *Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi faoliyatida manfaatdor tomonlar ishtiroki natijalari qanday hisobga olinadi va ta'lim dasturlarini takomillashtirishda undan qanday foydalaniladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *ilmiy rahbarlar, izlanuvchilar, ish beruvchilar, bitiruvchilar va jamoatchilik vakillarining ishtiroki ilmiy kengash bayonnomalari, so'rovnomalar va tahliliy ma'lumotlar.*

7.3. INDIKATOR

Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash jarayonida manfaatdor tomonlarning ishtiroki ta'minlangan hamda ularning ishtirokida muntazam tadbirlar (uchrashuvlar, seminar-treninglar, muhokamalar, anjumanlar so'rovnomalar, intervyular, fokus-guruhlar va boshqalar) o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tadqiqot sifatini ichki ta'minlash jarayonida qaysi manfaatdor tomonlar ishtirok etgan va ularning ishtiroki qanday shakllarda (uchrashuv, seminar, so'rovnoma va boshqalar) ta'minlangan?*

❖ *Manfaatdor tomonlar ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar qanchalik muntazam bo'lib, ularning natijalari tadqiqot jarayonini takomillashtirishga qanday ta'sir ko'rsatgan?*

❖ *Manfaatdor tomonlardan olingan fikr-mulohazalar va takliflar asosida qanday qarorlar yoki o'zgarishlar qabul qilingan va ular hujjatlar bilan qay darajada tasdiqlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Manfaatdor tomonlar ishtirokida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash doirasida muntazam uchrashuvlar va muhokamalar o'tkazilib, ularning takliflari asosida ta'lim dasturlarini takomillashtirish bo'yicha ma'lumotlar.*

7.4. INDIKATOR

Yig'ilgan ma'lumotlar, shu jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va jarayoniga tegishli o'zgartirishlar kiritilgan hamda muntazam takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Yig'ilgan ma'lumotlar, jumladan manfaatdor tomonlarning taklif va fikr-mulohazalari qanday tartibda tahlil qilingan va ustuvor yo'nalishlar aniqlangan?*

❖ *Mazkur tahlil va (yoki) ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasi asosida ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va ta'lim jarayoniga qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan?*

❖ *Kiritilgan o'zgartirishlarning samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinib, ta'lim sifatini muntazam takomillashtirish ta'minlangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'zgartirishlar kiritilgan va takomillashtirilgan ta'lim dasturlari haqida ma'lumot.*

7.5. INDIKATOR

Olingan tavsiyalar asosida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlariga tegishli o'zgartirish va takomillashtirishlar kiritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida doktorantura (PhD/DSc) va mustaqil izlanuvchilar faoliyati bo'yicha qaysi ichki yoki tashqi monitoring, ekspertiza va akkreditatsiya tavsiyalari olingan?*

❖ *Olingan tavsiyalar asosida tadqiqot sifatini ichki ta'minlash tizimida qanday aniq tashkiliy, me'yoriy yoki metodik o'zgartirishlar kiritilgan?*

❖ *Mazkur tavsiyalar asosida ta'lim dasturlariga (doktorantura rejalari, ilmiy seminarlar, attestatsiya jarayonlari) qanday yangilanishlar joriy etilgan va ularning natijalari qanday baholanmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Olingan tavsiyalari asosida Ilmiy kengash bayonnomalari bilan tasdiqlangan holda tadqiqot sifatini ichki ta'minlanganligi va PhD/DSc ta'lim dasturlari takomillashtirilganligi to'g'risida ma'lumot.*

8. MEZON: Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilib borilgani, izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi yuritilgani va natijalar asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani

Izoh: *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi samaradorligi muntazam tahlil qilinishi va tahlil natijalari asosida takomillashtirish choralarining ko'rilganligi, ta'lim jarayoni va boshqaruv samaradorligini baholash, aniqlangan kamchiliklar asosida sifatni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish hamda ularning ijrosini ta'minlash holati baholanadi.*

8.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi yoki shtati joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida ichki ta'lim sifati auditini amalga oshirishga mas'ul ta'lim sifati ta'minlash bo'linmasi (ichki ta'lim sifati nazorati bo'limi, ta'lim sifati ta'minlash bo'limi) qanday huquqiy va tashkiliy asosda tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur bo'linmaning maqsadlari, vazifalari va vakolatlari qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash bo'linmasining faoliyati ta'lim jarayonlari va ta'lim sifati yaxshilashga qanday hissa qo'shmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash bo'linmasi tashkil etilganligi to'g'risida ichki hujjatlar.*

8.2. INDIKATOR

Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha baholash tartibi amaliyotga joriy etilgan

❖ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimi samaradorligini aniqlash bo'yicha ishlab chiqilgan baholash tartibi amaliyotga qanday bosqichlarda joriy etilgan?*

❖ *Mazkur baholash tartibi doirasida ta'lim sifati baholash qanday mezonlar, indikatorlar va usullar orqali amalga oshirilmoqda?*

❖ *Baholash natijalari asosida ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimini baholash tartibi.*

8.3. INDIKATOR

Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimi faoliyati muntazam ravishda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan hamda tahlillar asosida baholab borilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimi faoliyati qanday davriylikda (yillik yoki yarim yillik) monitoring qilingan?*

❖ *Monitoring jarayonida ta'lim sifati baholash uchun qanday mezonlar, indikatorlar va ma'lumot manbalaridan foydalanilgan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday qarorlar va chora-tadbirlar qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifati ichki ta'minlash tizimi faoliyatini baholash bo'yicha yillik/yarim yillik ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.*

8.4. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari kollegial organ yig'ilishlarida muhokama qilingan hamda jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga yetkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari kollegial organ yig'ilishlarida qanday tartibda va qanday davriylikda muhokama qilingan?*

❖ *Kollegial organ yig'ilishlarida muhokama jarayonida monitoring va tahlil natijalari bo'yicha qanday xulosalar va qarorlar qabul qilingan?*

❖ *Monitoring va tahlil natijalari jamoatchilik va manfaatdor tomonlarga qanday shakl va usullar orqali yetkazilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ichki sifat natijalarini muhokama qilish va jamoatchilikka yetkazish bo'yicha kollegial organ yig'ilish bayonnomalari hamda yetkazilganligini asoslovchi hujjatlar.*

8.5. INDIKATOR

Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida qaysi muammo va kamchiliklar aniqlangan?*

❖ *Aniqlangan muammo va kamchiliklarni bartaraf etish hamda ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday tartibda ishlab chiqilgan?*

❖ *Ishlab chiqilgan chora-tadbirlar rejasining ijrosi va samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimida aniqlangan muammolarni bartaraf etish va takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi.*

8.6. INDIKATOR

Aniqlangan muammo va kamchiliklar chora-tadbirlar rejasiga muvofiq o'z vaqtida bartaraf etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Monitoring va tahlil natijalari asosida aniqlangan muammo va kamchiliklar qaysi chora-tadbirlar rejasiga muvofiq bartaraf etilgan?*

❖ *Chora-tadbirlar rejasida belgilangan muddatlarga muvofiq muammo va kamchiliklarni bartaraf etish jarayoni qanday tashkil etilgan?*

❖ *Muammo va kamchiliklarning o'z vaqtida bartaraf etilgani va kiritilgan choralarning samaradorligi qanday tartibda baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Aniqlangan muammolarni o'z vaqtida bartaraf etilganligini asoslovchi hujjatlar.*

9. MEZON: Ta'lim tashkilotida akademik halollik va erkinlik qoidalarining belgilangani va unga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi !

Izoh: *Ta'lim tashkilotida akademik halollik qoidalarining belgilanishi va ularga zid holatlarning oldini olish bo'yicha samarali tizimning mavjudligi hamda ta'lim jarayonida halollik, adolat va mas'uliyat tamoyillarini ta'minlash maqsadida ichki nazorat, monitoring va profilaktika mexanizmlari asosida amalga oshiriladigan institutsional faoliyati baholanadi.*

9.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnoma(lar) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid qanday tartib (qoidalar) va (yoki) yo'riqnomalar mavjud va ular qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur yo'riqnomalar qanday tartibda joriy etilgan va tushuntirilgan?*

❖ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyat qoidalariga rioya etilishini ta'minlash va nazorat qilish qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik halollik, etika va kasbiy mas'uliyatga oid ichki hujjat(lar).*

9.2. INDIKATOR

Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, o'qitish, baholash va tadqiqot faoliyati jarayonlariga tizimli ravishda integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik tamoyillari ta'lim dasturlarini ishlab chiqish jarayoniga qanday talab va mexanizmlar orqali integratsiya qilingan?*

❖ *O'qitish, baholash va ilmiy-tadqiqot faoliyati jarayonlarida akademik halollikni ta'minlash uchun qanday aniq tartib va amaliyotlar joriy etilgan?*

❖ Akademik halollik tamoyillarining ta'lim va tadqiqot jarayonlarida tizimli qo'llanilishi qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali nazorat qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akademik halollik to'g'risida ichki hujjatlar, integratsiya qilinganligi to'g'risida ma'lumot.

9.3. INDIKATOR

Plagiat va boshqa akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish, aniqlash va bartaraf etish bo'yicha antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Akademik halollik qoidalari buzilishini oldini olish va aniqlash uchun qaysi antiplagiat tizimi joriy etilgan va uning qo'llanish tartibi qanday belgilangan?

❖ Akademik halollik qoidabuzarliklarini aniqlash, ko'rib chiqish va bartaraf etish bo'yicha qanday tashkiliy choralar va mas'ul tuzilmalar belgilangan?

❖ Antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar qo'llanilishining samaradorligi qanday mexanizmlar orqali monitoring qilinadi va baholanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Antiplagiat tizimi va tashkiliy choralar joriy etilganligi haqida ma'lumot va asoslovchi hujjatlar.

9.4. INDIKATOR

Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilash bo'yicha shaffof tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Akademik halollik qoidalarini buzish holatlarini ko'rib chiqish uchun qanday shaffof tartib va protseduralar belgilangan?

❖ Qoidabuzarlik holatlarini ko'rib chiqish va javobgarlik choralari belgilashda qaysi organlar (komissiya, kengash) ishtirok etadi va ularning vakolatlari qanday aniqlangan?

❖ Qabul qilingan qarorlar bo'yicha manfaatdor tomonlarga axborot yetkazish hamda qarorlar ijrosini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akademik halollik to'g'risida ichki hujjatlar.

9.5. INDIKATOR

Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar akademik halollik va etika qoidalari bilan qanday shakl va kanallar orqali tanishtirilgan?*

❖ *Akademik halollik va etika qoidalari bilan tanishtirilganlik holati qanday hujjatlar yoki dalillar orqali tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur qoidalar bo'yicha tushuntirish va profilaktika ishlari (seminar, trening, yo'riqnoma) qanday davriylikda o'tkazilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tanishtirilganligini asoslovchi hujjatlar.*

9.6. INDIKATOR

Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha muntazam ravishda treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun akademik halollik, etika, plagiat, sun'iy intellektdan to'g'ri foydalanish, mualliflik huquqi va manfaatlar to'qnashuvi bo'yicha qanday muntazam treninglar (seminarlar, ma'ruzalar) tashkil etilgan?*

❖ *Mazkur treninglarni tashkil etishning davriyligi, mazmuni va maqsadlari qanday tartibda belgilangan?*

❖ *O'tkazilgan treninglarning ishtirokchilar bilim va xabardorligini oshirishdagi samaradorligi qanday mezonlar asosida baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan tadbirlar haqida ma'lumotlar va asoslovchi hujjatlar.*

9.7. INDIKATOR

Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlar himoya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlar, innovatsion g'oyalar, ixtirolar va boshqa intellektual mulk obyektlariga bo'lgan huquqlarni himoya qilish bo'yicha qanday tartib va mexanizmlar joriy etilgan?*

❖ *Intellektual mulk obyektlarini ro'yxatdan o'tkazish, mualliflikni tasdiqlash va huquqlarni rasmiylashtirish jarayoni qanday tartibda tashkil etilgan?*

❖ *Intellectual mulk huquqlarini himoya qilish choralari ilmiy va innovatsion faoliyatni rag'batlantirishga qanday ta'sir ko'rsatgani va bu samaradorlik qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Mualliflik huquqi va intellektual mulkni himoya qilinganligini asoslovchi hujjat(lar).*

9.8. INDIKATOR

Akademik halollik tizimining samaradorligi doimiy tahlil qilingan hamda uni takomillashtirish bo'yicha amaliy choralar ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Akademik halollik tizimining samaradorligini tahlil qilish qanday tartibda va qanday belgilangan davriylikda (yillik, yarim yillik) amalga oshiriladi?*

❖ *Tahlil jarayonida akademik halollik tizimining samaradorligini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan (qoidabuzarliklar soni, antiplagiat natijalari, murojaatlar, treninglar qamrovi va boshqalar) foydalaniladi?*

❖ *O'tkazilgan tahlillar natijalari asosida akademik halollik tizimini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq amaliy chora-tadbirlar ko'rilgan va ularning ijrosi qanday nazorat qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tizim samaradorligi va uni takomillashtirish bo'yicha tahliliy ma'lumotlar.*

10. MEZON: Dissertatsiya ishi himoyasi uchun mavjud ilmiy kengashlar faoliyati, ularning tarkibiy tuzilishi, ish tartibi va qabul qilingan qarorlarining ilmiy-huquqiy asoslangani

Izoh: *Ilmiy kengashlarning tarkibi, ish tartibi hamda qarorlarining qonuniyligi va ilmiy asoslanganligi, shuningdek ularning faoliyati samaradorligi o'rganiladi.*

10.1. INDIKATOR

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlar Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tasdiqlangan va ro'yxatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda faoliyat yuritayotgan ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash(lar) Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlanganmi va amaldagi ro'yxatda mavjudmi?*

❖ *Ilmiy kengash(lar)ning ixtisosligi, ilmiy yo'nalishi va amal qilish muddati OAK tomonidan tasdiqlangan qarorga muvofiq keladimi?*

❖ *Ilmiy kengash(lar) tarkibi (rais, o'rinbosar, ilmiy kotib va a'zolar) OAK tomonidan belgilangan malaka va ilmiy daraja talablariga javob beradimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) tomonidan tasdiqlangan hujjat.*

10.2. INDIKATOR

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tarkibi fan sohalari bo'yicha malakali mutaxassislardan shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy kengash tarkibiga kiritilgan a'zolar ilmiy kengash faoliyat yuritayotgan fan sohalari bo'yicha tegishli ilmiy daraja va ilmiy unvonlarga egami?*
- ❖ *Ilmiy kengash a'zolarining ilmiy tadqiqot yo'nalishlari dissertatsiya himoyalari o'tkaziladigan mutaxassislik shifrlari va fan sohalariga mos keladimi?*
- ❖ *Ilmiy kengash tarkibida tashqi tashkilotlardan jalb etilgan yetuk va tan olingan mutaxassislar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tarkibining fan sohalari bo'yicha diplom malakalari.*

10.3. INDIKATOR

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati belgilangan nizom va reglament asosida amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati qaysi normativ-huquqiy hujjatlar asosida tashkil etilgan va tasdiqlangan?*
- ❖ *Ilmiy kengash majlislari belgilangan reglamentga muvofiq o'tkazilib, qarorlar rasmiy bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladimi?*
- ❖ *Ilmiy kengash tarkibi va uning vakolatlari amaldagi talablar asosida shakllantirilganmi va doimiy yangilanib boriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati belgilangan nizom va reglament asosida amalga oshirilganligi to'g'risida ma'lumot.*

10.4. INDIKATOR

Dissertatsiyalar himoyasi ochiqlik va ilmiy halollik prinsiplariga muvofiq o'tkaziladi

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dissertatsiya himoyalarini o'tkazish jarayoni ochiq va shaffof bo'lishi qanday tartibda ta'minlanadi?*

❖ *Dissertatsiya ishlarida plagiatga qarshi nazorat va ilmiy halollikni ta'minlash mexanizmlari qanday joriy etilgan?*

❖ *Dissertatsiya himoyasi jarayonida manfaatlar to'qnashuvining oldini olish va xolislikni ta'minlash bo'yicha qanday choralar ko'riladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Dissertatsiyalar himoyasi ochiqlik va ilmiy halollik prinsiplariga muvofiq o'tkazilganligi to'g'risida ma'lumot;*

✓ *Onlayn translyatsiyani amalga oshirilganligi to'g'risidagi ma'lumot (youtube platformasi).*

10.5. INDIKATOR

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar ilmiy va huquqiy jihatdan asoslangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy kengash tomonidan qabul qilingan qarorlar amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Dissertatsiya ishlari bo'yicha qarorlar ilmiy ekspertiza va xolis baholash asosida qabul qilinganmi?*

❖ *Ilmiy kengash qarorlari ochiqlik va shaffoflik tamoyillariga rioya etgan holda qabul qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul qilingan qarorlar ilmiy va huquqiy jihatdan asoslanganligi to'g'risida ma'lumot.*

10.6. INDIKATOR

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlar yuritiladi va OAKga taqdim etiladi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy kengash faoliyati yakunlari bo'yicha hisobotlar muntazam va tasdiqlangan tartibda yuritiladimi?*

❖ *Hisobotlarda himoyalar soni, yo'nalishlari, ilmiy darajalar va qarorlar to'liq aks ettirilganmi?*

❖ *Tuzilgan hisobotlar belgilangan muddatlarda Oliy attestatsiya komissiyasiga (OAK) rasmiy ravishda taqdim etilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy kengash faoliyati natijalari bo'yicha hisobotlar yuritilganligi va OAKga taqdim etilganligi to'g'risida ma'lumot.*

III. Tadqiqotchilar faoliyati yo'nalishi

Izoh: Tadqiqotchilarni qabul qilish, o'qish jarayonini boshqarish va chetlashtirishni qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshirish, shuningdek, ta'lim xizmatlari eksportini rivojlantirish orqali tadqiqotchilar kontingentini samarali boshqarishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

11. MEZON: Qabul parametrlari ilmiy-tadqiqotlar uchun mavjud mablag'lar, tadqiqot loyihalari yoki boshqa moliyalashtirish manbalari imkoniyatlarini inobatga olgan holda belgilangani

Izoh: Ta'lim tashkilotining qabul parametrlarining mavjud ilmiy xodimlar salohiyati, moddiy-texnika bazasi, o'quv xonalari va laboratoriyalar quvvati hamda moliyaviy resurslari bilan mutanosib ravishda belgilaganligi, shuningdek, qabul jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur resurslarni moliyalashtirish darajasi o'rganiladi.

11.1. INDIKATOR

Qabul parametrlari (izlanuvchilar soni, ixtisosliklar kesimidagi kvotalar va boshqalar) ta'lim tashkilotining auditoriyalari, maxsus xonalar, laboratoriyalari, amaliyot bazalari, texnikaviy jihozlanishi hamda ta'lim, ilmiy-tadqiqot, ma'naviy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish faoliyatini ta'lim dasturlarida belgilangan maqsadlarni amalga oshirish imkonini beradigan infratuzilma quvvatiga mos ravishda belgilangan*

Yordamchi savollar:

❖ Qabul parametrlarining ta'lim tashkilotida oliy ta'limdan keyingi ta'lim bo'yicha belgilangan izlanuvchilar soni va ixtisosliklar kesimidagi kvotalar mavjud auditoriyalar, maxsus xonalar va laboratoriyalarning real sig'imi va foydalanish imkoniyatlariga mos keladimi?

❖ Infratuzilma va moddiy-texnik bazaning ta'lim dasturlarida nazarda tutilgan ta'lim va ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish uchun mavjud laboratoriyalar, amaliyot bazalari, texnik jihozlar yetarlimi va ular amaldagi holatda foydalanilyaptimi?

❖ Qo'llab-quvvatlovchi infratuzilmasining ta'lim tashkilotining ma'naviy-ma'rifiy va sog'lomlashtirish faoliyati uchun ajratilgan infratuzilma (kutubxona, sport inshootlari, dam olish hududlari va boshqalar) ta'lim dasturlarida belgilangan maqsadlarni to'liq ta'minlay oladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Infratuzilma quvvatining qabul parametrlari bilan mosligi haqida ma'lumot.

11.2. INDIKATOR

Qabul parametrlari mehnat bozori ehtiyojlari, ustuvor tadqiqot yo'nalishlari, amaliyot bazalari va ilmiy salohiyat bilan uyg'un holda shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) bo'yicha qabul parametrlari hududiy va respublika miqyosidagi mehnat bozori ehtiyojlari asosida qanday aniqlangan?*

❖ *Qabul yo'nalishlari va qabul kvotalari tashkilotda belgilangan ustuvor ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari hamda amalga oshirilayotgan ilmiy loyihalar bilan qanchalik uyg'un?*

❖ *Qabul qilinayotgan doktorantlar soni mavjud ilmiy rahbarlar salohiyati, moddiy-texnik baza va amaliyot bazalari (korxona, ilmiy markazlar) imkoniyatlariga mos ravishda belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Shakllantirilgan va ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan qabul parametrlari haqida ma'lumot.*

11.3. INDIKATOR

Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi (strategik rejasi, missiyasi, strategiyasi) va akademik profili bilan uyg'unlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotining rivojlantirish (strategik) rejasi va missiyasida belgilangan ustuvor ilmiy yo'nalishlar doktorantura (PhD/DSc) ga qabul yo'nalishlari va soniga qanday aks etgan?*

❖ *Doktorantura (PhD/DSc) bo'yicha qabul parametrlari (yo'nalishlar, qabul soni, ilmiy rahbarlar biriktirilishi) ta'lim tashkilotining mavjud akademik profili va ilmiy salohiyatiga (ilmiy kadrlar, laboratoriyalar, ilmiy maktablar) qanchalik mos?*

❖ *So'nggi 3–5 yil davomida doktorantura (PhD/DSc) ga qabul ko'rsatkichlari ta'lim tashkilotining strategik rivojlanish maqsadlariga muvofiq holda qay darajada barqaror va izchil amalga oshirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining rivojlantirish rejasi bilan uyg'unlashtirilganligi to'g'risida asos va ma'lumotlar.*

11.4. INDIKATOR

Qabul parametrlari ilmiy-tadqiqotlar, grantlar va tashqi moliyalashtirish manbalari bilan uzviy bog'langan holda rejalashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Qabul kvotalari (PhD/DSc/stajyor-tadqiqotchilar soni) tashkilotda amalda bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot loyihalari va grantlar soni hamda moliyaviy hajmiga qanday asosda bog'langan?*

❖ Oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilinayotgan doktorant va tadqiqotchilar aniq grant, ilmiy loyiha yoki xo'jalik shartnomalari doirasida ilmiy faoliyat olib boradimi?

❖ Tashkilotda mavjud tashqi moliyalashtirish manbalari (xalqaro grantlar, davlat grantlari, xo'jalik shartnomalari) hisobidan yangi doktorantura o'rinlarini rejalashtirish mexanizmi qanday hujjatlar bilan mustahkamlangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qabul parametrlari ta'lim tashkilotining ilmiy-tadqiqotlar, grantlar va tashqi moliyalashtirish manbalari bilan uzviy bog'langan holda rejalashtirilganligi to'g'risida ma'lumot.

11.5. INDIKATOR

Qabul jarayonlarini tashkil etish hamda qabul parametrlari bajarilishi bo'yicha muntazam monitoring olib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ Qabul jarayoni qaysi normativ-huquqiy hujjatlar va ichki buyruqlar asosida tashkil etilgan hamda ularning ijrosi qanday ta'minlanadi?

❖ Tasdiqlangan qabul kvotalari (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) bo'yicha real qabul ko'rsatkichlari qanday monitoring qilinadi va tahlil natijalari qayerda aks ettiriladi?

❖ Qabul parametrlarining bajarilishi bo'yicha aniqlangan og'ishlar (kam yoki ortiqcha qabul) yuzaga kelganda qanday boshqaruv choralar ko'riladi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qabul jarayonlarini umumiy monitoring hisoboti.

11.6. INDIKATOR

Qabul parametrlarini bajarilish holati bo'yicha har yili tahlil amalga oshirilgan hamda tahlil natijalari asosida qabul parametrlariga zarur o'zgartirishlar kiritib borilgan

Yordamchi savollar:

❖ Tashkilotda oxirgi 3 yil davomida doktorantura (PhD, DSc) va mustaqil izlanuvchilik bo'yicha belgilangan qabul parametrlari bajarilish holati muntazam tahlil qilinganmi?

❖ Qabul parametrlari bajarilmasligi yoki ortiqcha bajarilishi sabablari (ilmiy rahbarlar yetishmasligi, ilmiy baza, kvotalar, talab pastligi va boshqalar) aniqlanib, rasmiy tahliliy xulosalar shakllantirilganmi?

❖ O'tkazilgan tahlillar natijasida keyingi yillar uchun qabul parametrlarini o'zgartirish (oshirish, kamaytirish yoki yo'nalishlar kesimida qayta taqsimlash)

bo'yicha takliflar ishlab chiqilib, vakolatli organlarga kiritilganmi yoki ichki qarorlar bilan tasdiqlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ ilmiy kengash bayonnomasi va rahbar buyrug'i.

12. MEZON: Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish, o'qishdan chetlashtirish va o'qish muddatini uzaytirish belgilangan tartib-qoidalar asosida to'g'ri tashkil qilingani hamda shaffof va adolatli amalga oshirilgani !

Izoh: Izlanuvchilarning qabuli, chetlashtirilishi va o'qish muddatini uzaytirish jarayonlarining me'yoriy hujjatlar asosida shaffof, adolatli va jamoatchilik uchun ochiqlik darajasi o'rganiladi.

12.1. INDIKATOR

Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati belgilangan va hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi qanday normativ hujjat bilan tasdiqlangan va u ochiq manbalarda e'lon qilinganmi?

❖ Izlanuvchilarni tanlab olishda qanday qabul mezonlari va baholash usullari qo'llaniladi hamda ular hujjatlashtirilganmi?

❖ Qabul komissiyasining tarkibi, vakolatlari va faoliyat yuritish tartibi rasmiy hujjatlar bilan belgilanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati belgilangan me'yoriy hujjatlar.

12.2. INDIKATOR

Izlanuvchilarni o'qishga qabul qilish tartibi, qabul mezonlari, baholash usullari va qabul komissiyasi faoliyati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ Izlanuvchilarni oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul qilish jarayoni qarorda belgilangan talablarga qay darajada mos tashkil etilgan?

❖ Qabul mezonlari va baholash usullari (hujjatlar ekspertizasi, suhbat, test yoki boshqa baholash shakllari) ochiq, shaffof va me'yoriy-huquqiy hujjatlarga asoslangan holda tasdiqlanganmi?

❖ Qabul komissiyasi tarkibi va faoliyati (tashkil etilishi, vakolatlari, qarorlar rasmiylashtirilishi) amaldagi normativ hujjatlar asosida hujjatlashtirilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akkreditatsiyada oliy ta'limdan keyingi ta'limga qabul tartibini belgilovchi tasdiqlangan nizom, qabul komissiyasini tashkil etish bo'yicha buyruq, izlanuvchilarni tanlash va baholash mezonlari, qabul jarayoni bo'yicha bayonnomalar hamda rasmiy e'lon va axborot materiallari taqdim etiladi.

12.3. INDIKATOR

Korrupsiyani oldini olish, manfaatlar to'qnashuvi xavfini kamaytirish va baholashning xolisligini ta'minlovchi raqamlashtirilgan tizim joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ Tizim orqali manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiya xavflarini aniqlash hamda baholash jarayonining shaffofligini ta'minlash qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?

❖ Tizimdan foydalanishning samaradorligi va baholash jarayonlarining xolisligiga ta'siri qanday mezonlar asosida monitoring va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Raqamlashtirilgan tizim joriy etilishi to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat.

12.4. INDIKATOR

Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalar rasmiylashtirilgan, ko'rib chiqilgan va ularning ijrosi nazoratga olingan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul natijalari bo'yicha apellyatsiya komissiyasiga kelib tushgan arizalarni qabul qilish va rasmiylashtirish qanday tartibda amalga oshirilgan?

❖ Apellyatsiya arizalarini ko'rib chiqish va ular bo'yicha qaror qabul qilish jarayoni qanday hujjatlar va protseduralar asosida tashkil etilgan?

❖ Apellyatsiya arizalari bo'yicha qabul qilingan qarorlarning ijrosi qanday mexanizmlar orqali nazoratga olingan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Apellyatsiya berish va ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi ma'lumot va asoslovchi hujjat(lar).

12.5. INDIKATOR

Qabul jarayoni doimiy ravishda nazorat va tahlil qilingan hamda tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilgan

Yordamchi savollar:

❖ Qabul jarayoni qanday tartibda va qanday davriylikda ichki nazorat va tahlildan o'tkazilgan?

❖ *Ichki nazorat va tahlil jarayonida qabul jarayonini baholash uchun qanday mezonlar va ko'rsatkichlardan foydalanilgan?*

❖ *Ichki nazorat va tahlil natijalari asosida qabul jarayonini takomillashtirish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar ko'rilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Nazorat va tahlil ma'lumotlari hamda uning asosida jarayonni takomillashtirish yuzasidan ko'rilgan choralar.*

13. MEZON: Izlanuvchilarning belgilangan talablar asosida dissertatsiya ishini tayyorlashning yakka tartibdagi rejasi, ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dasturi ishlab chiqilgani va tasdiqlangani !

Izoh: *Izlanuvchilarning dissertatsiya ishini belgilangan talablar asosida bosqichma-bosqich bajarish uchun yakka tartibdagi ish rejasi va ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqilganligi, tasdiqlanganligi va ilmiy faoliyati monitoring qilinganligi o'rganiladi.*

13.1. INDIKATOR

Izlanuvchilarning dissertatsiya ishini tayyorlash bo'yicha yakka tartibdagi rejasi ishlab chiqilgan hamda ilmiy rahbar (konsultant) va ta'lim tashkiloti rahbariyati tomonidan tasdiqlangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Har bir izlanuvchi uchun dissertatsiya ishini bajarish bo'yicha yakka tartibdagi reja ishlab chiqilganmi va u belgilangan shaklda rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Mazkur yakka tartibdagi reja ilmiy rahbar (yoki ilmiy konsultant) tomonidan ko'rib chiqilib, tasdiqlanganmi?*

❖ *Yakka tartibdagi reja ta'lim tashkiloti rahbariyati (rektor/prorektor yoki tegishli mas'ul shaxs) tomonidan tasdiqlangan va shaxsiy ish hujjatlarida saqlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilarning tasdiqlangan yakka tartibdagi rejalari.*

13.2. INDIKATOR

Ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur ishlab chiqilgan va tasdiqlangan hamda vazifalarning bajarilishi muntazam monitoring qilinadi

Yordamchi savollar:

❖ *Ixtisoslik bo'yicha nazariy-metodologik dastur mavjudmi va u qaysi vakolatli organ tomonidan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur dasturda doktorantlar uchun belgilangan o'quv, ilmiy-tadqiqot va mustaqil ish vazifalari aniq va o'lchab bo'ladigan shaklda belgilanganmi?*

❖ *Dasturda belgilangan vazifalarning bajarilishi qanday mexanizmlar orqali va qaysi davriylikda monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilarning tasdiqlangan nazariy-metodologik dasturlari.*

13.3. INDIKATOR

Izlanuvchilarning dissertatsiya ishlari bo'yicha oraliq va yakuniy hisobotlar topshirilib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Hisobotlar belgilangan muddatlarda muntazam topshiriladimi va bu jarayon ichki tartib bilan tartibga solinganmi?*

❖ *Topshirilgan oraliq va yakuniy hisobotlar tegishli kafedra, ilmiy bo'lim yoki ilmiy kengashlarda ko'rib chiqilib, rasmiy bayonnomalar bilan rasmiylashtiriladimi?*

❖ *Hisobotlar natijalari bo'yicha ilmiy rahbar va tashkilot tomonidan xulosa berilib, izlanuvchining keyingi bosqichga o'tishi hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring natijalari bo'yicha kollegial organ qarorlari.*

13.4. INDIKATOR

Dissertatsiya ishini tayyorlash jarayonida ilmiy seminarlar va muhokamalar tashkil etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Dissertatsiya mavzulari bo'yicha ilmiy seminarlar qaysi davriylikda va qaysi bosqichlarda (mavzu tasdiqlash, oraliq natijalar, yakuniy natijalar) o'tkazilgan?*

❖ *Ilmiy seminar va muhokamalarda doktorant, ilmiy rahbar hamda tegishli kafedra (yoki ilmiy bo'lim) ilmiy rahbar (konsultant)lari ishtiroki qanday ta'minlangan?*

❖ *Ilmiy seminarlar yakunlari bo'yicha doktorantlarga berilgan tavsiyalar dissertatsiya ishida qanday inobatga olingan va rasmiylashtirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Seminar bayonnomasi.*

13.5. INDIKATOR

Izlanuvchilarning ilmiy faoliyati natijalari ilmiy rahbar (konsultant) va mas'ul bo'limlar tomonidan monitoring qilinadi hamda rasmiy ravishda hujjatlashtiriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) tomonidan izlanuvchining ilmiy faoliyati natijalari (maqola, tezis, patent, hisobot va h.k.) muntazam ravishda baholanib boriladimi va bu baholash hujjatlashtirilganmi?*

❖ *Mas'ul bo'lim (doktorantura bo'limi, ilmiy bo'lim yoki kafedra) tomonidan izlanuvchilarning individual rejalari va ilmiy faoliyat natijalari bo'yicha monitoring olib boriladimi?*

❖ *Monitoring natijalari bo'yicha rasmiy hisobotlar, bayonnomalar yoki elektron tizimlarda qaydlar shakllantirilganmi va ular saqlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring natijalari bo'yicha kollegial organ qarorlari.*

14. MEZON: Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektori bilan akademik mobillikni yo'lga qo'yilgani

Izoh: *Izlanuvchi va ilmiy xodimlarning respublika va xorijiy muassasalar bilan almashinuvini qo'llab-quvvatlovchi tizim tashkil etilganligi va uni tegishli kelishuvlar asosida amalga oshirilganligi o'rganiladi.*

14.1. INDIKATOR

Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektorlari bilan akademik mobillikni tartibga soluvchi ichki tartib mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va ilmiy xodimlarning respublika hamda xorijiy ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish korxonalariga akademik mobilligini tartibga soluvchi tasdiqlangan ichki hujjat mavjudmi?*

❖ *Mazkur ichki tartibda akademik mobillikning maqsadi, shakllari (stajirovka, ilmiy safar, amaliyot), davomiyligi, moliyalashtirish manbalari va tanlov tartibi aniq belgilanganmi?*

❖ *Akademik mobillik natijalarini hisobga olish, hujjatlashtirish va monitoring qilish mexanizmlari (hisobot, sertifikat, buyruq) belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Akademik mobillikni tashkil etish va amalga oshirish tartibi to'g'risida" ichki nizom.*

14.2. INDIKATOR

Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektorlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuv shartnomalari (memorandumlar va hamkorlik bitimlari) tuzilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda akademik mobillikni amalga oshirish maqsadida respublika va xorijiy ilmiy tashkilotlar yoki ishlab chiqarish korxonalari bilan tuzilgan amaldagi memorandumlar va hamkorlik bitimlari mavjudmi?*

❖ *Mazkur memorandum va hamkorlik bitimlarida doktorantlar, mustaqil tadqiqotchilar va ilmiy rahbarlarning akademik almashinuvi (stajirovka, qisqa muddatli ilmiy safar, qo'shma tadqiqotlar) nazarda tutilganmi?*

❖ *Ushbu kelishuvlar asosida so'nggi 3 yil davomida akademik mobillik bo'yicha real amalga oshirilgan faoliyatlar (jo'natilgan/qabul qilingan doktorantlar, ilmiy xodimlar) mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Respublika va xorijiy mamlakatlardagi ilmiy tashkilotlar va ishlab chiqarish sektorlari bilan akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha tuzilgan kelishuv shartnomalari, memorandumlar va hamkorlik bitimlari.*

14.3. INDIKATOR

Akademik mobillikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha tarkibiy bo'linma tashkil etilgan va (yoki) mas'ul ijrochi(lar) belgilangan

❖ *Tashkilotda akademik mobillik masalalarini muvofiqlashtiruvchi alohida tarkibiy bo'linma yoki mas'ul ijrochi rasman belgilanganmi?*

❖ *Mazkur bo'linma yoki mas'ul ijrochining vazifa va funksiyalari akademik mobillikni tashkil etish, muvofiqlashtirish va monitoring qilishni qamrab olganmi?*

❖ *Akademik mobillik bo'yicha mas'ul bo'linma (yoki ijrochi) faoliyati tashkilotning ichki normativ hujjatlarida va amaliy faoliyatida aks etganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tarkibiy bo'linma nizomi va shtat jadvali.*

14.4. INDIKATOR

Akademik mobillik jarayonlari milliy va xalqaro akademik mobillik talablari asosida amalga oshirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) uchun milliy va xalqaro akademik mobillikni tashkil etish tartibi universitetda tasdiqlanganmi va amalda qo'llanilyaptimi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida doktorantlar yoki ilmiy izlanuvchilar tomonidan xorijiy yoki respublika ichidagi oliy ta'lim va ilmiy tashkilotlarda amalga oshirilgan akademik mobillik holatlari mavjudmi va ular hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Akademik mobillik natijalari (ilmiy stajirovka, qo'shma tadqiqot, ilmiy hisobot, nashrlar, sertifikatlar) ta'lim va ilmiy jarayonga integratsiya qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Akademik mobillik yakuni bo'yicha hisobot.

14.5. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilarning akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan loyihalarda ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Tashkilotda ilmiy rahbarlar va izlanuvchilar uchun akademik mobillikda ishtirok etish tartibi ochiq, shaffof va barchaga teng asosda belgilanganmi?

❖ Akademik mobillik loyihalarida ishtirok etish imkoniyatlari barcha yo'nalishlar va barcha toifadagi izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) uchun teng ta'minlanganmi?

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilarning xorijiy va mahalliy hamkor tashkilotlar bilan qo'shma akademik mobillik loyihalarida ishtiroki amaliy natijalar bilan tasdiqlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Akademik mobillik loyihalarida, shu jumladan hamkorlik dasturlari asosida yo'lga qo'yilgan loyihalarda ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilarning ishtirok etishi uchun teng imkoniyatlar yaratilganlig'i to'g'risida ma'lumot.

14.6. INDIKATOR

Akademik mobillikda ishtirok etgan ilmiy rahbar (konsultant)lar va izlanuvchilar ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi, ta'lim dasturlari va o'quv hamda ilmiy jarayonni yaxshilashga qo'shayotgan hissasi tizimli tahlil qilingan

Yordamchi savollar:

❖ Akademik mobillikda ishtirok etgan ilmiy rahbarlar va izlanuvchilar tomonidan olingan bilim va tajribalar ta'lim dasturlari yoki o'quv-ilmiy jarayonni takomillashtirishda qanday shaklda qo'llanilgan?

❖ Akademik mobillik natijalari ta'lim sifatini ichki ta'minlash tizimi doirasida tahlil qilinganmi va ushbu tahlil natijalari asosida qanday qarorlar qabul qilingan?

❖ Akademik mobillikdan qaytgan ilmiy rahbar va izlanuvchilarning tashabbuslari (yangi fanlar, o'quv modullari, metodikalar, ilmiy yo'nalishlar) amaliyotga joriy etilganligi qanday dalillar bilan tasdiqlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Monitoring va tahlil ma'lumot.

IV. Tadqiqot jarayonini tashkil etish yo'nalishi

Izoh: Ilmiy izlanishlarni rejalashtirish, boshqarish, baholash va natijalarini amaliyotga tatbiq etish, shuningdek, izlanuvchilar uchun yuqori ilmiy natijalarga erishishga xizmat qiluvchi sharoit yaratishga qaratilgan faoliyat baholanadi.

15. MEZON: Ilmiy rahbarlar (konsultant) faoliyati belgilangan talab asosida ishlab chiqilgani, tasdiqlangani va yuritilishi

Izoh: Belgilangan talablar asosida tartibga solinib, vazifa va mas'uliyatlari aniqlangan, samaradorligi baholanadigan hamda izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimining holati o'rganiladi.

15.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larni tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son "Oliy ta'limdan keyingi ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)lar tayinlash jarayoni Vazirlar Mahkamasining 304-son qarorida belgilangan talablar asosida rasmiylashtirilganmi?

❖ Har bir doktorant uchun ilmiy rahbar (va zarur bo'lsa konsultant) alohida buyruq bilan tasdiqlanganmi?

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)larning ilmiy-pedagogik salohiyati va so'nggi 5 yillik ilmiy faoliyati normativ talablarga mos keladimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-son qaroriga muvofiq ilmiy rahbar (konsultant)larni tayinlanganligi to'g'risida ma'lumot.

15.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar zimmasiga yuklatilgan vazifalar aniq belgilangan, ularning faoliyatini baholash va samaradorligini monitoring qilish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy rahbar va konsultantlarning huquq va majburiyatlari qaysi normativ hujjat bilan belgilangan va u PhD/DSc tayyorlash jarayonida amalda qo'llaniladimi?

❖ Ilmiy rahbarlar faoliyati (dissertatsiya bajarilishi, muddatlarga rioya etilishi, ilmiy natijalar) qanday mezonlar asosida baholanadi va bu baholash qanchalik tizimli amalga oshiriladi?

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)larning samaradorligini monitoring qilish natijalari asosida rag'batlantirish yoki mas'uliyat choralari ko'rish mexanizmi mavjudmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Monitoring natijalarini tasdiqlovchi kollegial organ qarorlari.*

15.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatining natijalari bo'yicha tahlil va takliflar tayyorlanadi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan rahbarlik qilinayotgan doktorantlarning dissertatsiya himoyalari, chop etilgan ilmiy ishlari va o'qishni yakunlash ko'rsatkichlari muntazam tahlil qilinganmi?*

❖ *Ilmiy rahbarlar faoliyatining samaradorligi (himoya foizi, muddatida tugatish, Scopus/WoS maqolalar) asosida kamchiliklar va muammolar aniqlanganmi?*

❖ *O'tkazilgan tahlil natijalariga tayangan holda ilmiy rahbarlar faoliyatini yaxshilash bo'yicha aniq takliflar va boshqaruv qarorlari ishlab chiqilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ilmiy rahbar va konsultantlar faoliyati samaradorligi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma va takliflar paketi.*

15.4. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun malaka oshirish va uslubiy ko'mak tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun malaka oshirish qanday tartibda va qaysi davriylikda tashkil etilgan?*

❖ *Ilmiy rahbarlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash uchun qanday uslubiy ko'maklar joriy etilgan?*

❖ *Ilmiy rahbarlarning malaka oshirishda ishtiroki va uslubiy ko'makdan foydalanishi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ichki yoki tashqi kurslar, seminarlar, treninglar, uslubiy qo'llanmalar, yo'riqnomalar, tavsiyalar, seminar materiallari mavjudligi to'g'risida ma'lumot.*

16. MEZON: Dissertatsiya mavzularining jamiyat, iqtisodiyot va sanoatdagi dolzarb muammolarning yechimiga qaratilgani, olingan ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida dissertatsiya mavzularining jamiyat, iqtisodiyot va sanoat muammolarini hal etishga yo'naltirilganligi, ilmiy natijalarining amaliyotga joriy etilishi hamda sohalar rivojiga qo'shilayotgan hissasi o'rganiladi.*

16.1. INDIKATOR

Dissertatsiya mavzulari jamiyat, iqtisodiyot va sanoatdagi dolzarb muammolarning yechimi va amaliy ehtiyojlari bilan muvofiqlashtirilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dissertatsiya mavzulari qaysi jamiyat, iqtisodiyot yoki sanoat sohasidagi aniq muammo yoki ehtiyojni hal etishga qaratilgan?*
- ❖ *Dissertatsiya mavzularini shakllantirishda tarmoq korxonalari, davlat organlari yoki real sektor tashkilotlarining taklif va ehtiyojlari inobatga olinganmi?*
- ❖ *Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi yoki joriy etish imkoniyati aniq mexanizmlar orqali asoslanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Davlat dasturlari, tarmoq rivojlanish konsepsiyalari yoki strategik hujjatlarga mosligi bo'yicha ma'lumot.*

16.2. INDIKATOR

Dissertatsiya mavzulari ta'lim tashkiloti tadqiqot yo'nalishlariga muvofiq va manfaatdor tashkilotlar va ishlab chiqarish sohasi bilan kelishilgan holda tanlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dissertatsiya mavzulari oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotning tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari va ustuvor mavzulariga qanchalik mos keladi?*
- ❖ *Dissertatsiya mavzularini shakllantirish jarayonida manfaatdor tashkilotlar (korxona, tarmoq tashkiloti, buyurtmachi) bilan rasmiy kelishuv mavjudmi?*
- ❖ *Tanlangan dissertatsiya mavzulari ishlab chiqarish sohasi ehtiyojlari va amaliy muammolarni hal etishga yo'naltirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Muammoli mavzular banki va/yoki tashkilotning tasdiqlangan tadqiqot yo'nalishlari to'g'risidagi ma'lumot.*

16.3. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot natijalari amaliyotda qo'llanilgan yoki joriy etilgan (dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki kelishuv hujjatlari rasmiylashtirilgan)

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy-tadqiqot natijasi qayerda va qaysi tashkilotda amaliyotga joriy etilgan?*
- ❖ *Mazkur natija aynan qaysi shaklda qo'llanilgan?*
- ❖ *Ilmiy natijaning joriy etilganini tasdiqlovchi rasmiy hujjatlar mavjudmi va ular qachon rasmiylashtirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Rasmiylashtirilgan dalolatnoma, ma'lumotnoma yoki kelishuv hujjatlar.*

16.4. INDIKATOR

Dissertatsiya mavzulari bo'yicha olingan natijalar ilmiy va amaliy konferensiyalarda taqdim etilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ *Dissertatsiya mavzusiga mos ilmiy natijalar qaysi ilmiy yoki amaliy konferensiyalarda taqdim etilgan?*
- ❖ *Taqdim etilgan ma'ruza (og'zaki yoki stend) dissertatsiya ishining qaysi bob yoki natijalariga asoslangan?*
- ❖ *Tadqiqotchi konferensiyada shaxsan ishtirok etganmi va bu ishtirok hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Konferensiya to'plami mavzu va dissertatsiya mazmuni o'rtasidagi bog'liqlik aniqlanganligi to'g'risidagi ma'lumotlar.*

16.5. INDIKATOR

Ilmiy natijalar bo'yicha patent, monografiya, mualliflik guvohnomasi yoki litsenziya olingan (tegishli sohalar bo'yicha)

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy tadqiqotlar natijasida qaysi turdagi intellektual mulk obyektlari (patent, monografiya, mualliflik guvohnomasi yoki litsenziya) yaratilgan?*
- ❖ *Ushbu ilmiy natijalar qaysi tadqiqot yo'nalishi yoki soha (texnika, tabiiy fanlar, tibbiyot, qishloq xo'jaligi va boshqalar) bo'yicha olingan va ta'lim dasturi mazmuni bilan qanday bog'liq?*
- ❖ *Olingan patent, monografiya yoki litsenziyalar rasmiy davlat ro'yxatidan o'tkazilganmi va ular bo'yicha tasdiqlovchi hujjatlar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Tegishli sohalarining ilmiy natijalar bo'yicha olingan patent, monografiya, mualliflik guvohnomasi va/yoki litsenziyalar.*

17. MEZON: Ilmiy rahbarlar (konsultant) yuklamalarining belgilangan normalariga muvofiq ajratilgani

Izoh: *Ilmiy rahbarlar (konsultantlar)ga yuklama me'yoriy hujjatlar asosida, izlanuvchilar soni, ixtisoslik yo'nalishi va ilmiy mavzuning murakkabligidan kelib chiqib adolatli taqsimlanishi hamda uning hisobga olinishi va nazorat qilinishi holati o'rganiladi.*

17.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar yuklamalarini belgilash tartibi ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom) bilan tartibga solingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar va ilmiy konsultantlarning doktorantlar bilan ishlash yuklamalari qanday me'yorlar asosida belgilanadi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) yuklamalari qaysi ichki hujjat bilan tartibga solingan va ushbu hujjat qachon tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur yuklamalar amalda qanday nazorat qilinadi va hisobga olinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining Ilmiy rahbar (konsultant)lar yuklamalarini belgilash tartibi bo'yicha ichki hujjat(lar) (qoidalar, tartib, nizom).*

17.2. INDIKATOR

Har bir ilmiy rahbar (konsultant)ga yuklama ajratishda belgilangan normativlar (izlanuvchilar soni, vaqt me'yori va vazifalar hajmi) inobatga olingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ga bir vaqtning o'zida biriktirilgan izlanuvchilar soni amaldagi normativ hujjatlar talablariga mosmi?*

❖ *Ilmiy rahbarlik faoliyati ilmiy-pedagogik yuklama yoki individual ish rejasida alohida vaqt me'yori sifatida belgilanganmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)ning izlanuvchi bilan ishlash bo'yicha vazifalari (mavzu bo'yicha yo'naltirish, dissertatsiya bo'limlarini ko'rib chiqish, hisobotlar, attestatsiya jarayonidagi ishtirok) hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant)ga beriladigan yuklama belgilashda tasdiqlangan vaqt me'yori.*

17.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lik yuklamasi izlanuvchilar soniga mutanosib ravishda aniq hisoblangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larga biriktirilgan izlanuvchilar soni amaldagi me'yoriy hujjatlarga muvofiq belgilanganmi?*

❖ *Ilmiy rahbarlik (konsultantlik) yuklamasi har bir Ilmiy rahbar (konsultant) kesimida alohida hisoblangan va rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ Ilmiy rahbarlik yuklamasi o'quv yuki va ilmiy faoliyat rejalari bilan uyg'unlashtirilgan holda rejalashtirilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant)lik yuklamasi izlanuvchilar soniga mutanosib ravishda shakllantirilganligi to'g'risida ma'lumot.

17.4. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar yuklamasi to'g'risidagi ma'lumotlar elektron yoki qog'oz shaklida hisobga olinadi

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy rahbar (konsultant)larning doktorantlar bo'yicha yuklamasi qaysi hujjat yoki elektron tizim orqali hisobga olinadi?

❖ Har bir ilmiy rahbar (konsultant) uchun biriktirilgan doktorantlar soni va rahbarlik turi (asosiy/konsultant) alohida ko'rsatilganmi?

❖ Mazkur yuklama ma'lumotlari muntazam yangilanib boriladimi va mas'ul bo'lim tomonidan tasdiqlanadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Tegishli jadvallar, elektron reyestr.

18. MEZON: Izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari asosida chop etilgan maqola, tezis va intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlarga egaligi

Izoh: Izlanuvchilarning ilmiy ish samaradorligi chop etilgan maqolalar, tezislar va patentlar bilan ifodalanishi, natijalarining yangiligi, amaliy ahamiyati hamda belgilangan ilmiy daraja talablariga moslik darajasi o'rganiladi.

18.1. INDIKATOR

Ilmiy ish natijasiga doir intellektual mulk huquqini himoya qiluvchi hujjatlar (patent, guvohnoma va boshqalar) olingan

Yordamchi savollar:

❖ So'nggi 5 yil davomida oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida bajarilgan ilmiy ishlar asosida qaysi turdagi intellektual mulk hujjatlari (patent, guvohnoma va boshqalar) olingan?

❖ Olingan patent yoki guvohnomalar mualliflari orasida PhD, DSc izlanuvchilari yoki ilmiy rahbarlar mavjudmi va ular qaysi ta'lim dasturi bilan bog'liq?

❖ Ushbu intellektual mulk hujjatlari dissertatsiya natijalari, amaliy ishlanmalar yoki ilmiy loyihalar bilan qanday bog'langan va qaysi yo'nalishlarda olingan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Patent va guvohnomalar.

18.2. INDIKATOR

Chop etilgan ishlar va patentlar bo'yicha ma'lumotlar ta'lim tashkilotining elektron axborot bazasiga kiritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Chop etilgan ilmiy maqolalari hamda olingan patentlari to'g'risidagi ma'lumotlarni kiritish uchun yagona elektron axborot bazasi mavjudmi?*

❖ *Elektron axborot bazasida chop etilgan ilmiy ishlar va patentlar to'g'risidagi ma'lumotlar muntazam yangilanib boriladimi hamda mas'ul bo'linma tomonidan nazorat qilinadimi?*

❖ *Elektron axborot bazasiga kiritilgan ilmiy ishlar va patentlar bo'yicha ma'lumotlar tasdiqlovchi hujjatlar bilan asoslanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining elektron axborot bazasiga kiritilgan nashr ishlari va patentlar bo'yicha ma'lumot.*

18.3. INDIKATOR

Izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari (ilmiy yangilik, amaliy ahamiyat va ilmiy nashrlari) ilmiy daraja talablariga muvofiqligi jihatidan muhokama qilingan va baholangan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy-tadqiqot natijalari (dissertatsiya ishi, maqolalar, patentlar) tegishli ilmiy seminarlar, kafedra yoki ilmiy kengashlarda muntazam muhokama qilinganmi?*

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyati ilmiy rahbar, taqrizchilar yoki ekspertlar tomonidan yozma ravishda baholanganmi va ilmiy daraja talablariga mos deb topilganmi?*

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy nashrlari (OAK, Scopus, Web of Science va boshqa tan olingan manbalar) amaldagi normativ hujjatlarda belgilangan minimal talablarga mos keladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tegishli bayonnomalar.*

19. MEZON: Ta'lim tashkilotida tadqiqotlar natijadorligi tahlillarining olib borilgani va natijalarining muhokama qilingani

Izoh: *Ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalari doimiy tahlil qilinishi, muhokama etilishi hamda ilmiy ishlarni takomillashtirish va samaradorlikni oshirish tizimining samaradorligi o'rganiladi.*

19.1. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligi bo'yicha yillik yoki yarim yillik tahliliy hisobotlarni yurituvchi monitoring tizimi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy-tadqiqot ishlari natijadorligini baholash uchun yillik yoki yarim yillik tahliliy hisobotlar muntazam ravishda tayyorlanadimi va tasdiqlanadimi?*

❖ *Mazkur hisobotlarda ilmiy natijalar (maqolalar, grantlar, dissertatsiyalar, patentlar va h.k.) bo'yicha aniq ko'rsatkichlar va ularning tahlili aks ettirilganmi?*

❖ *Ilmiy-tadqiqot faoliyati bo'yicha shakllantirilgan tahliliy hisobotlar monitoring tizimi orqali jamlanib, rahbariyat qarorlarida (kengash, buyruq, reja) foydalaniladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Monitoring hisoboti.*

19.2. INDIKATOR

Tahlil natijalari kollegial organ yoki maxsus komissiya yig'ilishlarida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

❖ ***Qaysi tahlil natijalari** (o'quv rejalari, ilmiy rahbarlar faoliyati, doktorantlar natijalari, himoyalar, muddatlar va h.k.) kollegial organ yoki maxsus komissiya yig'ilishida muhokama qilingan?*

❖ *Mazkur **muhokama qaysi kollegial organ yoki komissiya** (Ilmiy kengash, Ilmiy-texnik kengash, Maxsus komissiya, Doktorantura bo'yicha komissiya va boshqalar) yig'ilishida o'tkazilgan?*

❖ *Muhokama natijasida **qanday qarorlar, tavsiyalar yoki topshiriqlar** qabul qilingan va ularning ijrosi qanday nazoratga olingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tahlil natijalari kollegial organ va/yoki maxsus komissiya yig'ilish bayonnomalari.*

19.3. INDIKATOR

Muhokama natijalari asosida ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy faoliyat masalalari qaysi organlar yoki yig'ilishlarda muhokama qilingan va muhokama natijalari rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Muhokama jarayonida aniqlangan muammo va kamchiliklar asosida aniq chora-tadbirlar belgilanganmi (mas'ullar, muddatlar, kutilayotgan natijalar bilan)?*

❖ *Belgilangan chora-tadbirlarning bajarilishi monitoring qilingan va ularning natijalari keyingi muhokamalarda ko'rib chiqilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi.*

19.4. INDIKATOR

Ilmiy faoliyat natijalari tahlili bo'yicha hisobotlar ma'lumotlar bazasi yoki axborot tizimida saqlanadi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy faoliyat natijalari (maqolalar, loyihalar, patentlar, dissertatsiyalar va boshqalar) bo'yicha tahliliy hisobotlar qaysi axborot tizimi yoki ma'lumotlar bazasida shakllantiriladi va saqlanadi?*

❖ *Mazkur hisobotlar qanday davriylikda (oylik, choraklik, yillik) yangilanadi va ularni shakllantirish uchun mas'ul bo'linma yoki shaxs kim hisoblanadi?*

❖ *Axborot tizimida saqlanayotgan ilmiy faoliyat natijalari asosida rahbariyat uchun tahliliy ma'lumotlar, xulosalar yoki qarorlar loyihalari tayyorlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy faoliyat natijalari tahlili hisobotlari, axborot tizimi skrinshotlari, ichki me'yoriy hujjatlar.*

20. MEZON: Izlanuvchilar belgilangan shaxsiy ish rejalarining o'rnatilgan tartibda bajarilishi monitoring qilib borilgani

Izoh: *Izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejalarini belgilangan talablar asosida bajarilishini tizimli kuzatish, vazifalar ijrosi, muddatlarga rioya etish va ilmiy natijalar sifatini tahlil qilish tizimining samaradorligi o'rganiladi.*

20.1. INDIKATOR

Yakka tartibdagi rejalarining bajarilishi bo'yicha monitoring grafigi va nazorat tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorantlar (PhD/DSc) va mustaqil tadqiqotchilar uchun yakka tartibdagi rejalar tasdiqlangan va ularning bajarilishi bo'yicha davriy monitoring grafigi mavjudmi?*

❖ *Yakka tartibdagi rejalar ijrosini baholash va nazorat qilish mexanizmlari (mas'ul shaxslar, davriylik, hisobot shakllari) ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *Monitoring natijalari asosida yakka tartibdagi rejalar ijrosi bo'yicha qarorlar (ogohlantirish, muddat uzaytirish, tavsiyalar yoki keyingi bosqichga o'tkazish) qabul qilinadimi va ular hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Doktorantura bo'limi (yoki Ilmiy ishlar bo'limi) tomonidan yuritiladigan nazorat jurnali va/yoki elektron monitoring bazasi, shuningdek, yakka tartibdagi rejalar bajarilishi bo'yicha yillik (yoki oraliq) hisobotlar.*

20.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan izlanuvchilar faoliyati bo'yicha davriy hisobotlar taqdim etiladi

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar izlanuvchilar faoliyati bo'yicha hisobotlarni qaysi davriylikda (chorak, yarim yillik, yillik) va qanday tartibda taqdim etadi?*

❖ *Hisobotlarda izlanuvchining individual rejasida belgilangan ilmiy ishlar (dissertatsiya bosqichlari, maqolalar, tajribalar, konferensiyalar) bajarilishi qay darajada aks ettirilgan?*

❖ *Taqdim etilgan davriy hisobotlar asosida izlanuvchi faoliyati bo'yicha qarorlar (davom ettirish, ogohlantirish, tavsiyalar berish) qabul qilinishi mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilar faoliyati bo'yicha Ilmiy rahbar (konsultant)larning taqdim etilgan davriy hisobotlar.*

20.3. INDIKATOR

Izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishi natijalari bo'yicha yig'ilishlar yoki muhokamalar o'tkaziladi

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishi bo'yicha muhokamalar qaysi kollegial organlarda (kafedra, ilmiy seminar, ilmiy kengash) va qanday davriylikda o'tkaziladi?*

❖ *Muhokamalar natijasida izlanuvchining ish rejasi ijrosi bo'yicha qanday xulosalar, tavsiyalar yoki qarorlar qabul qilinadi va ular qayerda qayd etiladi?*

❖ *Izlanuvchining yakka tartibdagi rejasi bajarilishi holati ilmiy rahbar va kafedra (yoki ilmiy bo'lim) tomonidan qanday nazorat qilinadi va hujjatlashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilarning yakka tartibdagi rejasi bajarilishi natijalari bo'yicha o'tkazilgan yig'ilishlar va/yoki muhokamalar bayonnomasi.*

20.4. INDIKATOR**Monitoring natijalari asosida xulosalar va tavsiyalar tayyorlanadi****Yordamchi savollar:**

- ❖ *Ta'lim dasturining amalga oshirilishi bo'yicha o'tkazilgan monitoring natijalari tahlil qilinganmi va ular asosida rasmiy xulosalar ishlab chiqilganmi?*
- ❖ *Monitoring natijalaridan kelib chiqib, ta'lim dasturini takomillashtirishga qaratilgan aniq tavsiyalar shakllantirilganmi?*
- ❖ *Tayyorlangan xulosalar va tavsiyalar mas'ul bo'linmalar tomonidan ko'rib chiqilib, ijro uchun qarorlar yoki chora-tadbirlar bilan mustahkamlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Monitoring natijalari asosida tayyorlangan xulosalar va tavsiyalar.*

20.5. INDIKATOR**Bajarilmagan vazifalar bo'yicha choralar belgilangan va ijro nazorati amalga oshiriladi****Yordamchi savollar:**

- ❖ *Bajarilmagan vazifalar aniqlanganda ularning sabablarini tahlil qilish va rasmiylashtirish mexanizmi mavjudmi?*
- ❖ *Bajarilmagan vazifalar bo'yicha aniq choralar (muddat, mas'ul shaxs, kutilayotgan natija) belgilanganmi va hujjat bilan tasdiqlanganmi?*
- ❖ *Belgilangan choralar ijrosi ustidan doimiy nazorat (monitoring, qayta ko'rib chiqish, hisobot berish) tizimi yo'lga qo'yilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Bajarilmagan vazifalar bo'yicha choralar belgilanganligi va amalga oshirilgan ijro nazorati hujjatlari.*

V. Inson resurslari yo'nalishi

Izoh: Ta'lim tashkiloti kadrlar salohiyatini, pedagog va rahbar xodimlarning malakasi, ilmiy darajasi hamda kasbiy rivojlanishini baholash orqali ta'lim sifati va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat baholanadi.

21. MEZON: Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatining belgilangan talablarga muvofiqligi va ularning rahbarligida so'nggi uch yilda bitirgan izlanuvchilarning o'z vaqtida himoya qilganlari salmog'i

Izoh: Belgilangan talablar asosida baholangan holda, so'nggi uch yilda rahbar (konsultant)lik qilgan izlanuvchilarining dissertatsiyalarini belgilangan muddatlarda himoya qilganlik darajasi orqali ilmiy rahbarlarning samaradorligi o'rganiladi.

21.1. INDIKATOR

Har bir ilmiy rahbar (konsultant) bo'yicha rahbarlik qilgan izlanuvchilar ro'yxati shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda faoliyat yuritayotgan har bir ilmiy rahbar (konsultant) kesimida unga biriktirilgan izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchi) ro'yxati mavjudmi va tizimli shakllantirilganmi?*

❖ *Mazkur ro'yxatda izlanuvchining F.I.Sh., ta'lim turi (PhD/DSc), mutaxassisligi, qabul yili, ilmiy rahbar (konsultant) F.I.Sh. hamda buyruq rekvizitlari to'liq aks ettirilganmi?*

❖ *Ilmiy rahbarlar bo'yicha shakllantirilgan ro'yxat amaldagi buyruqlar, shaxsiy ish hujjatlari va elektron monitoring tizimlari (masalan, oliy ta'limdan keyingi ta'lim platformalari) bilan o'zaro mos keladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida har bir ilmiy rahbar (konsultant) bo'yicha rahbarlik qilgan izlanuvchilar ro'yxati.*

21.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar kesimida izlanuvchilarning so'nggi uch yildagi himoya qilganlik hisoboti yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi uch yil davomida har bir ilmiy rahbar (konsultant) kesimida qaysi izlanuvchilar (PhD/DSc) dissertatsiya ishini muvaffaqiyatli himoya qilganligi bo'yicha alohida hisob yuritiladimi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar bo'yicha himoya natijalari (sana, ilmiy daraja, ixtisoslik, dissertatsiya mavzusi) tizimli ravishda jadval yoki elektron reyestr shaklida shakllantirilganmi?*

❖ *Mazkur hisobotlar asosida ilmiy rahbarlar faoliyatini tahlil qilish, samaradorligini baholash yoki rejalashtirish ishlari (hisobot, ma'lumotnoma, xizmat yozuvi) amalga oshiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant)lar kesimida izlanuvchilarning so'nggi uch yildagi himoya qilganlik hisoboti.*

21.3. INDIKATOR

Izlanuvchilardan belgilangan muddatlarda himoya qilganlar salmog'i hisoblangan

Yordamchi savollar:

❖ *Hisobot davrida (masalan, oxirgi 5 yil) ta'lim dasturi bo'yicha jami nechta izlanuvchi (PhD/DSc) qabul qilingan va ulardan nechta izlanuvchi belgilangan normativ muddatda dissertatsiyasini himoya qilgan?*

❖ *Belgilangan muddat tushunchasi (PhD – 3 yil, DSc – 3 yil yoki normativ hujjatlarga muvofiq) ta'lim dasturida aniq belgilanganmi va ushbu muddatlarga rioya qilinganmi?*

❖ *Himoyani belgilangan muddatda yakunlagan izlanuvchilarning ulushi (foizda) ta'lim dasturining samaradorligini yetarli darajada aks ettiradimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *monitoring.ilmiy.uz yoki tegishli axborot tizimlaridan olingan ma'lumotlar va/yoki statistik ma'lumotnoma (jadval ko'rinishida).*

21.4. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lik samaradorligi bo'yicha tahlil yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbarlar (konsultantlar) faoliyati qaysi mezonlar asosida baholanadi va ushbu mezonlar qanchalik muntazam tahlil qilinadi?*

❖ *Ilmiy rahbarlik samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan tahlil natijalari asosida qanday boshqaruv yoki tashkiliy qarorlar qabul qilingan?*

❖ *Ilmiy rahbarlar faoliyati bo'yicha monitoring va tahlil natijalari oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifatini oshirishga qanday ta'sir ko'rsatmoqda?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezonlari to'g'risidagi ichki me'yoriy hujjat (universitet rektori buyrug'i yoki Ilmiy kengash qarori asosida tasdiqlangan).*

21.5. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati natijalari kollegial organning yig'ilishlarida muhokama qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) tomonidan olib borilayotgan doktorantlar yoki mustaqil izlanuvchilarning ilmiy faoliyati natijalari qaysi kollegial organ yig'ilishlarida muhokama qilingan?*

❖ *Muhokama qilingan masalalar bo'yicha qanday qarorlar yoki tavsiyalar qabul qilingan?*

❖ *Muhokamalar muntazam va reja asosida o'tkazilganmi hamda ularning natijalari rasmiy hujjatlarda aks ettirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Kollegial organning yig'ilish bayyonomalari.

22. MEZON: Ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarining ilmiy rahbarlik (konsultantlik)ka jalb etilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida fan doktorlarining ilmiy rahbar (konsultant) sifatida jalb etilishi, ularning ilmiy salohiyatidan oqilona foydalanish va izlanuvchilarning ilmiy izlanishlariga samarali yo'naltirish jarayonlari o'rganiladi.

22.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan fan doktorlarning ixtisosliklar kesimidagi ilmiy rahbar (konsultant)likka jalb etilgan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ta'lim tashkilotida faoliyat yuritayotgan fan doktorlari qaysi ixtisosliklar bo'yicha doktorantlar (PhD/DSc) uchun ilmiy rahbar yoki ilmiy konsultant sifatida biriktirilgan?
- ❖ Fan doktorlarining ilmiy rahbar (konsultant) sifatida jalb etilishi oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishlari va tasdiqlangan ta'lim dasturlariga mos keladimi?
- ❖ Ilmiy rahbar (konsultant) sifatida jalb etilgan fan doktorlarining soni va tarkibi doktorantlar kontingenti hamda ixtisosliklar kesimida yetarlimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Ilmiy rahbar (konsultant)likka biriktirish to'g'risidagi buyruqlar.

22.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant) sifatida faoliyat yuritayotgan fan doktorlari va izlanuvchilarning ixtisosliklari o'rtasidagi muvofiqlik ta'minlangan

Yordamchi savollar:

- ❖ Ilmiy rahbar (konsultant)ning ilmiy darajasi va ixtisosligi izlanuvchining dissertatsiya mavzusi va ixtisosligiga mos keladimi?
- ❖ Ilmiy rahbar (konsultant)ning so'nggi yillardagi ilmiy faoliyati (maqolalar, loyihalar, monografiyalar) izlanuvchi tadqiqot yo'nalishiga bevosita bog'liqmi?
- ❖ Ilmiy rahbar (konsultant)ning rasmiy hujjatlarda ko'rsatilgan ixtisosligi (diplom, attestat, dissertatsiya himoyasi yo'nalishi) izlanuvchi ixtisosligi bilan mosligi tasdiqlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ Muvofiqlikni tasdiqlovchi hujjatlar, ilmiy rahbar (konsultant) va izlanuvchi biriktirilganligi to'g'risidagi rektor buyrug'i.

22.3. INDIKATOR

Fan doktorlarining ilmiy rahbar (konsultant)lik faoliyati natijalari bo'yicha tahliliy hisobot yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida fan doktorlari tomonidan nechta doktorant va mustaqil izlanuvchiga ilmiy rahbarlik (konsultantlik) amalga oshirilgan va ularning ilmiy natijalari (himoya, maqola, patent) qanday bo'lgan?*

❖ *Ilmiy rahbarlar (konsultantlar) faoliyati samaradorligi bo'yicha qanday mezonlar asosida tahlil o'tkazilgan (himoyalar soni, belgilangan muddatga rioya qilish, nashr faolligi va boshqalar)?*

❖ *Ilmiy rahbarlik faoliyati natijalari asosida qanday boshqaruv yoki tashkiliy qarorlar qabul qilingan (rag'batlantirish, yuklama qayta taqsimoti, cheklov yoki tavsiyalar)?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Fan doktorlarining ilmiy rahbarlik (konsultantlik) faoliyati bo'yicha yillik tahliliy hisobot.*

23. MEZON: Ilmiy rahbar (konsultant)lar tarkibining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijadorligi !

Izoh: *Ilmiy rahbar (konsultant)larning malakasi, ilmiy salohiyati va tashkiliy faoliyati natijadorligi ilmiy daraja, unvon, nashrlar, patentlar hamda loyihalarda ishtiroki asosida baholanadi.*

23.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning so'nggi 3 yildagi chop etilgan ilmiy nashrlari ro'yxati yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'limda ishtirok etayotgan barcha ilmiy rahbar va konsultantlarning so'nggi 3 yil ichida chop etilgan ilmiy nashrlari bo'yicha yagona va tizimli ro'yxat shakllantirilganmi?*

❖ *Mazkur ilmiy nashrlar ro'yxati rasmiy axborot manbalari asosida muntazam yangilanib boriladimi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning nashrlari ularning tayanch mutaxassisligi va rahbarlik qilayotgan dissertatsiya yo'nalishiga mosligi tahlil qilinganmi va hujjatlashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Scopus, Web of Science, Google Scholar va OAK bazalaridan olingan ma'lumotlar.*

23.2. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning amalga oshirgan ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarda ishtiroki ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar oxirgi 3 yil davomida qaysi davlat grantlari, xalqaro loyihalar yoki xo'jalik shartnomalari asosidagi ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarda ishtirok etgan?*

❖ *Mazkur ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarga doktorant (tayanch doktorant, mustaqil izlanuvchi)lar jalb etilganmi va ularning ishtiroki qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtirokidagi ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlar natijasida qanday amaliy yoki ilmiy natijalarga erishilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning amalga oshirgan ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarda ishtiroki to'g'risidagi ma'lumotnomalar.*

23.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar ishtirokida ixtiro yoki seleksiya yutug'i (patent), shuningdek salmoqli ilmiy yangiliklar olgan va impakt-faktori tegishli darajada yuqori va xalqaro tizimga kirgan ilmiy jurnallarda maqolalar (belgilangan talabda) bilan himoya qilingan ishlanmalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorantlar tomonidan ilmiy rahbar (yoki ilmiy konsultant) ishtirokida ixtiro, foydali model, seleksiya yutug'i yoki patent olinganmi va ushbu natijalar dissertatsiya mavzusi bilan bevosita bog'liqmi?*

❖ *Doktorantlarning dissertatsiya ishlari doirasida olingan ilmiy natijalar impakt-faktori mavjud va xalqaro ilmiy bazalarga (Scopus, Web of Science) kiritilgan jurnallarda belgilangan minimal talablar asosida chop etilganmi?*

❖ *Mazkur patentlar va ilmiy maqolalar asosida dissertatsiya ishi muvaffaqiyatli himoya qilinganmi va himoya jarayonida ushbu natijalar rasmiy tarzda tan olinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Patent, seleksiya yutuqlari, DGU va BGU kabi hujjatlar.*

23.4. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligi bo'yicha yillik baholash natijalari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi tasdiqlanganmi va u amalda qo'llaniladimi?*

❖ *So'nggi hisobot yilida ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati bo'yicha rasmiy baholash o'tkazilganmi va natijalari hujjatlashtirilganmi?*

❖ *Baholash natijalari ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirishda (rag'batlantirish, qayta tayyorlash, yuklamani qayta ko'rib chiqish) foydalanilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash tartibi to'g'risida nizom, ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash bo'yicha hisobot, ilmiy kengash yoki mas'ul komissiya bayonnomasi.*

24. MEZON: Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yilgani va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirishning tashkil etilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligini baholash tizimi yo'lga qo'yilganligi, baholash natijalari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish choralari amalga oshirilishi o'rganiladi.*

24.1. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezon va ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash bo'yicha tasdiqlangan mezon va ko'rsatkichlar mavjudmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati qaysi davriylikda va qaysi organ tomonidan baholanadi?*

❖ *Baholash natijalari asosida ilmiy rahbar (konsultant)larga nisbatan rag'batlantirish yoki choralar ko'riladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash tartibi to'g'risida nizom, kengash qarori, ilmiy rahbarlar faoliyatini baholash bo'yicha reyting yoki monitoring jadvali, doktorantlar himoyasi, ilmiy natijalari va muddatlariga oid tahliliy ma'lumotnoma.*

24.2. INDIKATOR

Baholash jarayonini amalga oshirish tartibi (davriyligi, mas'ul tuzilmalar) belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy faoliyatini baholash qaysi hujjat bilan tartibga solingan va baholash qaysi davriylikda amalga oshiriladi?*

❖ *Baholash jarayonini tashkil etish va natijalarini rasmiylashtirish uchun qaysi tarkibiy tuzilmalar va lavozimli shaxslar mas'ul etib belgilangan?*

❖ *Baholash natijalari qanday hujjatlar bilan rasmiylashtiriladi va ular asosida qanday boshqaruv qarorlari qabul qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risidagi nizom, doktorantlar (PhD/DSc) ilmiy faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi ichki reglament yoki yo'riqnoma.*

24.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati bo'yicha yillik yoki yarim yillik baholash natijalari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash bo'yicha tasdiqlangan tartib yoki ichki nizom mavjudmi?*

❖ *So'nggi yil (yoki yarim yillik) uchun ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati bo'yicha rasmiy baholash o'tkazilganmi va uning natijalari rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Baholash natijalari asosida tegishli boshqaruv qarorlari (rag'batlantirish, ogohlantirish, tavsiyalar) qabul qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *"Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash tartibi to'g'risida"gi ichki nizom, ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash bo'yicha yillik (yoki yarim yillik) hisobot, ilmiy kengash va/yoki tegishli komissiya yig'ilishi bayonnomasi.*

24.4. INDIKATOR

Baholash natijalari asosida rag'batlantirish yoki takliflar kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorantlar va ilmiy rahbarlar faoliyati qanday mezonlar asosida baholanadi va bu mezonlar qayerda tasdiqlangan?*

❖ *Baholash natijalari asosida kimlarga, qachon va qanday shaklda rag'batlantirish yoki takliflar kiritilgan?*

❖ *Baholash yakunlari qaysi kollegial organlarda ko'rib chiqiladi va qarorlar qanday rasmiylashtiriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Rektor (yoki direktor) buyrug'i, rag'batlantirilgan shaxslar ro'yxati, baholash natijalari bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma.*

24.5. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligi bo'yicha moddiy va ma'naviy rag'batlantirish tizimi amalda yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezonlari va tartibi tasdiqlanganmi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larga faoliyati samaradorligiga ko'ra moddiy yoki ma'naviy rag'batlar berilganligi bo'yicha amaliy misollar mavjudmi?*

❖ *Rag'batlantirish jarayoni rasmiy hujjatlar va buyruqlar asosida tizimli ravishda amalga oshiriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Oliy ta'limdan keyingi ta'limda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash va rag'batlantirish tartibi to'g'risida Nizom, mukofotlash (ustama, bir martalik rag'bat) bo'yicha buyruq yoki moliyaviy hujjat nusxasi, Ilmiy kengash bayonnomasi.*

25. O'z vaqtida himoya qilmagan tadqiqotchilar bilan olib borilgan ishlar, nazorat tadbirlari va samaradorligi, ilmiy rahbar hamda maslahatchilarga choralar ko'rilgani

Izoh: *O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar bilan tizimli ish olib borish, nazorat tadbirlarini o'tkazish, natijalarni tahlil qilish hamda ilmiy rahbar va maslahatchilarga nisbatan tegishli choralar belgilash jarayonlari o'rganiladi.*

25.1. INDIKATOR

O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ro'yxati shakllantirilgan va ular bo'yicha tahlil yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *O'z vaqtida dissertatsiya himoya qilmagan izlanuvchilar (PhD/DSc) ro'yxati tasdiqlangan tartibda shakllantirilganmi va u muntazam yangilanib boriladimi?*

❖ *Himoya muddati kechikishining asosiy sabablari tahlil qilinganmi?*

❖ *O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar muammolarini bartaraf etishga qaratilgan choralar ishlab chiqilganmi va ijrosi nazorat qilinadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida o'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ro'yxati va ular bo'yicha tahlili ma'lumot.*

25.2. INDIKATOR

O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar bilan olib borilgan tushuntirish, maslahat va yordam tadbirlari mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *O'z vaqtida dissertatsiya himoyasini amalga oshirmagan izlanuvchilar ro'yxati shakllantirilganmi va u doimiy monitoring qilinadimi?*
- ❖ *Mazkur izlanuvchilar bilan individual yoki guruh shaklida tushuntirish, maslahat va metodik yordam ishlari olib borilganmi?*
- ❖ *Ko'rilgan choralar natijasida izlanuvchilarning himoyaga tayyorgarlik darajasi yoki muddatlari qayta belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ro'yxati, tushuntirish va maslahat uchrashuvlari bayonnomalari, ilmiy rahbarlarning xulosalari va tavsiyalari, individual ish rejalari yoki qayta tasdiqlangan kalendar reja, maslahat va metodik yordam ko'rsatilganini tasdiqlovchi materiallar.*

25.3. INDIKATOR

Ilmiy rahbar (konsultant)larning mas'uliyatini baholash yoki ularga nisbatan choralar ko'rish amaliyoti mavjud

Yordamchi savollar:

- ❖ *Ilmiy rahbarlarning doktorant faoliyatidagi mas'uliyati va majburiyatlari qaysi ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilangan va ular qanday baholanadi?*
- ❖ *Ilmiy rahbar tomonidan belgilangan vazifalar bajarilmagan yoki doktorantning ilmiy faoliyati sust bo'lgan holatlarda rahbar faoliyati tahlil qilinishi va baholanishi amaliyoti mavjudmi?*
- ❖ *Ilmiy rahbar (konsultant) tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar aniqlanganda ularga nisbatan ogohlantirish, cheklov yoki boshqa intizomiy choralar qo'llash mexanizmi amalda ishlaydimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini tashkil etish va baholash tartibi to'g'risida ichki hujjat, ilmiy kengash bayonnomalari, ilmiy rahbarlarga nisbatan ogohlantirish yoki cheklov qo'llanganligi to'g'risidagi buyruqlar, ilmiy rahbarlar faoliyatini monitoring qilish bo'yicha ichki hisobot va/yoki ma'lumotnoma.*

25.4. INDIKATOR

Izlanuvchilar bilan individual reja yoki qayta ish rejasi ishlab chiqilgan va bajarilishi nazorat qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Har bir izlanuvchi (PhD/DSc) uchun tasdiqlangan individual reja yoki qayta ish rejasi mavjudmi va u ilmiy rahbar hamda tashkilot tomonidan rasmiylashtirilganmi?*

❖ *Individual reja yoki qayta ish rejasi ijrosining monitoringi muntazam amalga oshiriladimi?*

❖ *Reja bajarilmagan yoki kechikkan hollarda qayta ish rejasi ishlab chiqilib, tegishli buyruq yoki bayonnoma asosida tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchining individual ish rejasi, qayta ish rejasi (zarurat bo'lganda), ilmiy seminar, kafedra va/yoki laboratoriya yig'ilishi bayonnomalari, ilmiy rahbarning yozma xulosasi yoki monitoring hisobotlari, tashkilot rahbarining buyruqlari, izlanuvchining yillik (oraliq) hisobotlari.*

25.5. INDIKATOR

O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilar ulushi yillar kesimida tahlil qilinib, samaradorlik ko'rsatkichlari aniqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3–5 yil kesimida oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichida tahsil olayotgan izlanuvchilarning nechta foizi belgilangan muddatda dissertatsiyasini himoya qilmagan?*

❖ *O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilarning asosiy sabablari qanday omillar bilan izohlanadi?*

❖ *Ushbu holatni kamaytirish va ta'lim dasturlari samaradorligini oshirish bo'yicha qanday tizimli choralar ko'rilgan va ularning natijalari qanday?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'z vaqtida himoya qilmagan izlanuvchilarning yillar kesimida ulushini belgilab beruvchi ma'lumotnoma va samaradorlik ko'rsatkichlari.*

VI. Ilmiy-tadqiqot ishlari yo'nalishi

Izoh: *Ilmiy rahbar(konsultant) va izlanuvchilar salohiyatini oshirish, ilmiy natijalarni amaliyotga joriy etish, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish hamda zarur infratuzilma va monitoring tizimlari samaradorligini ta'minlashga qaratilgan faoliyat baholanadi.*

26. MEZON: Xalqaro miqyosda va respublika miqyosidagi ilmiy-metodik va amaliy anjumanlar o'tkazilgani

Izoh: *Ilmiy tadqiqot samaradorligini oshirish va hamkorlikni kengaytirish maqsadida xalqaro hamda respublika miqyosida ilmiy-metodik va amaliy anjumanlarni muntazam tashkil etish jarayoni o'rganiladi.*

26.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti tomonidan xalqaro va respublika miqyosidagi anjumanlar o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Hisobot davrida ta'lim tashkiloti tashabbusi bilan nechta xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjuman, konferensiya, seminar yoki forumlar o'tkazilgan?*

❖ *O'tkazilgan anjumanlarda xorijiy va respublika miqyosidagi yetakchi olimlar, ilmiy tashkilotlar yoki oliy ta'lim tashkilotlari vakillari ishtirok etganmi?*

❖ *Mazkur anjumanlar doirasida oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) bilan bog'liq ilmiy muhokamalar, ma'ruzalar yoki ilmiy natijalar taqdimotlari amalga oshirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkiloti rahbarining anjumanni o'tkazish to'g'risidagi buyrug'i va xalqaro va respublika miqyosidagi o'tkazilgan anjumanlar ro'yxati.*

26.2. INDIKATOR

Anjumanlar yo'nalishi va mavzulari ilmiy-tadqiqot yo'nalishlariga mos

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda o'tkazilgan ilmiy anjumanlarning asosiy yo'nalish va mavzulari tasdiqlangan ilmiy-tadqiqot yo'nalishlari bilan qanchalik mos keladi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar doktorantura, tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilarning ilmiy tadqiqot mavzulari bilan qanday bog'langan?*

❖ *Ilmiy anjumanlar mavzularini shakllantirishda kafedra, ilmiy bo'lim yoki laboratoriyalarning ustuvor ilmiy yo'nalishlari qay darajada inobatga olingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy anjuman mavzularining ilmiy-tadqiqot yo'nalishlariga mosligi bo'yicha tahliliy ma'lumotnoma.*

26.3. INDIKATOR

Anjumanlarda ilmiy izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, xodimlar, tizim tashkilotlari va xorijiy tashkilotlar ishtirok etgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi hisobot davrida oliy ta'limdan keyingi ta'lim doirasida ilmiy izlanuvchilar va ularning ilmiy rahbarlari ishtirok etgan respublika va xalqaro ilmiy anjumanlar soni va turi qanday?*

❖ *Mazkur anjumanlarda tizim tashkilotlari (vazirlik, ilmiy markazlar, ishlab chiqarish korxonalari) hamda xorijiy tashkilotlar vakillari ishtirok etganmi va bu ishtirok qanday shaklda (ma'ruza, hamkorlik memorandumi, panel muhokama) amalga oshirilgan?*

❖ *Ilmiy izlanuvchilarning anjumanlardagi ishtiroki dissertatsiya mavzulari, ilmiy natijalar va xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga qanday amaliy natija bergan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ishtirokchilar tarkibini tasdiqlovchi ma'lumotlar.*

26.4. INDIKATOR

Anjuman materiallari (tezislar, maqolalar to'plami) nashr etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida ta'lim dasturi doirasida doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar yoki ilmiy rahbarlar ishtirokida ilmiy anjumanlar o'tkazilganmi yoki ularda ishtirok etilganmi?*

❖ *Ushbu anjumanlar natijasida tezislar yoki maqolalar to'plami (bosma yoki elektron shaklda) rasman nashr etilganmi va ular ISBN/ISSN yoki rasmiy chiqish ma'lumotlariga egami?*

❖ *Nashr etilgan anjuman materiallarida mazkur ta'lim dasturi bo'yicha tahsil olayotgan shaxslar (PhD/DSc/doktorant)ning muallifligi yoki hammuallifligi aniq ko'rsatilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Konferensiya to'plami.*

26.5. INDIKATOR

Anjumanlar natijasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, tavsiyalar yoki amaliy takliflar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy anjuman (konferensiya, seminar, forum) yakunlari bo'yicha rasmiy qaror, rezolyutsiya yoki tavsiyalar hujjati qabul qilinganmi?*

❖ *Qabul qilingan qaror yoki tavsiyalarda doktorantlar (PhD/DSc) tayyorlash, ilmiy tadqiqot yo'nalishlari yoki ta'lim dasturlarini takomillashtirishga oid aniq amaliy takliflar mavjudmi?*

❖ *Mazkur qaror va tavsiyalar ta'lim yoki ilmiy jarayonlarga joriy etilganligi (yoki joriy etish rejalashtirilganligi) bo'yicha dalillar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Anjumanlar natijasi bo'yicha qabul qilingan qarorlar, tavsiyalar yoki amaliy takliflar.*

26.6. INDIKATOR

Anjumanlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligiga ta'siri bo'yicha tahlil yoki hisobot mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha o'tkazilgan ilmiy anjumanlar (xalqaro, respublika, hududiy) natijalari ilmiy-tadqiqot faoliyatiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinganmi?*

❖ *Anjumanlarda ishtirok etgan doktorantlar va ilmiy xodimlarning ilmiy faolligi (maqola chop etilishi, hamkorlik, grantlar) o'sishi bo'yicha tahliliy ma'lumotlar mavjudmi?*

❖ *Ilmiy anjumanlar natijasida shakllangan taklif va xulosalar ilmiy-tadqiqot rejalariga yoki ta'lim dasturlariga integratsiya qilinganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida o'tkazilgan anjumanlarning ilmiy-tadqiqot faoliyati samaradorligiga ta'siri bo'yicha tahlil va/yoki hisobot shaklidagi ma'lumot.*

27. MEZON: Ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirishda korxona va tashkilotlar bilan tadqiqot natijalarini tatbiq etish yo'nalishida hamkorlik yo'lga qo'yilgani

Izoh: *Tadqiqot natijalarini amaliyotga tatbiq etish maqsadida mahalliy va xorijiy korxona hamda tashkilotlar bilan ilmiy hamkorlik yo'lga qo'yilib, innovatsion loyihalar va tajriba-sinov ishlari amalga oshirilishi o'rganiladi.*

27.1. INDIKATOR

Tashkilotlar bilan hamkorlik bo'yicha imzolangan shartnomalar va amal qilish muddatlari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilot tomonidan doktorantura (PhD/DSc) ta'lim dasturlarini amalga oshirish jarayonida mahalliy yoki xorijiy tashkilotlar bilan rasmiy hamkorlik shartnomalari (memorandum, bitim, kelishuv) imzolanganmi?*

❖ *Imzolangan hamkorlik shartnomalarida ta'lim, ilmiy tadqiqot, ilmiy rahbarlik, stajirovka, qo'shma loyiha yoki akademik almashinuv kabi yo'nalishlar aniq belgilanganmi?*

❖ *Hamkorlik shartnomalarining amal qilish muddati (boshlanish va tugash sanalari) aniq ko'rsatilgan va hozirgi kunda amalda (yoki yangilangan) ekanligi hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Imzolangan shartnomalar va reyestri.*

27.2. INDIKATOR

Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda so'nggi 3–5 yil davomida PhD/DSc ta'lim dasturlari bilan bog'liq holda amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot yoki innovatsion loyihalar mavjudmi?*

❖ *Mazkur loyihalarda doktorantlar (PhD, DSc) va mustaqil izlanuvchilarning bevosita ishtiroki ta'minlanganmi?*

❖ *Ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar natijalari ilmiy yoki amaliy jihatdan rasmiylashtirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *KPI tizimi bo'yicha ichki hujjat(lar).*
- ✓ *Ilmiy-tadqiqot va innovatsion loyihalar reyestri, davlat ilmiy-texnik dasturlari yoki grant loyihalari shartnomalari, xo'jalik shartnomalari asosidagi ilmiy-tadqiqot ishlari shartnomalari.*

27.3. INDIKATOR

Ilmiy natijalarni tatbiq etish bo'yicha dalolatnomalar, bayonnomalar yoki tasdiqlovchi hujjatlar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy tadqiqot natijalari qaysi tashkilot, korxona yoki muassasa faoliyatiga tatbiq etilgan?*

❖ *Ilmiy natijaning aynan qaysi qismi amaliyotga joriy etilgan va undan qanday foyda olingan?*

❖ *Tatbiq etish jarayoni va natijalari rasmiy hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

- ✓ *Ilmiy natijalarni tatbiq etish bo'yicha dalolatnomalar, bayonnomalar yoki tasdiqlovchi hujjatlar mavjudligi.*

27.4. INDIKATOR

Hamkor tashkilotlar ishtirokida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar, seminarlar yoki taqdimotlar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Qaysi mahalliy yoki xorijiy hamkor tashkilotlar bilan so'nggi 3 yil davomida ilmiy anjuman, seminar yoki taqdimotlar birgalikda tashkil etilgan?

❖ Hamkor tashkilotlar ishtirokida o'tkazilgan tadbirlar qanday shaklda (xalqaro konferensiya, respublika seminari, ilmiy taqdimot, vebinar va boshqalar) va qaysi yo'nalishlarda o'tkazilgan?

❖ Ushbu tadbirlarda doktorantlar (PhD/DSc), mustaqil izlanuvchilar yoki ilmiy rahbarlarning ishtiroki qanday ta'minlangan va bu qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Hamkor tashkilotlar ishtirokida o'tkazilgan ilmiy anjumanlar ro'yxati va tashkilot rahbarining buyrug'i.

28. MEZON: Ta'lim tashkilotining tegishli sohalarda mahalliy va xalqaro ilmiy grant tanlovlarida ishtirok etgani hamda uning natijadorligi

Izoh: Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant)larning ilmiy-tadqiqot faoliyati va xalqaro mobilligini qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratilganligi, ilmiy ishlanmalarning amaliy qo'llanilishi, tijoratlashuvi va patentlanish jarayonlari baholanadi.

28.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkiloti ilmiy rahbar (konsultant) va izlanuvchilari tomonidan mahalliy hamda xalqaro ilmiy grant tanlovlarida muntazam ishtirok etish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotida izlanuvchilar va ilmiy rahbarlarni mahalliy hamda xalqaro ilmiy grant tanlovlariga jalb etish bo'yicha ichki mexanizmlar (e'lon berish, maslahat, hujjat tayyorlashga ko'mak) mavjudmi?

❖ So'nggi 3 yil davomida izlanuvchilar va ilmiy rahbarlar tomonidan qanday ilmiy grant tanlovlarida ishtirok etilgan va natijalari qanday bo'lgan?

❖ Ilmiy grantlar bo'yicha axborotlarni yetkazish, konsultatsiya berish va loyiha tayyorlashda ilmiy bo'lim yoki mas'ul tuzilma faoliyat olib boradimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Mahalliy va xalqaro ilmiy grant tanlovlariga izlanuvchilar hamda ilmiy rahbarlar ishtirok to'g'risida ma'lumot.

28.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ilmiy rahbar (konsultant) va izlanuvchilarining ilmiy-innovatsion faoliyatini rivojlantirish bo'yicha o'quv-seminarlar, treninglar va master-klasslar o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Hisobot davrida ilmiy rahbarlar va izlanuvchilar ishtirokida ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishga qaratilgan qanday o'quv-seminarlar, treninglar yoki master-klasslar o'tkazilgan?*

❖ *Mazkur tadbirlarda qaysi toifadagi ishtirokchilar qatnashgan va ularning umumiy soni nechta bo'lgan?*

❖ *O'tkazilgan seminar va treninglar natijasida ilmiy-innovatsion faoliyatda qanday amaliy natijalarga erishilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Seminar va treninglar o'tkazish bo'yicha tasdiqlangan yillik reja, tadbirlarni tashkil etish haqidagi buyruq yoki farmoyish hamda ishtirokchilar ro'yxati va o'tkazilgan tadbirlar bo'yicha qisqa hisobot*

28.3. INDIKATOR

Davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va "Startup" loyihalari mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda so'nggi 3 yil davomida davlat buyurtmasi asosida moliyalashtirilgan ilmiy-tadqiqot va/yoki startup loyihalari mavjudmi?*

❖ *Mazkur loyihalarda doktorantlar (PhD/DSc), mustaqil izlanuvchilar yoki yosh tadqiqotchilarning ishtiroki ta'minlanganmi?*

❖ *Davlat buyurtmasi asosidagi loyihalar natijalari amaliyotga joriy etilgan yoki tijoratlashtirish bosqichiga olib chiqilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida davlat buyurtmasi asosida amalga oshiriladigan ilmiy-tadqiqot va "Startup" loyihalari ro'yxati.*

28.4. INDIKATOR

Xalqaro ilmiy fondlar, dasturlar va donor tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilgan grantlar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3–5 yil davomida tashkilotda qaysi xalqaro ilmiy fondlar, dasturlar yoki donor tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilgan grant loyihalari amalga oshirilgan yoki hozirda bajarilmoqda?*

❖ *Ushbu grant loyihalarida oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilar ishtirok etganmi va ularning ilmiy faoliyatiga ta'siri qanday bo'lgan?*

❖ *Xalqaro grantlar doirasida olingan mablag'lar qaysi yo'nalishlarga (ilmiy tadqiqot, laboratoriya jihozlari, stajirovka, nashrlar, akademik mobillik va boshqalar) yo'naltirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida xalqaro ilmiy fondlar, dasturlar va donor tashkilotlari tomonidan moliyalashtirilgan grantlar.*

28.5. INDIKATOR

Yutib olingan grantlar ta'lim tashkilotining ustuvor ilmiy yo'nalishlariga mos bo'lib, ularning natijalari ishlab chiqarish hamda o'quv jarayoniga joriy etilgan, shuningdek tegishli ta'lim dasturlarini rivojlantirish va takomillashtirish jarayoniga bevosita integratsiya qilingan

Yordamchi savollar:

❖ *Yutib olingan grant loyihalari ta'lim tashkilotining tasdiqlangan ustuvor ilmiy yo'nalishlariga qanchalik mos keladi va bu moslik qaysi rasmiy hujjatlar bilan asoslanadi?*

❖ *Grant loyihalari doirasida olingan ilmiy natijalar qaysi ishlab chiqarish obyektlarida yoki o'quv jarayonida joriy etilgan va bu jarayon qanday hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Grant loyihalari natijalari doktorantura (PhD/DSc), magistratura yoki boshqa oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlarini rivojlantirish va takomillashtirishga qanday integratsiya qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yutib olingan grant loyihalari reyestri, grant shartnomalari va moliyalashtirish hujjatlari nusxalari, ilmiy natijalarni ishlab chiqarishga joriy etish dalolatnomalari, o'quv jarayoniga joriy etilgan natijalar bo'yicha kafedra bayonnomalari, ta'lim dasturlariga kiritilgan o'zgartirishlar to'g'risidagi hujjatlar, grant loyihalari asosida tayyorlangan dissertatsiyalar va ilmiy ishlar ro'yxati.*

28.6. INDIKATOR

Grant loyihalari doirasida ilmiy-tadqiqotlar olib borilib, ularning natijasida ilmiy maqolalar, patentlar, monografiyalar, yangi texnologiyalar hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan va joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3–5 yil davomida tashkilotda qaysi davlat, xalqaro yoki xo'jalik shartnomasi asosidagi grant loyihalari amalga oshirilgan va ularning asosiy ilmiy natijalari nimalardan iborat?*

❖ *Mazkur grant loyihalari doirasida olingan natijalar (ilmiy maqola, patent, monografiya, texnologiya yoki amaliy tavsiya) qayerda va qanday shaklda joriy etilgan yoki amaliyotga tatbiq qilingan?*

❖ *Grant loyihalari natijalari oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilarning dissertatsiya ishlari, ilmiy nashrlari va innovatsion faoliyatida qanday aks etgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Grant loyihalari doirasida nashr qilingan ilmiy maqolalar ro'yxati va nusxalari, patent va foydali model hujjatlari, monografiya va ilmiy to'plamlar, texnologiya yoki amaliy tavsiyalarni joriy etish dalolatnomalari, dissertatsiya ishlari bilan bog'liqligini ko'rsatuvchi ma'lumotnoma.*

29. MEZON: Mahalliy hamda xalqaro axborot va ma'lumotlar bazasidan (Scopus, Web of Science yoki boshqa umume'tirof etilgan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari jurnallari) (bundan buyon matnda indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalari deb yuritiladi) foydalanish imkoniyatlarining yaratilgani !

Izoh: *Ta'lim tashkilotida Scopus, Web of Science va boshqa xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlari yaratilganligi, ulardan samarali foydalanish uchun metodik ko'mak tizimi yo'lga qo'yilganligi, foydalanish samaradorligini baholash hamda dolzarb ilmiy manbalar ro'yxatining yangilanib borilishi baholanadi.*

29.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyati mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim tashkilotida qaysi indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan (masalan, Scopus, Web of Science, IEEE, Springer va boshqalar) foydalanish imkoniyati yaratilgan?*

❖ *Mazkur indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan izlanuvchilar va Ilmiy rahbarlarning foydalanish tartibi va sharoitlari qanday hujjatlar bilan belgilangan?*

❖ *Indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish darajasi va ularning ilmiy hamda ta'lim faoliyatiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Foydalanish imkoniyati mavjudligi haqidagi ma'lumot(lar).*

29.2. INDIKATOR

Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha ko'rsatmalar (yo'riqnomalar) ishlab chiqilgan hamda o'quv-seminarlar va treninglar o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot resurslaridan, jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha qanday yo'riqnomalar (ko'rsatmalar) ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur yo'riqnomalar asosida o'quv-seminarlar va treninglar kimlar uchun, qanday mavzular bo'yicha va qanday davriylikda tashkil etilgan?*

❖ *O'tkazilgan seminar va treninglarning axborot resurslaridan foydalanish ko'nikmalarini oshirishga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish bo'yicha ichki hujjat;*

✓ *O'tkazilgan o'quv seminar va treninglar to'g'risida ma'lumot.*

29.3. INDIKATOR

Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar uchun indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati (IP manzil, login, korporativ akkaunt yoki boshqalar) yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy izlanuvchilar uchun qaysi indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati (IP manzil, login, korporativ akkaunt yoki boshqalar) yaratilgan?*

❖ *Mazkur kirish imkoniyatlarini taqdim etish, boshqarish va axborot xavfsizligini ta'minlash qanday tartib va mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyatlaridan foydalanish darajasi va ularning ilmiy hamda ta'lim faoliyatiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ma'lumot bazalari veb-sahifalari (IP manzil, login, korporativ akkaunt).*

29.4. INDIKATOR

Ilmiy maqolalar indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida chop etilgan hamda chop etilgan ilmiy maqolalar va ularga iqtiboslik ko'rsatkichlari bo'yicha izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar kesimida tahlillar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy izlanuvchilar tomonidan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalarida qaysi ilmiy maqolalar chop etilgan?*

❖ *Chop etilgan ilmiy maqolalar va ularga iqtiboslik ko'rsatkichlarini tahlil qilishda qaysi ma'lumotlar bazalari va mezonlardan foydalanilgan?*

❖ *Ilmiy maqolalar va iqtiboslik ko'rsatkichlari bo'yicha o'tkazilgan tahlillar natijalari ilmiy faoliyatni rivojlantirish va rag'batlantirish siyosatida qanday inobatga olingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yuritilgan tahliliy ma'lumotlar va tegishli jadvallar.*

29.5. INDIKATOR

Ilmiy natijalari xalqaro darajada tan olinishini belgilovchi ko'rsatkich "Xirsh" indeksi (h-indeks) besh va undan yuqori bo'lgan izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar bo'yicha tahlillar yuritilgan hamda ularni moddiy rag'batlantirib borish tizimi joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Xirsh indeksi (h-indeks) besh va undan yuqori bo'lgan izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)larni aniqlash va hisobga olish qanday tartibda amalga oshirilgan?*

❖ *Mazkur toifadagi ilmiy izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar bo'yicha tahlillar qaysi ma'lumotlar bazalari va ko'rsatkichlar asosida yuritilgan?*

❖ *Xirsh indeksi yuqori bo'lgan izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar ni moddiy rag'batlantirish tizimi qanday mexanizmlar orqali joriy etilgan va uning samaradorligi qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Yuritilgan tahliliy ma'lumotlar va ilmiy faoliyat natijalarini baholash hamda moddiy rag'batlantirish to'g'risidagi ichki hujjat(lar).*

29.6. INDIKATOR

Axborot resurslaridan, shu jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha tahlil olib borilgan va hisobotlar yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Axborot resurslaridan, jumladan indeksatsiyalangan ma'lumotlar bazalaridan foydalanish samaradorligi qanday mezon va ko'rsatkichlar asosida tahlil qilingan?*

❖ *Foydalanish samaradorligini baholash jarayonida qaysi statistik ma'lumotlar (kirishlar soni, yuklab olishlar, foydalanuvchilar toifalari va boshqalar) tahlil qilingan hamda ushbu ma'lumotlar qanday manbalardan olingan?*

❖ *O'tkazilgan tahlil natijalari asosida axborot resurslaridan foydalanishni takomillashtirish bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan va ular qanday hisobotlar hamda hujjatlar bilan rasmiylashtirilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Yuritilgan tahliliy ma'lumotlar va tegishli jadvallar.

30. MEZON: Ilmiy-noshirlik faoliyatida ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha axborot tizimining joriy etilgani hamda doimiy hisobotlarning yuritilishi

Izoh: Ta'lim tashkilotida plagiatni aniqlash bo'yicha axborot tizimi joriy etilganligi, ilmiy ishlar muntazam tekshirilib borilishi, natijalar asosida hisobotlar yuritilishi va zarur choralar ko'rilishi o'rganiladi va baholanadi.

30.1. INDIKATOR

Ilmiy-noshirlik faoliyatida antiplagiat tizimi joriy etilgan*

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy-noshirlik faoliyatida qaysi antiplagiat tizimi joriy etilgan va uning qo'llanish tartibi qanday hujjatlar bilan belgilangan?

❖ Ilmiy ishlar va nashrlarni antiplagiat tekshiruvidan o'tkazish jarayoni qanday bosqichlarda va kimlar mas'uliyatida amalga oshiriladi?

❖ Antiplagiat tizimi qo'llanilishining samaradorligi va akademik halollikni ta'minlashga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Anti-plagiat tizimi joriy etilganligi haqida ma'lumot.

30.2. INDIKATOR

Ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ Ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha ichki tartib (yo'riqnoma) qaysi normativ-huquqiy asoslarda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?

❖ Mazkur ichki tartibda ko'chirmachilikni aniqlash, hujjatlashtirish va ko'rib chiqish jarayonlari qanday aniq tartib va mezonlar asosida belgilangan?

❖ Ichki tartib (yo'riqnoma) talablariga rioya etilishi va uning amalda qo'llanilishi qanday monitoring va nazorat mexanizmlari orqali ta'minlanadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Anti-plagiat tizimi bo'yicha rasmiy joriy etilgan tartib (yo'riqnoma).

30.3. INDIKATOR

Barcha dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va tezlarni antiplagiat tizimi orqali tekshirish yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Barcha dissertatsiyalar, monografiyalar, ilmiy maqolalar va tezislarni antiplagiat tizimi orqali tekshirish qanday tartib va hujjatlar asosida yo'lga qo'yilgan?*

❖ *Antiplagiat tekshiruvlarini o'tkazish bosqichlari, mas'ul shaxslar va natijalarni rasmiylashtirish tartibi qanday belgilangan?*

❖ *Antiplagiat tekshiruvlari natijalari asosida aniqlangan holatlar bo'yicha qanday choralar ko'riladi va bu jarayon qanday monitoring qilinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Anti-plagiat dasturida tekshiruv yo'lga qo'yilganligi haqida ma'lumot.*

30.4. INDIKATOR

Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlar shakllantirilgan hamda ma'lumotlar bazasi yuritilgan

Tekshiruv natijalari bo'yicha hisobotlar shakllantirilgan hamda ma'lumotlar bazasi yuritilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Antiplagiat va (yoki) ko'chirmachilikni aniqlash bo'yicha tekshiruv natijalari asosida hisobotlar qanday tartibda shakllantirilgan?*

❖ *Tekshiruv natijalari bo'yicha ma'lumotlar bazasini yuritish (saqlash, yangilash, tizimlashtirish) qanday mexanizmlar orqali amalga oshiriladi?*

❖ *Shakllantirilgan hisobotlar va ma'lumotlar bazasi asosida akademik halollikni ta'minlash va ilmiy-noshirlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha qanday boshqaruv qarorlari qabul qilingan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Anti-plagiat dasturidan o'tkazilgan tekshiruv hisobotlari.*

30.5. INDIKATOR

Plagiat holatlarini tahlil qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Plagiat holatlarini tahlil qilish va oldini olish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi qanday tartibda ishlab chiqilgan va qaysi hujjatlar bilan tasdiqlangan?*

❖ *Mazkur reja doirasida plagiat holatlarini aniqlash, tahlil qilish va profilaktika qilish bo'yicha qanday aniq chora-tadbirlar belgilangan?*

❖ *Chora-tadbirlar rejasining ijrosi va plagiat holatlarining kamayishiga ta'siri qanday monitoring va baholash mexanizmlari orqali aniqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Chora-tadbirlar rejasi va uning ijrosi.*

30.6. INDIKATOR

Ilmiy ishlarning o'rtacha o'xshashlik foizi va tendensiyalari bo'yicha yillik hisobotlari tayyorlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy ishlarning o'rtacha o'xshashlik foizi va uning yillik dinamikasini aniqlash qanday tartibda amalga oshirilgan?*

❖ *Yillik hisobotlarda ilmiy ishlar bo'yicha o'xshashlik foizlari va ularning tendensiyalarini tahlil qilishda qanday ma'lumotlar va mezonlardan foydalanilgan?*

❖ *Tayyorlangan yillik hisobotlar natijalari asosida o'xshashlik darajasini kamaytirish va akademik halollikni mustahkamlash bo'yicha qanday chora-tadbirlar belgilangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Antiplagiatga tekshirish natijalari bo'yicha yillik tahliliy hisobotlar*

VII. Tadqiqotchilarni qo'llab-quvvatlash yo'nalishi

Izoh: *Tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini tahlil qilish, ta'lim va karyera bo'yicha maslahat va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini tashkil etish, ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan va iqtidorli tadqiqotchilar uchun shart-sharoit yaratish hamda yoshlar bilan ishlash samaradorligini oshirish va huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan faoliyat baholanadi.*

31. MEZON: Ta'lim xizmatlari yuzasidan tadqiqotchilarning fikr-mulohazalarini monitoring qilinishi va uning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida tadqiqotchilarning ta'lim sifati haqidagi fikr-mulohazalari muntazam o'rganilib, ularning natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish choralari ko'rilishi o'rganiladi va baholanadi.*

31.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar qoniqishini aniqlashga qaratilgan muntazam so'rovnomalar o'tkaziladi

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar (PhD, DSc, mustaqil izlanuvchilar) qoniqish darajasini aniqlash maqsadida so'rovnomalar qanchalik muntazam o'tkaziladi (yiliga necha marta)?*

❖ *So'rovnoma savollari ilmiy rahbarlik sifati, ilmiy infratuzilma, ta'lim jarayoni va ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlash masalalarini qamrab olganmi?*

❖ *So'rovnoma natijalari tahlil qilinib, ular asosida ta'lim jarayoni yoki ilmiy faoliyatni takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'riladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilar qoniqishini aniqlash bo'yicha o'tkazilgan so'rovnomalar to'g'risida ma'lumot.*

31.2. INDIKATOR

Fikr-mulohazalarni yig'ishda onlayn va an'anaviy usullardan foydalaniladi

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim oluvchilar, ilmiy rahbarlar va ilmiy rahbar (konsultant)lardan fikr-mulohazalarni yig'ish uchun qaysi onlayn platformalar va an'anaviy shakllardan foydalaniladi?*

❖ *Fikr-mulohazalarni yig'ish jarayonining davriyligi va mas'ul bo'linma (yoki mas'ul shaxs) qanday belgilangan?*

❖ *Yig'ilgan fikr-mulohazalar tahlil qilinib, ta'lim dasturlarini takomillashtirishda qanday tarzda inobatga olinadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Onlayn so'rovnomalar namunasi va havolalarining mavjudligi to'g'risidagi ma'lumot.*

31.3. INDIKATOR

Izlanuvchilar fikrlarini tahlil qilish bo'yicha mas'ul komissiya yoki guruh faoliyati yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar fikrlarini yig'ish va tahlil qilish uchun mas'ul komissiya yoki ishchi guruh tashkil etilganmi va uning tarkibi hamda vakolatlari rasmiy hujjat bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Izlanuvchilar fikrlarini yig'ish (so'rovnoma, anketa, murojaatlar, uchrashuvlar) va ularni tahlil qilish jarayoni qanchalik muntazam va hujjatlashtirilgan holda olib boriladi?*

❖ *Izlanuvchilar fikrlarini tahlil qilish natijalari asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilgan va ijroga yo'naltirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Komissiya (ishchi guruh) to'g'risidagi tarkibi tasdiqlovchi hujjat.*

31.4. INDIKATOR

So'rov natijalari bo'yicha tahliliy hisobotlar tayyorlanadi va mas'ul bo'linma(lar)ga taqdim etiladi

Yordamchi savollar:

❖ *So'rovlar qaysi maqsadda va kimlar o'rtasida o'tkazilgan?*

❖ *So'rov natijalari asosida qanday tahliliy xulosalar va tavsiyalar ishlab chiqilgan?*

❖ *Tayyorlangan tahliliy hisobotlar qaysi mas'ul bo'linmalarga va qanday tartibda taqdim etilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotida o'tkazilgan so'rov natijalari bo'yicha shakllantirilgan tahliliy hisobotlar.*

31.5. INDIKATOR

Fikr-mulohazalarni o'rganish natijalari tadqiqot jarayonlarini takomillashtirishda inobatga olinadi

Yordamchi savollar:

❖ *Fikr-mulohazalar qanday shakllarda (so'rovnoma, suhbat, yig'ilish, elektron platforma) yig'iladi va ularning muntazamligi qanday ta'minlangan?*

❖ *Yig'ilgan fikr-mulohazalar tahlili natijasida tadqiqot mavzulari, ish rejalari, ilmiy seminarlar, metodik ko'rsatmalar yoki rahbarlik jarayonida qanday aniq o'zgarishlar kiritilgan?*

❖ *Fikr-mulohazalar asosida qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosi qay tarzda hujjatlashtiriladi va manfaatdor tomonlarga yetkaziladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy-tadqiqot faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ichki buyruqlar yoki farmoyishlar.*

32. MEZON: Tadqiqotchilar uchun ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodologik treninglar tashkil etilgani

Izoh: *Ta'lim tashkilotida ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etish va amalga oshirish ko'nikmalarini rivojlantirish maqsadida o'quv-metodologik treninglar, seminarlar va master-klasslar muntazam tashkil etilgani hamda ularning natijadorligi o'rganiladi*

32.1. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'yicha o'quv-metodologik treninglar rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy-tadqiqot faoliyatini tashkil etishga qaratilgan o'quv-metodologik treninglar bo'yicha yillik (yoki o'quv yili uchun) reja ishlab chiqilganmi va u tegishli tartibda tasdiqlanganmi?*

❖ *Mazkur treninglar rejasida treninglarning maqsadi, mavzulari, o'tkazish muddati, mas'ul bo'linmalar va ishtirokchilar aniq belgilanganmi?*

❖ *Rejada nazarda tutilgan o'quv-metodologik treninglar oliy ta'limdan keyingi ta'lim jarayonlari va ilmiy-tadqiqot faoliyatini samarali tashkil etishga yo'naltirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv-metodologik treninglar rejasi.*

32.2. INDIKATOR

Oxirgi 3 yilda izlanuvchilar uchun muntazam ravishda treninglar, seminarlar yoki master-klasslar o'tkazilgan

Yordamchi savollar:

❖ *So'nggi 3 yil davomida izlanuvchilar uchun qanday turdagi treninglar, seminarlar yoki master-klasslar o'tkazilgan va ular qaysi yo'nalishlarni qamrab olgan?*

❖ *Mazkur tadbirlar qanchalik muntazam tashkil etilgan va ularda izlanuvchilarning qamrovi qanday bo'lgan?*

❖ *Tadbirlarni tashkil etishda ichki mutaxassislar yoki tashqi ekspertlar (xorijiy professorlar, ilmiy markazlar vakillari) jalb etilganmi va natijalar qanday baholangan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'tkazilgan o'quv seminar va treninglar to'g'risida ma'lumotlar.*

32.3. INDIKATOR

Treninglarda izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar va tashqi ekspertlar ishtirok etgan

Yordamchi savollar:

❖ *Treninglarda qaysi toifadagi izlanuvchilar ishtirok etgan va ularning ilmiy rahbarlari faol qatnashganmi?*

❖ *Treninglarni o'tkazishda oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilotga tashqi bo'lgan ekspertlar jalb qilinganmi va ularning roli qanday bo'lgan?*

❖ *Mazkur treninglar izlanuvchilarning dissertatsiya mavzusi, tadqiqot metodologiyasi yoki ilmiy natijalar sifatini oshirishga qanchalik xizmat qilgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Treninglarda izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar va tashqi ekspertlar ishtirok etganligiga doir ma'lumotnoma.*

32.4. INDIKATOR

Treninglar natijasida ilmiy-tadqiqot faoliyatida ijobiy natijalar qayd etilgani haqida tahliliy ma'lumotlar shakllantirilgan

Yordamchi savollar:

❖ Oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilar va ilmiy xodimlar uchun o'tkazilgan treninglar ilmiy-tadqiqot faoliyatining qaysi yo'nalishlariga ijobiy ta'sir ko'rsatdi (maqola, loyiha, patent, grant va boshqalar)?

❖ Treninglarda ishtirok etgan tinglovchilarning ilmiy natijalari (nashrlar soni, ilmiy loyihalarda ishtirok, dissertatsiya bosqichlari) treningdan oldingi va keyingi davrda qanday o'zgarishga ega bo'ldi?

❖ Treninglar samaradorligi bo'yicha tahliliy baholash o'tkazilganmi va ushbu baholash natijalari asosida boshqaruv yoki ilmiy faoliyatga oid xulosalar ishlab chiqilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Treninglar natijasida ilmiy-tadqiqot faoliyatida ijobiy natijalar qayd etilgani haqida tahliliy ma'lumotlar

33. MEZON: Tadqiqotchilarga yetarli darajada tadqiqot olib borish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish xizmatlarining tashkil etilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotida tadqiqotchilarga ilmiy, ijtimoiy va psixologik yo'nalishlarda maslahat hamda qo'llab-quvvatlash xizmatlari ko'rsatilgani, karyera xizmatlari faoliyatining samaradorligi muntazam monitoring qilinib, takomillashtirib borilgani o'rganiladi.

33.1. INDIKATOR

Izlanuvchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish xizmatlari mavjud

❖ Tadqiqotchilarni ijtimoiy, akademik va psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha maslahat berish tizimi qanday tarkibiy tuzilma va mexanizmlar orqali yo'lga qo'yilgan?

❖ Mazkur maslahat berish tizimi doirasida izlanuvchilar uchun qaysi turdagi xizmatlar (akademik maslahat, psixologik maslahat, ijtimoiy masalalar bo'yicha ko'mak) taqdim etiladi?

❖ Maslahat berish tizimidan foydalanish samaradorligi va uning izlanuvchilar muvaffaqiyati hamda farovonligiga ta'siri qanday monitoring va tahlil qilinadi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Qo'llab-quvvatlash xizmatlari bo'yicha ma'lumot va ichki hujjat(lar).

33.2. INDIKATOR

Ijtimoiy himoya va moddiy yordam choralari tizimli amalga oshiriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun ijtimoiy himoya va moddiy yordam ko'rsatish mexanizmlari qanday normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solingan?*

❖ *So'nggi 2–3 yil davomida doktorantlar (PhD, DSc) va mustaqil izlanuvchilarga stipendiya, moddiy yordam, grant yoki kompensatsiya to'lovlari qanday tartibda va qaysi manbalar hisobidan amalga oshirilgan?*

❖ *Ijtimoiy himoya va moddiy yordam choralarining samaradorligi va uzluksizligini ta'minlash uchun tashkilotda monitoring, hisobot va mas'ul ijrochilar tizimi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ijtimoiy himoya va moddiy yordam ko'rsatilganligi bo'yicha ma'lumot.*

33.3. INDIKATOR

Izlanuvchilardan olingan fikr-mulohazalar asosida maslahat berish xizmatlari takomillashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning ilmiy rahbarlik, konsultatsiya va maslahat xizmatlari bo'yicha fikr-mulohazalari qanday usullar orqali muntazam yig'iladi?*

❖ *Olingan fikr-mulohazalar tahlili asosida maslahat berish xizmatlarida qanday aniq o'zgarishlar yoki yaxshilanishlar joriy etilgan?*

❖ *Takomillashtirilgan maslahat xizmatlarining samaradorligi qay tarzda baholanmoqda va qayta aloqa mexanizmi mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *maslahat berish xizmatlari takomillashtirilganligiga doir ma'lumot.*

34. MEZON: Tadqiqotchilarning huquqlarini himoya qilish va shikoyatlarini ko'rib chiqish tartibining mavjudligi

Izoh: *Ta'lim tashkilotida tadqiqotchilarning huquqlarini himoya qilish, shikoyat va murojaatlarni ko'rib chiqish bo'yicha aniq tartib hamda samarali monitoring tizimi mavjudligi, ularning natijalari asosida takomillashtirish choralari ko'rilgani o'rganiladi.*

34.1. INDIKATOR

Izlanuvchilar huquq va erkinliklarini ta'minlash tartibi belgilangan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda izlanuvchilarning huquq va majburiyatlarini belgilovchi normativ-huquqiy hujjat mavjudmi va u tasdiqlanganmi?*

❖ *Izlanuvchilarning huquqlari amalda qanday tartibda ta'minlanadi?*

❖ *Izlanuvchilarning huquqlari buzilgan taqdirda murojaat qilish, shikoyat berish va uni ko'rib chiqish mexanizmi belgilanganmi va u amalda qo'llaniladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilar huquq va erkinliklarini ta'minlash tartibi belgi hujjat(lar).*

34.2. INDIKATOR

Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *shikoyat va murojaatlarni qabul qilish uchun qanday rasmiy kanallar joriy etilgan va ular qaysi hujjat bilan tasdiqlangan?*

❖ *Kelib tushgan shikoyat va murojaatlar qanday tartibda ro'yxatga olinadi, ko'rib chiqiladi va murojaatchiga javob berish muddati qanday belgilangan?*

❖ *So'nggi davrda murojaatlar bo'yicha qabul qilingan qarorlar va ularning ijrosi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Shikoyat va murojaatlarni qabul qilish tizimi yo'lga qo'yilganligiga doir ma'lumot va asoslovchi hujjatlar.*

34.3. INDIKATOR

Murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish uchun ochiq axborot kanallari (onlayn/ an'anaviy) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish uchun qanday onlayn va an'anaviy axborot kanallari joriy etilgan va ular kimlar uchun ochiq?*

❖ *Murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish, ro'yxatga olish hamda ko'rib chiqish tartibi ichki me'yoriy hujjatlar bilan belgilanganmi?*

❖ *Murojaatlar va shikoyatlar bo'yicha mas'ul tuzilma (yoki mas'ul shaxs) belgilanganmi hamda murojaatchilarga javob berish muddatlari amalda ta'minlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Murojaatlar va shikoyatlarni qabul qilish uchun mavjud ochiq axborot kanallari (onlayn/ an'anaviy) to'g'risida ma'lumot.*

34.4. INDIKATOR

Izlanuvchilar murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinadi

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilarning yozma va elektron murojaatlarini qabul qilish, ro'yxatga olish va ko'rib chiqish tartibi qaysi ichki me'yoriy hujjat bilan tartibga solingan?*

❖ *Murojaatlarni ko'rib chiqishning aniq muddati belgilanganmi va ushbu muddatlarga amalda rioya etilayotganligi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?*

❖ *Murojaatlar natijalari bo'yicha izlanuvchilarga javob berish mexanizmi mavjudmi va bu jarayon qay darajada tizimli olib boriladi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Kelib tushgan murojaatlarini ko'rib chiqish muddati va tartibiga rioya qilinganligi to'g'risida ma'lumot*

34.5. INDIKATOR

Shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qarorlar rasmiy ravishda hujjatlashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda shikoyatlar va murojaatlarni qabul qilish, ko'rib chiqish hamda qaror qabul qilish tartibi ichki me'yoriy hujjat bilan belgilanganmi?*

❖ *Kelib tushgan shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qabul qilingan qarorlar yozma shaklda rasmiylashtirilib, tegishli hujjatlarda qayd etiladimi?*

❖ *Shikoyat yoki murojaat muallifiga qabul qilingan qaror haqida belgilangan tartibda rasmiy javob berilganligi tasdiqlanadimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Shikoyatlar va murojaatlar bo'yicha qarorlarni rasmiylashtirilgan hujjatlar.*

VIII. Moddiy-texnik ta'minot yo'nalishi

Izoh: Ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun zarur binolar, laboratoriyalar, amaliy mashg'ulot xonalari, kutubxona va axborot-kommunikatsiya infratuzilmasi ta'lim dasturlari talablariga muvofiq jihozlanganligi va doimiy yangilanib borilishi hamda moddiy-texnik baza izlanuvchilar ehtiyojlari hamda mehnat bozori talablariga mos bo'lishi va ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatini baholaydigan faoliyat baholanadi

35. MEZON: Ilmiy-eksperimental laboratoriya va maydonlar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventarlar, texnikalar, xomashyo materiallar va boshqalar bilan ta'minlangani va ulardan foydalanilishi holati !

Izoh: Tadqiqot faoliyatini samarali ta'minlash uchun yetarli darajada shart-sharoitlar mavjudligi, zamonaviy asbob-uskunalar, jihozlar, inventar, texnika va sarf materiallari bilan ta'minlanganlik hamda ular izlanuvchilar va tadqiqotchilar tomonidan samarali foydalanilayotganligi holati o'rganiladi.

35.1. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqot faoliyati uchun maxsus ilmiy-eksperimental laboratoriyalar va maydon (poligon)lar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy-eksperimental laboratoriyalar va/yoki poligonlar oliy ta'limdan keyingi ta'lim (PhD, DSc) yo'nalishlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni bajarish uchun yetarlimi va bevosita foydalanilyaptimi?*

❖ *Mavjud laboratoriya va poligonlar zamonaviy ilmiy-texnik talablar hamda ta'lim dasturlarida belgilangan ilmiy mavzular bilan mos keladimi?*

❖ *Laboratoriya va poligonlardan foydalanish tashkiliy jihatdan rasmiylashtirilganmi va ilmiy natijalar bilan tasdiqlanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy laboratoriyalar nizomi va pasportlari.*

35.2. INDIKATOR

Laboratoriyalar va ilmiy maydon (poligon)lar asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar bilan jihozlangan*

Yordamchi savollar:

❖ *Laboratoriyalar va ilmiy poligonlar mavjudmi va ular ta'lim dasturi yo'nalishlariga mosmi?*

❖ *Mavjud asbob-uskunalar va jihozlar ilmiy-tadqiqot ishlarini to'liq bajarishga yetarlimi va ishchi holatdami?*

❖ *Laboratoriya va poligonlardan doktorantlar va tadqiqotchilar amalda foydalanyaptimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Asbob-uskunalar, jihozlar va inventarlar ro'yxati.*

35.3. INDIKATOR

Asbob-uskunalarining texnik holati, kalibrovka va/yoki xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy-tadqiqot va ta'lim jarayonida foydalaniladigan asbob-uskunalarining texnik holatini doimiy monitoring qilish va hujjatlashtirish tizimi mavjudmi?*

❖ *Metrologik nazorat talab qilinadigan asbob-uskunalar bo'yicha kalibrovka yoki tekshiruv ishlari belgilangan davriylikda amalga oshiriladimi?*

❖ *Asbob-uskunalarga servis xizmatini ko'rsatish (ta'mirlash, profilaktika, ehtiyot qismlar bilan ta'minlash) bo'yicha ichki tartib yoki tashqi tashkilotlar bilan shartnomalar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Metrologik xizmat va xizmat ko'rsatish tizimi yo'lga qo'yilganligi bo'yicha ma'lumot.*

35.4. INDIKATOR

Laboratoriyalardagi jihozlardan doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar foydalanish imkoniyati muntazam ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning laboratoriya jihozlaridan foydalanishi qaysi ichki hujjatlar (nizom, reglament, buyruq) asosida tashkil etilgan va ular bilan tanishtirilganmi?*

❖ *Laboratoriya jihozlaridan foydalanish jarayoni (jadval, ruxsatnoma, mas'ul shaxslar) qanday tartibda yuritiladi va ushbu jarayon muntazamligi qanday hujjatlar bilan tasdiqlanadi?*

❖ *Ilmiy rahbar (konsultant)larning laboratoriya tajribalarida ishtiroki va jihozlardan birgalikda foydalanishi amalda qanday tashkil etilgan va bu holat qaysi hujjatlarda aks etgan?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Laboratoriyalardagi jihozlardan foydalanish imkoniyatlarining ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot.*

35.5. INDIKATOR

Ilmiy faoliyat uchun xomashyo, material va reaktivlar bilan ta'minlash tizimi mavjud va muntazam yangilanib boriladi

Yordamchi savollar:

❖ *Tashkilotda ilmiy tadqiqotlar uchun zarur bo'lgan xomashyo, material va reaktivlarni rejalashtirish, xarid qilish hamda hisobini yuritish bo'yicha belgilangan ichki tizim (nizom, tartib, yo'riqnoma) mavjudmi?*

❖ *So'nggi 2–3 yil davomida ilmiy laboratoriyalar va tadqiqot bo'linmalarini xomashyo, material va reaktivlar bilan ta'minlash muntazam amalga oshirilganmi hamda bu jarayon hujjatlar bilan tasdiqlanganmi?*

❖ *Ilmiy faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqib xomashyo, material va reaktivlar nomenklaturasi (ro'yxati) davriy ravishda qayta ko'rib chiqilib, yangilanib boriladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ilmiy laboratoriyalar uchun kerakli xomashyo, material va reaktivlar bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumot.

36. MEZON: Tadqiqot olib borish uchun zarur bo'lgan amaliyot bazalari va laboratoriyalari mavjudligi yoki sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bazalaridan foydalanish yo'lga qo'yilgani

Izoh: Doktorantura ta'lim dasturlari talablaridan kelib chiqib, ilmiy tadqiqotlar va loyihalarni tashkil etish uchun zarur bazalar va laboratoriyalar mavjudligi, amaliyot imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida sanoat hamkorlari va boshqa ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik yo'lga qo'yilganligi o'rganiladi.

36.1. INDIKATOR

Ilmiy-tadqiqotlar uchun zarur baza va infratuzilma mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish uchun tashkilotda zamonaviy laboratoriyalar, ilmiy uskunalar va texnik vositalar mavjudmi hamda ular amaldagi ta'lim va ilmiy dasturlar ehtiyojini qanchalik qoplaydi?

❖ Ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirish jarayonida axborot-resurs bazasi (elektron kutubxona, ilmiy ma'lumotlar bazalari, internet tarmog'i)dan foydalanish imkoniyatlari qay darajada ta'minlangan?

❖ Ilmiy infratuzilmadan (laboratoriyalar, ilmiy markazlar, tajriba-sinov bazalari) doktorantlar va mustaqil tadqiqotchilarning doimiy va reglament asosida foydalanishi tashkil etilganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Mavjud ilmiy-tadqiqotlar uchun zarur baza va infratuzilma to'g'risida ma'lumot.

36.2. INDIKATOR

Ixtisosliklarga mos laboratoriyalar faoliyat ko'rsatadi

Yordamchi savollar:

❖ Mazkur ta'lim dasturi (PhD/DSc) ixtisosligiga bevosita mos keluvchi laboratoriyalar mavjudmi va ular doimiy faoliyat yuritadimi?

❖ Laboratoriyalar ilmiy-tadqiqot ishlari va doktorantlar (mustaqil izlanuvchilar) tayyorlash jarayoniga amalda jalb etilganmi?

❖ Laboratoriyalar zamonaviy asbob-uskunalar, me'yoriy hujjatlar va malakali mas'ullar bilan ta'minlanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Ilmiy laboratoriyalarning ixtisosliklarga mosligi to'g'risida asosnoma.

36.3. INDIKATOR**Laboratoriya jihozlari ishchi holatda va doimiy yangilanib boriladi****Yordamchi savollar:**

❖ *Laboratoriyalarda mavjud jihozlarning ishchi holati qanday tartibda nazorat qilinadi va bu jarayon hujjatlashtirilganmi?*

❖ *So'nggi 3–5 yil davomida laboratoriya jihozlarini yangilash, modernizatsiya qilish yoki yangilarini xarid qilish ishlari amalga oshirilganmi?*

❖ *Laboratoriya jihozlaridan ta'lim va ilmiy tadqiqot jarayonlarida muntazam foydalanilayotganligi qanday tasdiqlanadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Laboratoriya jihozlari ishchi holati va yangilanganligi to'g'risida ma'lumot.*

36.4. INDIKATOR**Ilmiy-tadqiqotlar va stajirovkalar uchun sanoat hamkorlari bilan shartnomalar qilingan****Yordamchi savollar:**

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim oluvchilar (PhD/DSc/stajyor-tadqiqotchilar) uchun ilmiy-tadqiqot ishlari yoki stajirovkalarni tashkil etish maqsadida qaysi sanoat tashkilotlari bilan shartnomalar tuzilgan?*

❖ *Tuzilgan shartnomalarda ilmiy-tadqiqot, tajriba-sinov ishlari, amaliyot yoki stajirovkalar bo'yicha aniq majburiyatlar, muddatlar va tomonlarning vazifalari belgilanganmi?*

❖ *Ushbu shartnomalar asosida oxirgi 3 yil davomida real amalga oshirilgan ishlar (PhD/DSc tadqiqotlari, stajirovkalar, hisobotlar, dalolatnomalar) mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Sanoat hamkorlari bilan shartnomalar.*

36.5. INDIKATOR**Tadqiqot natijalarining tahlillari ta'lim jarayonini takomillashtirish uchun qo'llaniladi****Yordamchi savollar:**

❖ *Tadqiqot natijalari qanday tartibda tahlil qilinadi va ushbu tahlillar qaysi tuzilma (kafedra, ilmiy kengash, bo'lim) tomonidan amalga oshiriladi?*

❖ *Tadqiqot natijalari asosida ta'lim dasturlariga qanday aniq o'zgartirishlar kiritilgan?*

❖ *Tadqiqot natijalaridan foydalanish samaradorligi qanday baholanadi va natijalar keyingi ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatadi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Tadqiqot natijalarining ta'lim jarayonlarida qo'llanilganligi to'g'risida dalolatnomalar.*

37. MEZON: Ixtisoslik xususiyatidan va izlanuvchilar sonidan kelib chiqib tadqiqot sohasi bo'yicha ilmiy manbalarning mavjudligi va elektron resurslar bilan belgilangan talablarga muvofiq ta'minlangani !

Izoh: *Izlanuvchilar soni ixtisoslik yo'nalishidan kelib chiqib, tadqiqot sohasiga oid ilmiy manbalar, adabiyotlar, elektron ma'lumotlar bazalari hamda axborot resurslari yetarli darajada mavjud bo'lishi va belgilangan talablarga muvofiqligi o'rganiladi.*

37.1. INDIKATOR

Ixtisosliklar bo'yicha zamonaviy ilmiy manbalar fondi mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim ixtisosliklari bo'yicha so'nggi 5–10 yil davomida nashr etilgan zamonaviy ilmiy adabiyotlar (kitoblar, monografiyalar, ilmiy jurnallar) fondi shakllantirilganmi?*

❖ *Doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun ixtisoslikka oid xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalari (Scopus, Web of Science va boshqalar) hamda elektron resurslardan foydalanish imkoniyati mavjudmi?*

❖ *Ilmiy manbalar fondini muntazam yangilash, foydalanishni hisobga olish va ta'lim hamda dissertatsiya tadqiqotlarida qo'llash mexanizmi (buyruq, reja yoki tartib) joriy etilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ilmiy manbalar fondining mavjudligi to'g'risida ma'lumot.*

37.2. INDIKATOR

Izlanuvchilar uchun ilmiy jurnallar, dissertatsiyalar va statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyati yaratilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Izlanuvchilar ilmiy jurnallar va ma'lumotlar bazalaridan (milliy va xalqaro) bepul yoki shartnoma asosida foydalanish imkoniyatiga egami?*

❖ *Dissertatsiyalar, avtoreferatlar va ilmiy hisobotlarning elektron yoki bosma fondi mavjudmi va ular bilan ishlash tartibi belgilanganmi?*

❖ *Statistik ma'lumotlar (Milliy statistika qo'mitasi, tarmoq vazirliklari, ochiq ma'lumotlar portallari)dan foydalanish uchun tashkiliy va texnik sharoit yaratilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Izlanuvchilarning ilmiy jurnallar, dissertatsiyalar va statistik ma'lumotlardan foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi to'g'rida ma'lumot.*

37.3. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida ilmiy elektron va/yoki an'anaviy kutubxona faoliyat ko'rsatadi

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida ilmiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi elektron va/yoki an'anaviy kutubxona rasmiy ravishda tashkil etilganmi va uning faoliyati doimiy olib boriladimi?*

❖ *Kutubxona fondida doktorantlar va mustaqil izlanuvchilar uchun zarur bo'lgan ilmiy adabiyotlar, dissertatsiyalar, ilmiy jurnallar va elektron ma'lumotlar bazalariga kirish imkoniyati mavjudmi?*

❖ *Kutubxona xizmatlaridan (o'quv adabiyotlari, elektron resurslar, ilmiy bazalar) foydalanuvchilar real foydalanayotganini tasdiqlovchi hisob-kitob yoki statistik ma'lumotlar yuritiladimi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *elektron va/yoki an'anaviy kutubxonaning mavjudligi to'g'risida ma'lumot.*

37.4. INDIKATOR

Ilmiy manbalar va elektron resurslar doimiy yangilanib boriladi va izlanuvchilar ehtiyojiga moslashtirilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ilmiy kutubxona fondida tashkilotda mavjud barcha tayanch doktorantura, doktorantura va mustaqil izlanuvchi ixtisosliklari bo'yicha yetarli miqdorda ilmiy adabiyotlar mavjudmi?*

❖ *So'nggi 3 yil davomida ilmiy kutubxona fondi qanday mexanizm asosida va qaysi manbalar hisobidan yangilanib borgan?*

❖ *Doktorantlar va ilmiy izlanuvchilar xalqaro ilmiy axborot-resurs bazalaridan (Scopus, Web of Science va boshqalar) foydalanish imkoniyatiga egami?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *kutubxona fondi inventarizatsiyasi va yangilanish jadvali.*

37.5. INDIKATOR

Izlanuvchilar va ilmiy rahbar (konsultant)lar tomonidan elektron bazalardan foydalanishning statistik tahlili yuritiladi

Yordamchi savollar:

❖ Izlanuvchilarning ilmiy ma'lumotlar bazalaridan (Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqalar) foydalanish ko'rsatkichlari tizimli ravishda qayd etiladimi?

❖ Kutubxona va elektron resurslar orqali olingan ilmiy manbalar (maqola, monografiya, dissertatsiya) bo'yicha izlanuvchilar kesimida tahlil olib boriladimi?

❖ Ilmiy manbalardan foydalanish faolligi natijalari izlanuvchilarning ilmiy faoliyati (maqola, dissertatsiya boblari, hisobotlar) bilan bog'lab baholanadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ kutubxona va elektron resurslar foydalanish statistikasi;

✓ monitoring natijalari asosida chora-tadbirlar va takliflarni ko'rsatadigan ichki hujjatlar

37.6. INDIKATOR

Axborot-ta'lim muhitida foydalanuvchilar uchun yo'riqnoma va qo'llanmalar ishlab chiqilgan hamda amalda qo'llaniladi

Yordamchi savollar:

❖ Axborot-ta'lim muhitidan foydalanish bo'yicha foydalanuvchilar (doktorantlar, tadqiqotchilar, ilmiy rahbarlar) uchun aniq yo'riqnoma va qo'llanmalar ishlab chiqilganmi va tasdiqlanganmi?

❖ Mazkur yo'riqnoma va qo'llanmalar axborot-ta'lim muhitida (rasmiy veb-sayt, LMS platforma, ichki portal) joylashtirilgan va foydalanuvchilar uchun erkin ochiqmi?

❖ Yo'riqnoma va qo'llanmalardan amaliy foydalanilayotganligi (o'quv mashg'ulotlari, ro'yxatdan o'tish, ilmiy faoliyat, hisobot topshirish jarayonlarida) dalillar bilan tasdiqlanadimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ Axborot-ta'lim muhitidan foydalanish uchun ishlab chiqilgan yo'riqnoma va qo'llanmalar hamda ularning amalda qo'llanilganligi to'g'risida ma'lumot.

38. MEZON: Inklyuziv ta'lim olish uchun binolar va jihozlarning moslashtirilgani, maxsus o'quv materiallarining mavjudligi, axborot-kommunikatsiya vositalaridan foydalanish imkoniyati yaratilgani

Izoh: Ta'lim tashkilotda imkoniyati cheklangan shaxslar uchun infratuzilma va ta'lim muhiti moslashtirilgan bo'lib, binolar, jihozlar, axborot resurslari hamda ta'lim materiallaridan teng foydalanish imkoniyati yaratilganligi o'rganiladi

38.1. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida pandus, lift va maxsus hojatxonalar mavjud

Yordamchi savollar:

❖ Ta'lim tashkilotining asosiy o'quv va ilmiy binolariga nogironligi bo'lgan shaxslar uchun pandus yoki muqobil kirish yo'laklari o'rnatilganmi va ular amaldagi qurilish me'yorlariga muvofiqmi?

❖ Ko'p qavatli binolarda liftlar yoki nogironligi bo'lgan shaxslar foydalanishi mumkin bo'lgan ko'tarish moslamalari mavjudmi va ular doimiy ishlash holatidami?

❖ Ta'lim tashkiloti hududida va binolarida nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan maxsus hojatxonalar mavjudmi hamda ularning holati foydalanish uchun yaroqlimi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotining moddiy-texnik baza to'g'risidagi ma'lumotnomasi va bino va inshootlarning texnik pasporti yoki qabul qilish dalolatnomasi*

38.2. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotiga kirish va harakatlanish qulayligi ta'minlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkiloti hududiga barcha ta'lim oluvchilar, jumladan, nogironligi bo'lgan shaxslar uchun xavfsiz va qulay kirish imkoniyati (pandus, lift, maxsus yo'lak) mavjudmi?*

❖ *O'quv binolari ichida auditoriyalar, laboratoriyalar, kutubxona va boshqa infratuzilma obyektlariga erkin va to'siqsiz harakatlanish ta'minlanganmi?*

❖ *Ta'lim tashkilotida harakatlanish qulayligini ta'minlashga oid ichki me'yoriy hujjatlar va mas'ul shaxslar belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Ta'lim tashkilotiga kirish va harakatlanish uchun yaratilgan qulayliklar to'g'risida ma'lumot.*

38.3. INDIKATOR

Auditoriyalar imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus uskunalar bilan jihozlangan

Yordamchi savollar:

❖ *Oliy ta'lim yoki ilmiy tashkilot auditoriyalarida imkoniyati cheklangan shaxslar (nogironligi bo'lgan shaxslar) uchun kirish, harakatlanish va ta'lim olishni ta'minlovchi maxsus texnik vositalar (pandus, lift, maxsus parta, ovoz kuchaytirgich va boshqalar) mavjudmi?*

❖ *Mazkur auditoriyalar imkoniyati cheklanganlar uchun moslashtirilganligi bo'yicha ichki hujjatlar (reja, buyruq, dalolatnoma) bilan rasmiylashtirilganmi va ular amalda foydalanilyaptimi?*

❖ *Auditoriyalarning maxsus uskunalar bilan jihozlanganligi bo'yicha mas'ul bo'linma yoki shaxs belgilanganmi hamda bu holat moddiy-texnik baza hujjatlarida aks ettirilganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *O'quv auditoriyalarining imkoniyati cheklanganlar uchun maxsus uskunalar bilan jihozlanganligi to'g'risida ma'lumot.*

38.4. INDIKATOR

Ta'lim tashkilotida maxsus o'quv materiallari (brayl yoki audio materiallar) mavjud

Yordamchi savollar:

❖ *Nogironligi bo'lgan (ko'rish, eshitish, harakatlanishida cheklovlar mavjud) doktorant va mustaqil izlanuvchilar uchun maxsus moslashtirilgan o'quv materiallari (jumladan, Brayl alifbosidagi resurslar yoki elektron muqobillari) mavjudmi?*

❖ *Ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayonida nogironligi bo'lgan ta'lim oluvchilar foydalanishi mumkin bo'lgan maxsus texnik vositalar (ekran o'qish dasturlari, audio qurilmalar, moslashtirilgan kompyuter texnikasi va boshqalar) bilan ta'minlanganlik holati qanday?*

❖ *Mazkur maxsus materiallar va yordamchi texnik vositalardan foydalanish tartibi, mas'ul bo'linma yoki shaxslar belgilanganmi va bu bo'yicha ichki hujjatlar mavjudmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *maxsus o'quv materiallari va jihozlar tasdiqlangan ro'yxati (Brayl kitoblari, ko'rgazmali materiallar, maxsus qurilmalar).*

38.5. INDIKATOR

Maxsus axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda yordamchi vositalari joriy etilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Nogironligi bo'lgan tinglovchilar (eshitish, ko'rish, harakatlanishida cheklovlari mavjud shaxslar) uchun ta'lim jarayonida foydalaniladigan elektron resurslar va AKT vositalari (audio darslar, subtitrl video ma'ruzalar, Brayl formatidagi materiallar) mavjudmi va amalda qo'llanilyaptimi?*

❖ *Oliy ta'limdan keyingi ta'lim dasturlari doirasida masofaviy va elektron ta'lim platformalari (LMS, elektron kutubxona, video ma'ruzalar bazasi) inklyuzivlik talablariga moslashtirilganmi (subtitr, ovozli o'qish, kontrast rejim, klaviatura orqali boshqarish)?*

❖ Inklyuziv ta'limni ta'minlash maqsadida maxsus texnik va dasturiy vositalar (ekran o'qish dasturlari, audio konvertatsiya, Brayl printer yoki tashqi xizmatlardan foydalanish mexanizmi) joriy etilganmi va ular bo'yicha mas'ul shaxslar belgilanganmi?

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *AKT va elektron resurslar (audio-video materiallar, subtitrlar, Brayl alifbosi) ro'yxati va foydalanish tartibi bo'yicha ichki yo'riqnoma.*

38.5. INDIKATOR

Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar uchun individual ta'lim olish rejasi tuzilgan

Yordamchi savollar:

❖ *Ta'lim tashkilotida imkoniyati cheklangan izlanuvchilar mavjudmi va ular rasmiy ravishda ro'yxatga olinganmi?*

❖ *Mazkur izlanuvchi(lar) uchun individual ta'lim olish rejasi ishlab chiqilgan va tasdiqlanganmi?*

❖ *Individual ta'lim rejasi ijrosi monitoring qilinadimi va unga mas'ul shaxslar belgilanganmi?*

Asoslantiruvchi dalil(lar):

✓ *Imkoniyati cheklangan izlanuvchilar uchun individual ta'lim olish rejasi*

ICHKI BAHOLASH NATIJALARI BO'YICHA XULOSA

Ichki baholash natijalaridan kelib chiqib, ta'lim tashkilotining davlat ta'lim talablari, kompleks davlat akkreditatsiyasi mezonlari, milliy malaka ramkasi va kasbiy standartlarga muvofiqlik darajasi aniq va qisqa ifodalanadi.

Misol uchun: Ta'lim tashkiloti amaldagi davlat ta'lim talablari va akkreditatsiya mezonlariga asosan umumiy holda muvofiq deb baholandi.

Ta'lim tashkilotining aniqlangan kuchli jihatlari, xususan, asosiy afzalliklari, ta'lim natijalarining aniqligi va o'lchanishi, mehnat bozoriga yo'naltirilganligi, ish beruvchilar bilan hamkorligi hamda pedagoglar salohiyati qisqa va aniq shaklda bayon etiladi.

Aniqlangan kamchiliklar va xavflar ya'ni standartlar yoki indikatorlarga to'liq javob bermaydigan jihatlar, resurslar, kadrlar yoki infratuzilma bilan bog'liq muammolar, ta'lim natijalari hamda amaliyotga joriy etishdagi nomutanosibliklar, shuningdek, bitiruvchilar natijalarida kuzatilgan xavflar ochiq va aniq sabablar bilan ko'rsatiladi.

Ta'lim natijalariga erishish darajasi bo'yicha o'qitish natijalarining bajarilishi, monitoring natijalari tahlili hamda bitiruvchilarning ishga joylashishi yoki keyingi ta'limga o'tishi (PhD bitiruvchilari uchun) haqidagi ma'lumotlar qisqacha raqamlar bilan ko'rsatiladi.

Manfaatdor tomonlar (izlanuvchilar, ilmiy rahbar (konsultant)lar, ish beruvchilar va bitiruvchilar) fikrlarining umumlashtirilgan natijalari bo'yicha xulosa raqamlar asosida keltiriladi.

Ta'lim tashkilotini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasida ustuvor yo'nalishlar, muhim chora-tadbirlar hamda qisqa va o'rta muddatli o'zgarishlar aniq belgilanadi.

Ichki baholash natijalari asosida ta'lim tashkilotining rasmiy munosabatini ifodalovchi umumiy xulosa shakllantiriladi. Mazkur xulosada ta'lim tashkilotini kompleks davlat akkreditatsiyasiga tavsiya etish, kamchiliklar bartaraf etilishi sharti bilan tavsiya etish yoki takomillashtirish zarurati sababli qayta ko'rib chiqish to'g'risidagi ichki baholash xulosasi bayon etiladi.

Takomillashtirish ishlari uchun mas'ul bo'linmalar, keyingi ichki monitoring muddatlari hamda qayta baholash rejasi qisqacha qayd etiladi.

ILOVA: TA'LIM TASHKILOTI BO'YICHA ICHKI BAHOLASH HISOBOTI SHAKLI

Ichki baholash hisoboti quyidagi ketma-ketlikda shakllantiriladi:

1. Titul varaqasi (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
2. Mundarija (*platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
3. Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi (*keltirilgan **namuna** asosida tasdiqlanadi va platformaga yuklanadi*).
4. Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot (*keltirilgan **namuna** asosida platforma orqali avtomatik shakllanadi*).
5. Ta'lim tashkiloti tuzilmasi (*keltirilgan **namuna** asosida ta'lim tashkiloti tomonidan tasdiqlangan holda platformaga yuklanadi*).
6. Kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazishning baholash yo'nalishlari, mezonlari va indikatorlari bo'yicha baholash natijalarini shakllantirishda foydalaniladigan tahliliy ma'lumotlar (*keltirilgan **1-12-jadvallar** to'ldirilgan holda platformaga yuklanadi*).

ta'lim tashkilotining nomi

"TASDIQLAYMAN"

_____ FIO.

"__" _____ 202__-y.

kompleks davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish bo'yicha

ICHKI BAHOLASH HISOBOTI

Hudud: _____.

Ichki baholash bo'yicha komissiya a'zolari tarkibi

t/r	F.I.O.	Lavozimi

Ta'lim tashkiloti to'g'risida umumiy ma'lumot

Nomi:	
Tashkil etilgan yili:	
Tashkil etish asosi:	<i>(normativ-huquqiy hujjat, litsenziya yoki boshqalar)</i>
Rasmiy elektron pochtasi:	
Rasmiy veb-sahifasi:	
Rasmiy telefon raqami:	
Manzili (asosiy):	
Manzili (qo'shimcha):	
Davlat akkreditatsiyasi uchun mas'ul shaxs to'g'risida ma'lumot	
F.I.O.:	
Lavozimi:	
Rasmiy elektron pochtasi:	
Rasmiy ish telefon raqami:	

Ta'lim tashkiloti tuzilmasi

Ta'lim tashkilotining tashkiliy tuzilmasi, bo'linmalari, kafedralari va boshqa tuzilmaviy tarkiblari ko'rsatiladi. Ta'lim tashkiloti filial yoki boshqa tarkibiy yuridik (yuridik bo'lmagan) tarkibiy tuzilmalari ham ko'rsatiladi.

1-jadval

Ta'lim tashkiloti huzurida mavjud ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengashlarning oxirgi 3 yillik faoliyati to'g'risida ma'lumot*

(20__-20__ yillar bo'yicha)

t/r	Ilmiy kengashlarning raqami	Ilmiy kengash raisi, rais o'rinbosari, ilmiy kotibi	Ilmiy kengashlardagi doimiy ixtisosliklar	Ilmiy kengashlardagi bir martalik ixtisosliklar	20__ yildagi himoyalar soni		Shulardan OTTdagi ilmiy tadqiqotchilari himoya qilganlar soni		20__ yildagi himoyalar soni		Shulardan OTTdagi ilmiy tadqiqotchilari himoya qilganlar soni		20__ yildagi himoyalar soni		Shulardan OTTdagi ilmiy tadqiqotchilari himoya qilganlar soni		Izoh
					PhD	DSc	PhD	DSc	PhD	DSc	PhD	DSc	PhD	DSc	PhD	DSc	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
1																	
2																	
3																	
...																	

* — So'ngi 3 yillik ma'lumotlar asosida to'ldiriladi va jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari bilan Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotida mavjud ixtisosliklar va ularda o'qiyotgan doktorantlar soni *

t/r	Ixtisosliklar		Doktorantlar soni						
	shifri	nomi	1-bosqich		2-bosqich		3-bosqich		Jami
			Dokt.	Mus.izl.	Dokt.	Mus.izl.	Dokt.	Mus.izl.	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Tayanch doktorantura									
1									
2									
...									
	Jami								
Doktorantura									
1									
2									
...									
	Jami								
	Hammasi								

* Joriy yil holati bo'yicha to'ldiriladi.

Ta'lim tashkilotida doktorantlarning turar joylari, sport inshootlari haqida ma'lumot

Doktorantlarning turar joylari nomi	Jami o'rinlar soni	Yashash uchun yaroqli o'rinlar soni	Yashayotgan doktorantlar soni	Turar joyiga muhtoj doktorantlar soni	Sport inshootlari		Sport inshootlari holati	
					nomi	soni	qoniqarli	qoniqarsiz
1	2	3	4	5	6	7	8	9
...								
J a m i								

Ta'lim doktorantlar va mustaqil izlanuvchilarning o'qishini tashkil etish holati *

ixtisosligi bo'yicha **

(ixtisoslik shifri va nomi)

№	Doktorantlar FISH	Nazariy-metodologik dasturlar		
		Qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi	Dasturning o'zlashtirilganligi bo'yicha monitoring yoki ichki baholash komissiyasi xulosasi (o'zlashtirilgan / qisman o'zlashtirilgan / o'zlashtirilmagan)	Dasturning o'zlashtirilganligi bo'yicha tashqi baholash komissiyasi xulosasi*** (o'zlashtirilgan / qisman o'zlashtirilgan / o'zlashtirilmagan)
1	2	4	5	6
		Tayanch doktorantura		
1				
2				
3				
...				

* — ta'lim tashkilotida mavjud har bir ixtisoslik bo'yicha ma'lumotlar jadval asosida to'ldiriladi;

** — jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

*** — tashqi baholash jarayonida ekspert komissiyasi tomonidan doktorantlar tasodifiy tanlash orqali o'rganiladi.

Doktorantlar shaxsiy ish rejalarining bajarilishi bo'yicha ma'lumot* (20__-20__ yillar bo'yicha)
ixtisosligi bo'yicha**

(ixtisoslik shifri va nomi)

t/r	Doktorantlarning F.I.Sh.	Doktorantlar o'qiyotgan bosqich	Hisobotlarni kafedra, bo'lim, laboratoriya va boshqalarda muhokama qilinganlik sanasi va qarori mazmuni (o'tdi/o'tmadi)			Doktorantlar faoliyati monitoringi olib borilganligi va hisobotlarni oliy ta'lim tashkilotlarining kengashi yoki ilmiy tadqiqot muassasalarining ilmiy (ilmiy- texnikaviy) kengashlarida muhokama qilinganlik sanasi va qaror mazmuni (o'tdi/o'tmadi)			Ijtimoiy-gumanitar va iqtisodiyot sohalari bo'yicha dissertatsiya natijalari yuzasidan chop etilgan monografiyalar nomi va chop etilgan sanasi (faqat DSc uchun)
			20__ y.	20__ y.	20__ y.	20__ y.	20__ y.	20__ y.	
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10
Tayanch doktorantura									
1									
2									
3									
...									
Doktorantura									
1									
2									
3									
...									

* — ta'lim tashkilotlarida mavjud har bir ixtisoslik bo'yicha jadval ma'lumotlari tuziladi;

** — jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

Ilmiy rahbar (ilmiy maslahatchi)lar tarkibining so'nggi tugallangan 3 yildagi sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijalari*

t/r	Ilmiy rahbar (konsultant) ning F.I.Sh.	Ish joyi	Ilmiy darajasi, unvoni va ixtisosligi nomi	Olib borilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlari natijalari					Umum e'tirof etilgan ilmiy nashrlardagi ilmiy maqolalar soni			Anjumanlarda e'lon qilingan tezislar soni		Xirsh indeksi			Ilmiy rahbar (konsultant)lik qilayotgan ixtisosliklar nomi	Ilmiy rahbarlik qilayotgan izlanuvchi- lar soni	Muddatida himoya qilgan izlanuvchi- lar soni
				Qatnashgan ilmiy texnik loyihalar soni **	Chop etilgan monografiyalari soni	Olingan patentlar soni	Ishlab chiqarishga tatbiq etilgan ishlanmalar soni	Boshqa olingan natijalar soni	Respublika ilmiy jurnallarda	Xorijiy ilmiy jurnallarda	Scopus, Web of Science	Respublika miqyosida	Xorijiy davlatlarda	Web of science	Scopus	Google scholar			
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18	19	20
Tayanch doktorantura																			
1																			
2																			
3																			
...																			
Doktorantura																			
1																			
2																			
3																			
...																			

* — jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi;

** — davlat ilmiy-texnik dasturlari doirasida amalga oshirilgan ilmiy-texnik loyihalar.

Doktorlik dissertatsiyasi mavzulari va bajarilayotgan ilmiy-tadqiqot ishlarning respublika ilmiy-texnik hamda innovatsion rivojlanish va ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo'nalishlariga mosligi bo'yicha*

ixtisosligi bo'yicha**

(ixtisoslik shifri va nomi)

t/r	Doktorlik dissertatsiyasi mavzulari			
	Doktorantlar FISH	Dissertatsiya mavzusi	Qachon va kim tomonidan tasdiqlanganligi	Yagona elektron tizimga kiritilgan muddati
1	2	3	4	5
Tayanch doktorantura				
1				
2				
...				
Doktorantura				
1				
2				
...				
Mustaqil izlanuvchilik				
1				
2				
...				

* — ta'lim tashkilotlarida mavjud har bir ixtisoslik bo'yicha jadval ma'lumotlari tuziladi;

** — jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

Ilmiy natijalarning amaliyotga joriy etish holati va ularning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligi bo'yicha ma'lumot*

(20__-20__ yillar bo'yicha)

t/r	Doktorantura ixtisosliklari nomi	Fanga, amaliyotga tatbiq etilgan dissertatsiyalarning mavzusi	Doktorantning F.I.Sh.	Tatbiq etilgan yili	Tatbiq etgan tashkilot, korxona va boshqalar nomi	Iqtisodiy samaradorligi, so'm	Ilmiy ish natijalarining tijoratlashtirilganligi (mln so'm)	Izoh
1	2	3	4	5	6	7	8	9
Tayanch doktorantura								
1								
2								
...								
Tayanch doktorantura mustaqil izlanuvchilik								
1								
2								
Doktorantura								
1								
2								
...								
Doktorantura mustaqil izlanuvchilik								
1								
2								
...								

* — So'ngi 3 yillik ma'lumotlar asosida to'ldiriladi va jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari bilan Ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

Shaxsiy ish rejalari bo'yicha ilmiy ishlari haqida ma'lumot*

ixtisosligi bo'yicha** (20__-20__ yillarda)

(ixtisoslik shifri va nomi)

t/r	Doktorantlarning F.I.Sh.	Ta'lim bosqichi	Umume'tirof etilgan ilmiy jurnallardagi maqolalar (elektron havolasi bilan) soni			Chop etilgan monogra- fiyalar soni	Olingan patentlar soni	Anjumanlarda e'lon qilingan tezislar soni		
			Respublika	Xorijiy	Elektron ilmiy-texnik nashrlar			Respublika	Xorijiy	Elektron ilmiy-texnik nashrlar
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11
Tayanch doktorantura										
1										
2										
...										
Doktorantura										
1										
2										
...										
Tayanch doktorantura mustaqil izlanuvchilik										
1										
...										
Doktorantura mustaqil izlanuvchilik										
1										
2										
...										

* — ta'lim tashkilotida mavjud har bir ixtisoslik bo'yicha so'ngi 3 yillik jadvalga ma'lumotlar kiritiladi.

** — ma'lumotlarni asoslovchi hujjatlar Attestatsiya komissiyasiga taqdim etiladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'limni bitirgan doktorantlarning dissertatsiyasini himoya qilish holati bo'yicha ma'lumot*
(20__-20__ yillar bo'yicha)

№	Ixtisoslik nomi	Hammasi										
		Stajyor-tadqiqotchi			PhD				DSc			
		Qabul qilingan	jumladan		Qabul qilingan	jumladan			Qabul qilingan	jumladan		
			Muddatida PhDga kirgan	Hozirgi kunga qadar tayanch doktoranturaga (PhD) kirgan		Bitirgan	Muddatida himoya qilgan	Hozirgi kunga qadar himoya qilgan		Tamomlagan	Muddatida himoya qilgan	Hozirgi kunga qadar himoya qilgan
20__ yil												
20__ yil												
20__ yil												

* — So'ngi 3 yillik ma'lumotlar asosida to'ldiriladi va jadval kiritilgan ma'lumotlarning asoslovchi hujjatlari ekspertlar komissiyasiga taqdim etiladi.

Ta'lim tashkilotida ilmiy-eksperimental laboratoriyalar bilan ta'minlanganlik darajasi, ularning zamonaviy asbob-uskunalar bilan ta'minlanganlik holati*

t/r	Ixtisosliklar		Ilmiy-eksperimental laboratoriyalarning mavjudligi			Zamonaviy asbob-uskuna, jihoz, inventar, xom-ashyo va boshqalar bilan ta'minlanganligi		
	shifri	nomi	mavjud	qisman	Mavjud emas	to'liq	qisman	eski
1	2	3	4	5	6	7	8	9
1								
2								
3								
...								

* Joriy yil holati bo'yicha to'ldiriladi.

Ta'lim tashkilot moddiy-texnik bazasi haqida ma'lumot

Joriy o'quv yili	Axborot resurs markazi											Kompyuterlar					
	Maydoni (kv.m.)	O'rinlar soni	Axborot resurs markazida tadqiqot sohasi bo'yicha mavjud ilmiy manbalar soni							Jami kompyuterlar soni, shu jumladan internetga ulanganlari soni	"Scopus", WoS kabi xalqaro ma'lumotlar bazalaridan foydalanish imkoniyatlarining yaratilganligi	Jami, shundan internetga ulanganlari soni	Tadqiqotchilar foydalanadiganlari soni	Ilmiy ishlarni bajarish uchun maxsus kompyuterlar soni	Ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish uchun yetarli darajada mavjudligi		
			Ilmiy adabiyotlar jami, shundan	Dissertatsiyalar	Avtoreferatlar	Monografiyalar	Respublika ilmiy jurnallari	Xorijiy ilmiy jurnallari	Boshqa ilmiy manbalar						yetarli	yetarli emas	mavjud emas
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15	16	17	18
20__ -																	
20__ -																	

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI
TA'LIM SIFATINI OSHIRISH CHORA-TADBIRLARI REJASI

t/r	Baholash yo'nalishi	Mezon	Aniqlangan muammo yoki takomillashtirish ehtiyoji	Takomillashtirish chora-tadbirlari	Amalga oshirish mexanizmi	Mas'ul bo'linma / shaxs	Amalga oshirish muddati	Zarur resurslar	Kutilayotgan natijalar

This image shows a single sheet of white paper with horizontal ruling lines. The lines are evenly spaced and run across the width of the page. There are no margins, text, or other markings on the paper.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ADMINISTRATSIYASI HUZURIDAGI

TA'LIM SIFATINI TA'MINLASH MILLIY AGENTLIGI

Murojaat uchun

- +998 55 505 30 30
- www.nqaae.uz
- info@nqaae.uz
- 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani,
Universitet ko'chasi, 7-uy.